

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

ABDULLAYEV SAYFULLA FAYZULLAYEVICH

AZIMOV SANJAR SAMADOVICH

AVEZOV SHERALI NAIMOVICH

TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASINI O'QITISH METODIKASI

(TASVIRIY SAN'AT MASHGULOTLARINING ZAMONAVIY TA'LIMI)

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 5110800 - Tasviriy
san'at va muhandislik grafikasi, ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv
qo'llanma sifatida tavsiya etgan*

TOSHKENT – 2020

Annotatsiya

Mazkur o'quv qo'llanma 5110800 - "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" ta'lim yo'nalishi "Tasviriy san'at o'qitish metodikasi" o'quv fanining muhim kursi – Tasviriy san'at darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'rgatishga bagishlangan. Kitobda mazkur yunalishini tugatgan pedagog – rassomlar tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalar tasviriy san'at darslarida qo'llanishining ahamiyati keng yoritilgan.

Аннотация

Данное учебное пособие посвящено важному разделу учебного курса "Методика преподавания изобразительного искусства" по направлению образования «Изобразительное искусство и инженерная графика». В ней раскрываются теоретические и практические основы и положения современных педагогических технологий как неотъемлемой части подготовки педагогов – художников.

Annotation

This training manual is devoted to an important section of the training course "Methods of teaching fine arts in the field of education" Visual Arts and Engineering Graphics". It reveals the theoretical and practical foundations and provisions of modern pedagogical technologies as an integral part of the preparation of future teachers - artists.

Taqrizchilar:

Nodir Yodgorov – Buxoro davlat universiteti, "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrasi mudiri, p.f.n. professor

O'qtam Yodgorov - Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, "Chizma geometriya va muhandislik grafikasi" kafedrasi mudiri, t.f.n. dotsent.

KIRISH

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq - tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta‘minlash uchun muhim poydevor bo‘ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart - sharoitlar yaratdi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikga erishgan so‘ng jahonning rivojlangan mamlakatlari kabi axborot va pedagogik texnologiyalarini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Milliy tarbiya tizimini shakllantirish, barcha sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va undan foydalanish, jahon axborot resurslaridan bahramand bo‘lishni kengaytirishga mustahkam zamin yaratilmoqda. Ma‘lumki, fan va texnika jadal sur‘atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ilmiy bilimlar, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bu, bir tomondan, fan - texnika yangi soha va bo‘limlarining taraqqiy etishi tufayli uning differensiyallashuvini ta‘minlayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida integratsiya jarayonini vujudga keltirmoqda. Darhaqiqat, yangilangan ta‘lim tizimini joriy etishda har bir bo‘lajak pedagogning o‘z faniga va barkamol avlod ta‘lim - tarbiyasiga oid kasbiy layoqatliligini shakllantirish va tarbiyalab borib, ularni pedagogik faoliyatda izchil qo‘llay bilish mahoratiga ega bo‘lishi bugungi kunning muhim talabidir.

«Pedagogik texnologiya bu butun o‘qitish va bilimlarni samaradorlashtirish vazifasini qo‘yuvchi texnik xamda shaxs resurslari va ularning o‘zaro aloqasini hisobga olib yaratish, qo‘llash va belgilashning tizimli metodidir».

An‘anaviy o‘qitish texnologiyasi asosan «pedagog - talaba» tarzida umumiy xarakterda bo‘lib, unda talaba ta‘lim jarayonining ob‘ekti, ya‘ni passiv shaxs sifatida qaraladi. Pedagogik texnologiyada «Pedagog - ta‘lim - talaba» tizimiga asoslanadi va unda talaba sub‘ektga ya‘ni, ta‘lim jarayonining faol ishtirokchisiga

aylanadi. Bunda talaba o'zi mustaqil izlanuvchi va o'zini nazorat etuvchi boshqaruvchiga aylanadi.

Tasviriy san'at fanini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish ya'ni uni takomillashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan quyidagi omillarni qayd etish mumkin:

- oily ta'lim muassasalaridagi – professor - o'qituvchilarning pedagogik texnologiyalarni amaliyotda qo'llashga uzluksiz ravishda tayyorlashning ilmiy asoslangan tizimi mavjud emasligi;
- fan, texnika va texnologiya taraqqiyotining bugungi darajasi bilan tasviriy san'at pedagoglarining kasbiy tayyorgarligi sifatini ta'minlash jarayoni orasidagi nomuvofiqlikning mavjudligi;
- tasviriy san'at pedagoglarining kasbiy layoqatlarini tarbiyalash jarayonini takomillashtirish borasida to'plangan ilg'or tajribalarning amaliyotga etarlicha joriy etilmaganligi;
- tasviriy san'at pedagoglari uchun aynan pedagogik texnologiyalar asosida dars ishlanmalari tavsiya etilmaganligi, mustaqil ta'limini tashkil etish imkonini beruvchi o'quv - metodik majmualarning etarlicha yaratilmaganligi.

Shu sababli, zamonaviy o'quv texnologiyalari imkoniyatlaridan unumli foydalanish negizida tasviriy san'at darslarida pedagogik texnologiyalarni qo'llashning nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish dolzarbligini belgilaydi.

Tasviriy san'at darslarida o'qitishning interfaol usullarini qo'llash hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Tasviriy san'at darslariga interfaol usullardan aqliy hujum, klaster, suhbat, bahs, munozara, boshqotirma, rolli o'yinlar pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish zaruriyati pedagogik texnologiyaning mazmuni hamda an'anaviy ta'lim mohiyatini o'rganish, tahlil etish asosida yuzaga keladi.

Bizga yaxshi ma'lumki, an'anaviy ta'lim mazmunini asosan pedagog bu jarayondagi avtoritar mavqei, tasviriy san'at o'quvchilarining sust faoliyati asosiga qurilgan bo'lib, tasviriy san'at uchun ajratilgan vaqtning asosiy qismi pedagoglar

tomonidan muhim nazariy ma'lumotlarni bayon etishga sarflanar, tasviriy san'at talabalarining faolligini ta'minlashga zaruriyat sezilmasligini ifoda etardi.

Yuqoridagilarni inobatga olib o'quv qo'llanma ustidan ishni olib borish qaroriga keldik.

Qo'llanmada, biz o'z oldimizdagi maqsad va vazifalarni quyidagicha belgilab oldik:


Tasviriy san'at darslarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish va uni o'qitish usullarini mazmunini yoritish.

Tasviriy san'at darslarini samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish jarayoni.

Tasviriy san'at darslarini samaradorligini oshirishda interfaol usullarni qo'llash.

Tasviriy san'at darslarida qo'llaniladigan ta'lim vositalarining mazmuniga pedagogik texnologiya elementlarini singdirish, darslarning samaradorligini oshirish, shuningdek, talabalarining bilim, ko'nikma, malakalari darajasini ortirish.

I - BOB. TASVIRIY SAN'AT DARSLARINI ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISHNING NAZARIY - PEDAGOGIK ASOSLARI



Tasviriy san'at darslarini samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. Tasviriy san'at darslarini samaradorligini oshirishda interfaol usullarni qo'llash. Tasviriy san'at mashg'ulotlarida yangi pedagogik texnologiyalar. Pedagogik tajriba - sinov ishlari mazmuni, va uni tashkil etish metodikasi. Bob bo'yicha mustahqamlash va nazorat savollari.

Tasviriy san'at darslarini samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish

«Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'limda ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o'zlashtirish prinsipiga alohida e'tibor berilgan. Pedagogik jarayonning eskirib qolgan texnologiyasini yangisiga almashtirish, zamonaviy davr talablari asosida yondashish, darsga esa yangicha usullarning loyihasini qo'llash asosiy vazifa bo'lib qoldi. Shuningdek ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarga, darslarni o'qitishning faol usullarini qo'llab tashkil etish muammolarining yechimiga qo'yilgan talab tobora ortib bormoqda. AQSH va Evropa mamlakatlarida «ta'lim texnologiyasi» sifatida e'tirof etilgan nazariya bo'lib, uning yaratilishi to'g'risida ma'lumot beruvchi manbalarni o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, ta'lim tizimini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish g'oyasi o'tgan asrning boshlarida g'arbiy Evropa hamda AQSHda ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim samaradorligini oshirish, shaxs ijtimoiylashuvini ta'minlash va bu borada muayyan muvaffaqiyatga erishish borasidagi ijtimoiy ehtiyojni qondirishga urinish natijasida vujudga kelgan. Ushbu g'oya XX asrning 30 - yillarida tasviriy san'at darslariga «pedagogik texnika», «ta'lim texnikasi», tushunchasining olib kirilishi bilan asoslangan. Bu sohadagi mavjud adabiyotlarda «ta'lim texnikasi» tushunchasi o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko'maklashuvchi usul, vositalar yig'indisi deya talqin etiladi.

XX asrning 50 - yillarida audiovizual vositalarning yaratilishi hamda ular xizmatidan foydalanish «ta'lim texnologiyasi»ning yo'nalishini belgilab beruvchi omildir deya baholandi. Ushbu bosqichda asosiy e'tibor texnik vositalardan samarali foydalanish hisobiga amalga oshirilishi, ularning imkoniyatlarini kengaytirish, axborot sig'imini va ularni uzatishni takomillashtirish va individual ta'limni yo'lga qo'yish kabi masalalarning ijobiy hal etilishiga qaratildi.

O'tgan asrning 60 - yillarida ta'lim faoliyatini avvaldan puxta ishlab chiqilgan dastur g'oyalariga muvofiq tashkil etish tashabbusi ko'tarildi. Dasturlashtirilgan ta'lim o'quvchi muayyan bilimlarni qismlarga bo'lib hal etilishi asosida tasviriy san'at darslarini tashkil etishni nazarda tutadi. Dasturlashtirilgan ta'lim mazmunida uning maqsadlari, baholash mezonlari tasviriy san'at darslari mohiyatining aniq tavsifini ko'rsatuvchi ko'rsatgichlar ekanligiga alohida o'rin ajratildi.

«Texnologiya» yunoncha so'z bo'lib, «techne» - mahorat, san'at va «logos» - tushuncha, ta'limot, fan ma'nosini anglatadi.

“Ta'lim texnologiyasi” iborasining ma'nosi - (inglizcha “An educational technology”) tasviriy san'at darslarini yuksak mahorat bilan san'at darajasida tashkil etish to'g'risida ma'lumot beruvchi fan, ta'limot demakdir yani vaqtda mazkur tushunchaning ta'rifi hamda uning mohiyati borasida yagona g'oya mavjud emas. Bu nazariya mohiyatining yoritilishiga nisbatan turli yondashuvlar mavjud.

Foydalanishga topshirilayotgan tasviriy san'at darslarining samaradorligini oshirish ta'lim - tarbiya jarayonini davr talabi darajasida yangi pedagogik texnologiyalar, texnik hamda axborotli vositalar bilan kurollantirishni takozo etadi. Tasviriy san'at darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish mazkur jarayonning nazariy - amaliy kirralarini tadqiq etish, maxsus ishlanmalar yoki tavsiyanomalarning yaratilishini talab etadi. Uzoq yillardan buyon ushbu nazariya va uning mohiyati yuzasidan tadqiqotlar olib borayotgan pedagog olim V.P. Bospalko «ta'lim texnologiyasi» tushunchasini «amaliyotga tatbiq kilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi» deya ta'riflagan bo'lsa, N.F. Tal'zina «fan va

amaliyot oraliq'ida muayyan tamoyillarni olg'a suruvchi usullarni ishlab chikaruvchi, ularni izchil qo'llash kabi masalalarni hal etishga yo'naltirilgan mustaqil fan» ekanligiga e'tiborni qaratadi.

V.V. Klarin tomonidan yaratilgan «Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom protsesse» nomli asarda V.P. Bepalko tomonidan bayon etilgan mulohazalar to'ldirilib, pedagogik texnologiyalarning tasviriy san'at darslariga tatbiq etish shart - sharoitlari borasidagi qarashlar ilgari suriladi. V.P. Bepalko va M.V. Klarinlarning tadqiqotlarida «pedagogik texnologiya» tushunchasiga ta'rif berilgan.

B. Lixachev ta'lim texnologiyasi tushunchasining mohiyati «psixo - pedagogik o'gitlar yig'indisi»ni anglatishini qayd etgan bo'lsa, V.I. Shepel B. Lixachevning «shakl, metod, usul, o'qitish yo'llari hamda tarbiyaviy vositalar majmui» dir degan fikrini qo'llab - quvvatlaydi.

O'z navbatida, V.M. Monaxov V.P. Bepalkoning qarashlariga qo'shilgan holda ta'lim texnologiyasi «o'quvchi va o'qituvchilarning samarali faoliyat yuritishlari uchun zarur sharoit yaratish orqali o'quv jarayonini loyihalash, tashkil etish, o'qitish bo'yicha ularning pedagogik faoliyatini har tomonlama puxta o'ylangan andozasi» ekanligiga urg'u beradi.

Ingliz olimlari K. Tomas va Skinnerlar o'z tadqiqotlarida dasturlashtirilgan ta'lim mohiyati, istikbollari yuzasidan fikr bildirib, uning afzalliklariga to'xtalib o'tadi. Ular dasturlashtirilgan ta'limning quyidagi bosqichlardan iborat bo'lishi lozimligini ta'kidlaydilar:

- dastlabki bosqich muayyan fan bo'yicha berilgan mavzularni o'rganishda ularni mumkin kadar kichik qismlarga bo'lish;

- ikkinchi bosqich (javobni tezkor baholash) o'quvchi tomonidan berilgan javobning haqqoniyligini aniqlash (bunda o'quvchining javobi o'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlangan javob bilan taqqoslanadi);

- tasviriy san'at darslarini tayyorlangan dastur mazmuniga moslashtirish (bunda tasviriy san'at o'quvchilarining materiallar mazmunini o'zlashtirish darajalari hisobga olinadi);

- topshiriqlarning asta - sekin murakkablashib borishiga erishish;

- masalan «yana bir marta urinib ko‘r», «yanada chuqurroq o‘ylab ko‘r», «masalani hal etishning yanada osonroq yo‘li bor, uni topishga urinib ko‘r» va hokazolar.

Ingliz olimi B. Blum ta‘lim texnologiyasi mazmunida ta‘lim maqsadining aniq belgilanishi muhim ahamiyatga ega ekanligini ta‘kidlagan holda tasviriy san‘at o‘quvchilari tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni aniqlash maqsadida test topshiriqlarini ishlab chiqish jarayonida maqsadni oydinlashtirishga xizmat qiluvchi taksonomiyani ishlab chihadi. Taksonomiya muayyan ob‘ektlarni ularning o‘zaro tabiiy bog‘lanishlari asosida tasniflash va tizimlashdir.

So‘nggi yillarda olimlarimiz tomonidan ham ta‘lim texnologiyasi nazariyasiga oid bir kator makola, risola va qo‘llanmalar yaratildi. M.O. Ochilov mazkur iborani «Pedagogik texnologiya - tizimli, texnologik yondashuvlar asosida ta‘lim shakllarini qulaylashtirish, natijasini kafolatlash va ob‘ektiv baholash uchun inson salohiyati hamda texnik vositalarning o‘zaro ta‘sirini inobatga olib, ta‘lim maqsadlarini oydinlashtirib, o‘qitish va bilim o‘zlashtirish jarayonlarida qo‘llanadigan usul va usullar majmuidir» deya sharhlaydi, N. Saidahmedov esa quyidagicha: «Pedagogik texnologiya bu o‘qituvchi (tarbiyachi) tomonidan o‘qitish (tarbiya) vositalari yordamida o‘quvchilarga ta‘sir ko‘rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni», - degan ta‘rifni beradi.

O‘. Tolipov va M. Usmonboevalar esa «pedagogik texnologiya» tushunchaning mohiyatini quyidagicha ifodalaydilar: «pedagogik texnologiya - bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo‘naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmunidir»

B. Farberman, M.O. Ochilov, O‘.H. Tolipov va M. Usmonboyevalar tomonidan ham pedagogik texnologiya nazariyasi va uning mohiyati o‘rganilgandir. Chunonchi, B. Farberman hamda M.O. Ochilovlar ta‘limni tashkil etishga nisbatan texnologik yondashuv, o‘quv va tarbiyaviy faoliyat

maqsadlarining nazorat (test) topshiriqlariga aylantirish, tasviriy san'at darslarida pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida fikr yuritsalar, O'. Tolipov tomonidan olib borilgan tadqiqot jarayonida bo'lajak o'qituvchi kadrlarni tayyorlashga yo'naltirilgan faoliyatni yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish masalasining mohiyatini yoritishga keng o'rin ajratiladi

O'. Tolipov va M. Usmonboevalar tomonidan yaratilgan asarda pedagogik texnologiyaning nazariy asoslarini amaliy pedagogik faoliyatga tatbiq etish masalasi o'rganilgan. Shuningdek, xususiy fanlarni o'qitish jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishning amaliy asoslarini ochib berishga harakat qilingan.

Faylasuf olimlar B. Ziyomammedov va Sh. Abdullayevalar tomonidan yaratilgan «Yangi pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot» nomli asarda «Ma'naviyat asoslari» darslarini texnologik yondashuv asosida tashkil etish masalalari ochib berilgan bo'lib, bu boradagi bir qator ishlanmalar kitobxonlarning e'tiboriga havola etilgan. Ma'lumki, inson va uning jamiyatining harakatlantiruvchi kuchi bu – inson tafakkuridir. Tafakkur bu aql – idrok va dunyoviy bilimlar majmuasidir.

Dunyoviy bilimlar ta'lim jarayonida bunyod etiladi. Haqiqatda ham birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov tarif etganidek, - “Ta'lim O'zbekiston halqi ma'naviyatga yaratuvchilik faolligini baxsh etadi. O'sib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari, unda namoyon bo'ladi, kasb – kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodlarning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o'tadi”.

Shunga ko'ra mamlakatimizda ta'limga alohida e'tibor berilgan holda, uni yangi pedagogik tizimga o'tkazish bugungi davrimizning bosh vazifalardan biriga aylandiki, bu uzluksiz ta'limni yo'lga qo'yishni ham ilmiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Ma'lumki, har bir mamlakat va jamiyat o'zining ta'lim – tarbiya tizimiga va o'qitish texnologiyasiga ega bo'ladi.

Lekin bu texnologiyada albatta jahon va umuminsoniy ta'lim – tarbiya sistema – tizimidan va o'qitish texnologiyasidan ijodiy foydalaniladi va undan bahramand bo'linadi.

Shular asosida maktab o'quv fanlari o'zining o'qitish sistemasini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishga alohida e'tibor berilmoqda.

Jumladan, maktab tasviriy san'ati, o'quv predmetini yangi pedagogik texnologiyada o'qitishga o'tilmoqdaki, buning uchun tasviriy san'at o'quv predmeti darslari bo'yicha didaktik materiallar, ko'rgazmalar, metodik adabiyotlarni tayyorlash va ishlab chiqarish zarurligi bugungi kunimizdagi muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Ta'lim – tarbiya sohasida pedagogik texnologiya ancha murakkab masala bo'lib, undan tasviriy san'atini o'qitishda foydalanish ham o'ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi.

Ma'lumki, maktab tasviriy san'atning dars mashg'ulotlari besh turdagi mashg'ulot xarakterida, yoki texnologiyada amalga oshiriladi.

1. Narsani o'ziga qarab rasm ishlash.
2. Tematik kompozitsiya ustida ishlash.
3. Dekorativ amaliy – bezak san'ati.
4. Haykaltaroshlik ishlari.
5. San'atshunoslik asoslaridan tashkil topgan mashg'ulotlari turlarida olib boriladi

Bu darsning dars texnologiyasi bir mazmunda bo'lsada, ulardagi ta'lim berish texnologiyasi albatta bir – biridan farqlanadi.

Ya'ni “narsani o'ziga qarab rasm chizish” mashg'ulotlarida naturadan, ya'ni buyumni o'zini ko'rib, undan shaklni imkoniyati boricha naturadan tasvirlanadi.

Tematik kompozitsiyada esa o'quvchilar o'ylab – o'ylab, uzoklarga qarab nimalarnidir esga olish asosida rasm chizadilar.

Haykaltaroshlikda esa, qalam – bo'yoq bilan emas, loy – plastilin bilan, oz bo'lsada jismoniy mehnat vositasidagi mashg'ulotlar texnologiyasi mashg'ulotning asosi bo'ladi.

Shuning uchun maktab tasviriy san'ati darslardagi pedagogik texnologiyalarini tarifini keltirish va ularni: "Dars texnologiyasi" turlariga ajratishda ham alohida e'tibor zarur bo'ladi.

Xo'sh, maktab tasviriy san'atini o'qitishdagi pedagogik texnologiyani umumiy holda qanday tushunamiz?

Bunga javob, - tasviriy san'atini pedagogik texnologiyasi – bu tasviriy san'at o'qituvchisining o'quvchilarga ma'lum davrda va sharoitda san'at bilimi va malakasini berish vositalari asosida oldindan belgilangan maqsadga erishish va bu vazifani bajarishni kafolatlay oladigan pedagogik jarayon – deb aytamiz.

Ya'ni o'qituvchini 45 minut dars jarayonida belgilangan, mo'ljallangan maqsadga erishish uchush ta'lim va tarbiya vositalaridan foydalanishning didaktik, metodik va uslubiy jarayonlari majmuasi asosida kafolatlangan natijalarga erishishni ta'minlaydigan pedagogik jarayondir, - desak to'g'riroq bo'lsa kerak.

Maktab tasviriy san'atini o'qitishda ham pedagogik texnologiyani "dars texnologiyasi", "o'qitish texnologiyasi" va "ta'lim texnologiyasi" kabi ko'rinishlaridan foydalanishadi.

1. "Dars texnologiyasi" – bu 45 minutli tasviriy san'at darsini qo'rilishi, tuzilish va tashkil etilishining umumiy pedagogik tinglovchilarga (didaktik va metodik) javob berishni kafolatlaydigan pedagogik jarayondir. Yani tasviriy san'at o'quv fanining sinf – dars sistemasi bo'lib, u: yangi bilim berish, berilgan bilim – malakalarni mustaxkamlash, aralash dars, bilim – malakalarni tekshirish va nazorat qilish darslari kabilar. Ularning har biri o'ziga xos texnologiyalarda faoliyat yuritadi.
2. "O'qitish texnologiyasi" – tasviriy san'at va san'atshunoslik fanlarini o'qitish va ular asosida nazariy va amaliy sohalaridan bilim – malakalarni o'zlashtirish yo'li, qoidalari va uslublari majmuasi jarayonidir.

Bu texnologiya ma'lum bir o'quv predmetini o'qitish va o'zlashtirish yo'lini didaktikasi va xususiy metodikasi jarayonni ifoda etadi. Shunga ko'ra

o'qitish texnologiyasi tasviriy san'at dars mashg'ulotlarining besh turi bo'yicha o'zgarib ham turadi. Chunki tasviriy san'at dars mashg'ulotlarini o'qitish didaktikasi va uslublari mashg'ulotlaridagi maqsad va vazifalarni o'zgarib turishi bilan uning o'qitish texnologiyasi ham o'zgarib turadi.

3. "Ma'lumot texnologiyasi" – bu o'quvchilarga ma'lumot berish mazmunida ifodalanib, u o'quvchilarga tasviriy san'at o'quv fanida bilim – malaka berish jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida ilmiy muloqot, munosabat, ijodiy hamkorlik jarayonlari mazmunida ifodalanadi.

Ya'ni – o'quvchilarga beriladigan san'at nazariyasi va rasm chizish (tasvirlash)ga oid bilim – malakalarni o'quvchilarga yetkaza olishni kafolatlay oladigan ta'lim - tarbiya vositalari, o'qitish didaktikasi, metodikasi va uslublari majmuasida ifodalanadi.

Chunki, dars jarayonida tasviriy san'at o'qituvchisi o'quvchilarga bo'ladigan dars mazmuni bo'yicha va darsda bajariladigan amaliy ishlar bo'yicha vazifalar va ularni bajarish yo'llarini eng oson, eng qisqa va ilmiy asosdagi yo'llari bo'yicha ma'lumotlar beradi.

Pedagogik texnologiyani yaxshi tushunib olgan tasviriy san'at o'qituvchisi har qanday holatda ham dars samaradorligini oshirishga erishadi.

Chunki, pedagogik texnologiyani juda ko'plab prinsiplari borki, ulardan dars maqsad va vazifasiga ko'ra foydalanishi mumkin.

Hozirgi davrda pedagogik texnologiyaning. Muammoli – modulli o'qitishi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, ta'limni jadallashtirish, maqsadli o'qitish, tabaqalashtirib o'qitish kabi turlari ishlab chiqilganki, o'qituvchini o'zi tasviriy san'atni o'qitish mazmuniga mos kelishiga ko'ra tanlaydi va undan foydalanadi.

Tasviriy san'at darslarini samaradorligini oshirishda interfaol usullarni qo'llash

Tasviriy san'at darslaring maqsadini aniq va puxta belgilanishi yaxlit pedagogik faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlashga poydevor yaratadi, tasviriy san'at darslarining maqsadi DTS, o'quv rejasi va dasturi, shuningdek, darslik va

ko‘llanmalar mazmunida o‘z ifodasini topgan ma‘lum mavzular hamda o‘quv fanining o‘ziga xos jihatlari, o‘quvchilarning yosh, psixologik xususiyatlari, ehtiyoj, kizihishlari, pedagoglarning bilimi, kasb mahorati, ijodiy layokati pedagogik vaziyatlarni inobatga olish asosida belgilanadi.

Pedagogik faoliyatning maqsadi aniq, puxta, shuningdek, tashqislangan bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Bu quyidagi holatlarni vujudga keltiradi:

a) shaxsning ma‘naviy - axlokiy sifatlari va aqliy salohiyati shunday aniq va ravshan ifodalanadiki, natijada hosil bo‘ladigan intellektual - axlokiy sifatlarini o‘quvchi yoki o‘quvchining boshka xislatlaridan farklay olish imkoniyati yaratiladi;

b) shaxsning ma‘naviy - axlokiy sifatlari va aqliy salohiyatining shakllanadigan darajasini hakkoniy nazorat qilishga yo‘naltirilgan aniq usullarning mavjudligi ta‘minlanadi;

v) shaxsning sifatlarini aniqlashga yo‘naltirilgan nazorat unda hosil bo‘lgan aqliy - axlokiy sifatlar darajasini belgilabgina qolmay, balki pedagogik faoliyat samaradorligini ham aniqlaydi;

g) tashqislash maqsadi doirasida shaxsning aqliy - axlokiy sifatlari darajasini belgilovchi mezonlarning ishlab chiqilishi hamda ularga tayangan holda faoliyat olib borish shaxs bilim, ko‘nikma va malakalarining sifati baholovchi ko‘rsatgichlar mavjud bo‘ladi. O‘zbekistonda milliy amaliy san‘at va hunarmandchilikni rivojlantirishda Respublika Vazirlar Mahkamasining 10 iyul 346 sonli qarorida 1997 yilgi "Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san‘atini yanada rivojlantirishni davlat yo‘li bilan qo‘llab quvvatlash chora tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori alohida ahamiyat kasb etdi. Ana shu qaror asosida "Musavvir" ilmiy ishlab chiqarish Markazi tashkil etilib, uning qoshida "Xunarmand" uyushmasi faoliyat ko‘rsata boshladi. Bu uyushma o‘z saflariga minglab tajribali, shuningdek, yosh ustalarni birlashtirdi. Ularning ijodiy ishlari uchun har tomonlama shart sharoitlar yaratib berilmoqda, ma‘naviy va moddiy yordam ko‘rsatilmokda. Uyushmaning deyarli barcha viloyatlarda bo‘linmalari ochilgan bo‘lib, u yerdagi ustalar mahalliy amaliy san‘atni milliy badiiy an‘analarini rivojlantirib yuksak badiiy saviyali asarlar

yaratmokdalar. Hozirgi zamon xalq ustalaridan A. Akbarov, A. Abdullaev, A Umarov, S. Rahmatullaev, A.Karimov, M. Murodov, B. Rahmonberdiev, N. Oblaqulov va boshqa ustalar xorijiy mamalakatlarda o'tkazilgan qator ko'rgazmalarda o'z asarlari bilan qatnashib kelmoqdalar. Jumladan, Fransiyaning Parij shahrida, Olmoniyaning Berlin shahrida, Malaziyaning Kuala Lumpur shahrida, Yaponiyaning Tokio shahrida, Hindistonning Dehli shahrida, Moskva va Olmaota shaharlarida o'tkazilgan ko'rgazmalar shular jumlasidandir.

Tasviriy san'at darslarida, dars qahramoni portreti asarlaridan namunalar, hayoti va ijodi bilan bog'liq krossvordlar, guldasta va boshqa mukofotlar bilan bezatiladi.

«**Sinov darslar**»i odatda bob yoki bo'lim yakunida, o'quv choragi yoki o'quv yili yakunida barcha umumta'lim fanlaridan tashkil etib o'tkazilishi mumkin.

Bu darsning o'ziga xos xususiyati shundaki, u pedagogik texnologiya elementlariga asoslangan turli ko'rinishlarda tashkil etilishi mumkin. Uning variantlarini tanlash har bir fan mutaxassisining mahoratiga, ilmiy salohiyati va eng asosiysi, uning pedagogik tajribasiga bog'liq. Biz quyida hamma o'quv fanlariga mos tushadigan sinov darsi variantini keltirmoqchimiz:

1. O'quvchi va ikki o'quvchidan iborat sinov komissiyasi tuziladi. O'qituvchi komissiyasi raisi o'quvchilar a'zo qilib tayinlanadilar.

2. Sinovning birinchi bosqichi og'zaki savol - javob bo'lib, 20 - 30 ta mavzuga doir savollar doskasiga yozib qo'yiladi. Sinovga chiqarilgan har o'quvchi kimida 2 ta savolga javob berishi lozim. Undan o'tganlar sinovning ikkinchi bosqichiga ishtirok etish xuquqini qo'lga kiritadi.

3. Sinovning ikkinchi bosqichi o'tilgan bob yoki bo'lim mavzulari asosida tuzilgan 15 ta savoldan iborat test sinovi bo'lib, test topshiriq varaqalari o'quvchilar soniga mos ravishda ko'paytiriladi.

4. Dars yakunida og'zaki savol - javoblar xamda test topshiriqlari yakuni bo'yicha baholarni sinov komissiyasi e'lon qiladi.

«**Zakovat**» bu dars orqali o'quvchilarni intellektual rivojlantirish ancha samarali hisoblanadi. Unda tasviriy san'at matematika, fizika, informatika, kimyo,

biologiya, geografiya, til va boshqa barcha o'quv fanlarida samarali foydalanish mumkin. Odatda, ma'lum fanning muayyan bob yoki bo'limi yakunlangach bunday darslarni tashkil etib o'tkazish ancha samarali hisoblanadi. Darsni o'tkazish tartibi quyidagicha:

I. Sinfdagi bilimli, zukko o'quvchilardan 6 nafari tanlanib «zakovat» klubi tashkil etiladi.

II. Boshlovchi (a'lochi o'quvchi yoki fan o'qituvchisi) 10 kun oldin sinfdagi xar bir o'quvchidan dars mavzulariga mos 2 tadan qiziqarli savol - topshiriqlari tuzdirib oladi va topshiriqlarini to'plashni tashkil etadi. Topshiriq mazmunining maxfiyiligi ta'minlanishi zarur. Tushgan savollardan 11 tasi saralanib tanlanadi.

III. «Zakovat» darsida boshlovchining yordamchisi konvertlarni raqamlab chiqadi. Ishtirokchilar navbat bilan konvertlarni tortib 1 daqiqa ichida savollarga umumguruhda (6 kishi) nomidan yakuniy javob beradilar.

Bu o'yinda komanda a'zolari yoki tomoshabinlar g'olib bo'lishi mumkin. 3 kishidan iborat hakamlar xay'ati, berilgan savollar xamda javoblarni baholab beradilar. Eng yaxshi savol ya'ni, eng zukko «zakovat» klubi ishtirokchisi qimmatbaho kitoblar bilan takdirlanib boriladi.

«**Ijodiy darslar**» barcha umumta'lim tasviriy san'at fanidan o'tkazilishi mumkin. Ilg'or tajriba shuni ko'rsatadiki, bunday darslarni ta'lim tayyorgarligi ancha yuqori bo'lgan sinf o'quvchilari ishtirokida o'tkazish yaxshi samara beradi. «Ijodiy darslar»ni tashkil etish metodikasi quyidagicha:

Sinf o'quvchilari ixtiyoriy ravishda 5 ta guruhga ajratiladi.

1 - 2 guruhlariga yangi dars mavzusi bo'yicha rasm ishlash yoki krossvordlar tuzish topshiriladi. Bunga 10 daqiqa vaqt ajratiladi.

3 - 4 guruhlariga dars mavzusi bo'yicha «Evrika» - mantiqiy - didaktik savollar berilib shu asosda o'yin olib boriladi. Unda har o'quvchiga 2 tadan savol - topshiriq beriladi. Javoblar uchun 10 daqiqa vaqt ajratiladi.

5 - guruh «Senaristlar» guruhi bo'lib, ular dars mavzusiga bag'ishlab, xujjatli, multfilm shakllaridan birini tanlab senariy yozadilar. Senariy usuli xajviy, yumoristik jiddiy, drama shakllarida bo'lishi mumkin.

3 kishidan iborat xakamlar xay'ati ijodiy ishlar ko'rigini o'tkazadi va natijalarga ball qo'yadi. Xakamlar ishining yakuni uchun 5 - 10 daqiqa kifoya. Bu darsda musiqali tanaffus bo'lishi mumkin.

Bunda noan'anaviy darsni barcha o'quv fanlarida tashkil etib o'tkazish mumkin. O'qituvchi ma'lum bir bo'limni o'rganishdan oldin shu bo'lim mavzulari yuzasidan 15 - 20 ta «ijodiy ish» chizilgan mavzusini ajratadi va uni o'quvchilarga tarqatadi. Eng a'lochi o'quvchilardan «ilmiy rahbar» tayinlaydi. Ijodiy ish olgan o'quvchilarga «ilmiy tadqiqotchi» nomi beriladi. Har bir ijodiy ishga 1 nafar «opponent» tayinlanadi. Ijodiy ish himoyasi umumlashtiruvchi takrorlash darsida amalga oshiriladi. O'qituvchi «ilmiy kengash raisi» vazifasini bajaradi. Har bir ijodiy ishni himoya qiluvchi o'quvchiga tanlangan mavzusi bo'yicha ma'ruza uchun 5 daqiqa vaqt beriladi. «Opponent» ijodiy ishni bajarishga yo'l qo'yilgan kamchiliklar, ularni bartaraf etish haqidagi mulohazalarni 2 daqiqada bayon etadi. Ilmiy rahbar mazkur ish yuzasidan fikrini bayon etib o'z bahosini e'lon qiladi. Ijodiy ishlar muhokamasi tugagach, 3 kishidan iborat sanoq komissiyasi, byulletenlar tarqatib yopiq ovozda ilmiy kengash a'zolarining ijodiy ishga qo'ygan baholarini aniqlaydi. Kengash raisi dars so'ngida ijodiy ishlarga qo'yilgan baholarni «ilmiy kengash» nomidan e'lon qiladi.

Sinf o'quvchilariga darsning boshida 2 - 30 minut mavzudagi asosiy muammo haqida yo'naltiruvchi topshiriqlar beriladi. So'ngra sinf 3 - 4 o'quvchidan iborat kichik guruhlariga ajratiladi. Bu guruhlarning sardorlari bo'ladi. O'quvchi kichik guruhlarda ishlanganda, darsda faol ishtirok etish xuquqiga, boshlovchi rolida bo'lishiga, bir - biridan o'rganishga va turli nuqtai nazarni qadrlashga o'rganadi. Usul quyidagi tartibda qo'llaniladi.

1. Faoliyat yo'nalishi aniqlanadi. Muammodan bir - biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilaniladi.

2. Kerakli asos yaratiladi. O'quvchilar mazkur muammomo haqida ma'lum bir tushunchaga ega bo'lishlari kerak.

3. Guruhlarga 3 - 4 tadan o'quvchilar birlashtiriladi. Guruh rahbarlari tayinlanadi.

4. O'quvchi tomonidan mazkur muammo bo'yicha o'quvchilarga aniq ko'rsatmalar beriladi.

5. O'quvchilarning ishi qo'llab - quvvatlab va yo'naltirib turiladi.

6. Mazkur masala yuzasidan har bir guruh rahbari o'z guruhdoshlari nomidan chiqib o'z nuqtai nazarini bayon etadi. 8 - 10 ta guruh rahbari chiqib o'z nuqtai nazarini himoya qiladi. O'qituvchi yakuniy xulosalaydi.

Xayoliy sayohat darsi ta'limning bu interfaol usuli tasviriy san'at tarixi, geografiya, til adabiyot va boshqa fanlardan kullanilishi mumkin. Tarixdan biror davirdagi ma'lum bir davlat tarixiga oid, geografidan biror bir kishlok, materik, orol, davlat bo'ylab xayoliy sayoxat kilib uni yozma tarzda yozish talab etiladi. Ishtirokchi uzi mustaqil (ilxom bilan) usha joyni chizish yoki yozma tasvirlash kerak. Kimning chizmasi yoki yozma tasvirlashi mazmunan yuqori saviyada yozilgan bo'lsa, u golib hisoblanadi.

Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, pedagogik texnologiyalarning markazida o'qituvchi hamda o'quvchi o'rtasidagi mulokotga asoslangan faoliyat turadi. An'anaviy ta'lim texnologiyasidan farkli ravishda ushbu faoliyat jarayonida o'quvchi etakchilik rolini bajaradi. O'quvchining o'quv - bilim jarayonidagi etakchiligi quyidagi pedagogik vazifalarni ijobiy hal etish imkonini beradi:

1) o'quvchida nazariy bilimlar hamda faoliyatni o'zlashtirishga bo'lgan ichki ehtiyoj hamda rag'batni qaror toptirish;

2) nazariy bilimlar hamda faoliyatni o'zlashtirishga nisbatan ongli yondashuvni vujudga keltirish;

3) ularda mustaqil faoliyat yuritish ko'nikmalarini shakllantirish;

4) tasviriy san'at o'quvchilarining faolligini ta'minlash;

5) tasviriy san'at o'quvchilarida mustaqil fikr yuritish, nazariy va amaliy bilimlarning mohiyatini tahlil etish, anglash, ular xususida ma'lum xulosalar chiqarish, umumlashtirish va ularni amaliy faoliyatga tatbiq etish borasidagi ko'nikmalarni shakllantirish hamda takomillashtirish;

6) o'z faoliyatini nazorat qilish va baholash layoqatini qaror toptirish.

Pedagogik texnologiyalarni ta'lim amaliyotida qo'llash bilan birga ularning samaradorligini ham baholashga alohida ahamiyat berish kerak.

Pedagogik texnologiyalarning samaradorligini aniqlash mezonlari pedagogik faoliyatni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad va uning natijalanganlik darajasini aniqlashga imkon beradi. Shu maqsadda yangi pedagogik texnologiyalarning samaradorligini aniqlash mezonlari mavjud bo'lib, ular quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Pedagogik texnologiyalarni loyihalash va ularni qo'llash bosqichida baholash.
2. Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim natijalarini baholash.

Tasviriy san'at mashg'ulotlarida yangi pedagogik texnologiyalar

O'tkazilgan so'roqlar shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi talaba - o'quvchilarning aksariyati darslarga qiziqmay qolishgan. Buning sababi dars mobaynida o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi muloqatning noto'g'ri tashkil qilinganli, dars jarayonlarining qiziqarli olib borilmasligidir.

Ta'lim jarayoni noan'anaviy sur'atda faollik bilan mauiyyan muammoni nazarda tutgan holda hamda ko'zlangan maqsad va vazifalarga mos metodikani tanlab olib borilsagina o'quvchi - talabalarni mukammal bilimlar bilan qurollantirish, kasb doirasida ko'rsatilgan masalalarga ega qilish, maqsadga muvofiq ravishda ish tutishni o'rgatish mumkin.

Bernard Shou "Agar siz odamni o'qitib, biror narsaga o'rgatmoqchi bo'lsangiz, u hech qachon hech narsani o'rganmaydi", - degan edi. Materialni yaxshi o'zlashtirib olishi uchun talaba shu material ustida ishlashi kerak. Shunchaki quloq solib tinglash yoki ko'zdan kechirishning o'zi etarli emas va bundan yaxshi natija kutish ham mumkin emas.

Ta'lim berishda bilimlar, ko'nikma va malakalarni guruh - guruh bo'lib, jamoa faoliyatida birgalikda o'zlashtirish imkoniyatlari yuzaga chiqariladi. Bu sharoitda talabalarning fikrlash faoliyati eng ko'p darajada faollashadi.

Ta'limning noyob imkoniyatlari hozir nafaqat inson aqlini yangi tezkor imkoniyatlari bilan qurollantirish, balki uning ongini qayta qurish bilan bog'liq.

Insoniyat sivilizatsiya rivojining yangi bosqichi insonning shakllanish jarayoni, shaxsiy fazilatlari, hayotiy maqsadlar va qadriyatlar haqidagi tassavvurlarni o'zgartiradi. O'sib kelayotgan yosh avlod uchun ta'lim tizimi sifat jihatidan yangicha talablar ko'yadi.

XXI – asr innovatsiyalar asridir. Mamlakatimiz kelajagi jamiyat hayotining boshqa sohalari bilan birga ta'lim tarbiya tizimini yangi zamon talablari darajasiga ko'tarishga yo'naltirilgan ishlarning samaradorligi bilan belgilanadi.

Ta'lim tarbiya tizimini takomillashtirish o'z navbatida bu sohaga yangi, zamonaviy, ilg'or pedagogik texnologiyalarni izchil joriy etishga ko'p jihatdan bog'liq. Ta'lim samaradorligi oshirishda o'quvchi bu jarayonda qay darajada faol qatnashayotganligi bilan belgilanishini hisobga olgan holda yangi o'qitish uslublari, shakllari ta'lim oluvchilarga mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish uchun imkoniyat yaratadi.

Quyida ta'limning yangi pedagogik texnologiyalarini dars jarayonida qo'llanilishida misol keltirilgan.

Yangi pedagogik texnologiyaning maqsadi:

- qatnashchilarni ko'proq jalb etish va ularning bir - biridan o'rganishga imkon berish;
- qatnashchilarga ularning o'z g'oyalari va fikrlari bilan ko'proq o'rtoqlashish imkonini berish;
- qatnashchilarni o'zlarining o'qishlari uchun ko'proq ma'suliyatni o'z zimmalariga olishga majbur qilish.

Ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan - kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalarda esa, ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Pedagog bu jarayonga shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu

bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi.

Shuning uchun o'quv yurtlari malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari - interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya katta. Bunda pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchilarni bilimli, etuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi.

Interaktiv metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlashdan iborat deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o'quvchining dars davomida befarq bo'lmaslikka mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;
- o'quvchilarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;
- o'quvchining bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;
- pedagog va o'quvchining hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Pedagogik texnologiyalar – pedagogik texnologiyalar masalalarining muammolarini o'rganayotgan o'qituvchilar, ilmiy - tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya - bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq, hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan TSO – O'TV (ta'lim samaradorligini oshirish), (o'qitishning texnologik vositalari), kompyuter, masofali o'qitish yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. O'qituvchi va o'quvchining maqsadi bo'yicha natijaga erishishida

qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o'quvchilarning bilim saviyasi, guruh karakteri, sharoitga qarab ishlatilgan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun balkim, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'ladi, bular o'qituvchi va o'quvchiga bog'liq. Bundan tashqari o'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitini eng asosiysi, o'quvchining imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olish kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, o'quvchini ta'limning markaziga olib chiqish kerak.

O'qitish jarayonida tarbiyalanuvchilarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondoshish, mas'uliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o'qishga, fanga, pedagogga o'zi tanlangan kasbiga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi. Bunday natijaga erishish amaliyotda o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarni qo'llashni taqozo etadi.

«Aqliy hujum» metodi. *Aqliy hujum* - g'oyalarni generatsiya (ishlab chiqish) qilish metodidir. «Aqliy hujum» metodi biror muammoni yechishda o'quvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan eng samarali metod. Aqliy hujum metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida o'qituvchi tomonidan berilgan savolga o'quvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. O'quvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga o'quvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. «Aqliy hujum»

metodining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi. Aqliy hujum metodidan foydalanilganda o'quvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo'ladi, shu jumladan o'quvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. O'quvchilar o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi o'quvchilarda turli g'oyalarni shakllanishiga olib keladi. Bu metod o'quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

«Aqliy hujum» metodi o'qituvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. O'quvchilarning boshlang'ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo'yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.

2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog'lash maqsad qilib qo'yilganda – yangi mavzuga o'tish qismida amalga oshiriladi.

3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo'yilganda - mavzudan so'ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

«Aqliy hujum» metodining afzallik tomonlari:

- natijalar baholanmasligi o'quvchilarni turli fikr - g'oyalarning shakllanishiga olib keladi;

- o'quvchilarning barchasi ishtirok etadi;

- fikr - g'oyalarni vizuallashtirilib boriladi;

- o'quvchilarning boshlang'ich bilimlarini tekshirib ko'rish imkoniyati mavjud;

- o'quvchilarda mavzuga qiziqish uyg'otish mumkin.

«Aqliy hujum» metodining kamchilik tomonlari:

- o'qituvchi tomonidan savolni to'g'ri qo'ya olmaslik;

- o'qituvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

«Aqliy hujum» metodining bosqichlari:

O'quvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo'yicha o'z javoblarini (fikr, mulohaza) bildirishlarini so'raladi;

O'quvchilar savol bo'yicha o'z fikr - mulohazalarini bildirishadi;

O'quvchilarning fikr - g'oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog'ozlarga yoki doskaga) to'planadi;

Fikr - g'oyalar ma'lum belgilar bo'yicha guruhlanadi;

Yuqorida qo'yilgan savolga aniq va to'g'ri javob tanlab olinadi.

«Aqliy hujum» metodini qo'llashdagi asosiy qoidalar:

Bildirilgan fikr - g'oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.

Bildirilgan har qanday fikr - g'oyalar, ular hatto to'g'ri bo'lmasa ham inobatga olinadi.

Bildirilgan fikr - g'oyalarni to'ldirish va yanada kengaytirish mumkin. O'qituvchi «Aqliy hujum» metodidan foydalanib, o'quvchilarga mavzu bo'yicha savol beradi.

O'qituvchi bildirilgan g'oya va fikrlarni yozib borish uchun kotib tayinlaydi. Bu bosqichda o'qituvchi guruh qatnashchilariga o'z fikrini bildirishga sharoit yaratib beradi.

Qatnashchilar bildirilgan fikr va g'oyalarni guruhlashtirib, ularni tahlil qilishga o'tishadi.

Tahlil orqali qo'yilgan vazifaning eng maqbul echimini topishga harakat qilinadi.

Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi - bu o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijada hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liq, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchilar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlari hulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga va ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ana shu, o'qitish jarayonining

asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu o'quv faniining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya - bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayon.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodi. Kichik guruhlarda ishlash - o'qituvchi tomonidan berilgan ma'lum bir topshiriqni hamkorlikda bajarish uchun o'quvchilarni kichik guruhlarga ajratib, berilgan topshiriqning yechish yo'llarini ishlab chiqishni taqozo etuvchi metod.

Ushbu metod qo'llanilganda o'quvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo'lishga, bir - biridan o'rganishga va turli nuqtai - nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi.

Kichik guruhlarda ishlash metodi qo'llanilganda o'qituvchi boshqa noan'anaviy metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki o'qituvchi bir vaqtning o'zida barcha o'quvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:

- o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha o'quvchilar jalb etiladi;
- o'z - o'zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo'ladi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:

- kuchsiz o'quvchilar bo'lganligi sababli kuchli o'quvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha o'quvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo'ladi;
- guruhlararo o'zaro salbiy raqobatlar paydo bo'lib qolishi mumkin.
- Guruh ichida o'zaro nizo paydo bo'lishi mumkin.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodini qo'llash bosqichlari:

Faoliyat yoʻnalishi aniqlanadi. Muammodan bir - biriga bogʻliq boʻlgan masalalar belgilanadi. Kichik guruhlar belgilanadi. Oʻquvchilar guruhlariga 3 - 5 kishidan olinishlari mumkin. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar. Oʻqituvchi tomonidan aniq koʻrsatmalar beriladi va oʻqituvchi tomonidan yoʻnaltirib turiladi. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi. Kichik guruhlar baholanadi.

«Bahs - munozara» metodi. *Bahs - munozara* - oʻquvchilarni ikki guruhga boʻlgan holda, biror mavzu boʻyicha oʻzaro bahs, fikr almashinuv tarzida oʻtkaziladigan oʻqitish metodi.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qoʻllaniladi. Bahs - munozarani boshqarib borish vazifasini oʻquvchilarning biriga topshirish mumkin. Bahs - munozarani erkin holatda olib borish va har bir oʻquvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda oʻquvchilar orasida paydo boʻladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

Bahs - munozara metodining afzalliklari: - oʻquvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi; - oʻquvchilar oʻz fikrining toʻgʻriligini isbotlashga harakat qiladilar; - oʻquvchilarda eshitish qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Bahs - munozarametodining kamchiliklari: oʻqituvchidan boshqarish mahoratini talab etadi; oʻquvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli boʻlgan mavzu tanlash talab etiladi.

Bahs - munozara metodini oʻtkazish bosqichlari:

Oʻqituvchi munozara mavzusini tanlaydi va qatnashuvchilarni taklif etadi. ***Bahs - munozara*** oʻqitish usulidan foydalanishdan maqsad nima uning afzalliklari darsning samaradorligini oshirish tamoyillari nimadan iborat degan savolga quyidagicha javob berish mumkin.

1. Noanʻanaviy oʻqitish eng sodda qulay usul.
2. Mustaqil fikrlashni oʻrgatadi.
3. Koʻp tarmokli.
4. Sodda va oson.
5. Bilim boyligini oshiradi.
6. Vaqtdan yutadi.
7. Qiziqarli oʻtadi.
8. Darsning samaradorligini oshiradi.
9. Dunyoqarashni kengaytiradi.
10. Tafakkurni rivojlantiradi.
11. Oʻquvchilarning

diqqat e'tiborini tortadi. 12. Har bir o'quvchi bilan individual munosabatda bo'ladi. 13. Xotirani kengaytiradi. 14. Izlanishga chorlaydi. 15. O'quvchilarni o'z ustida ishlashga chorlaydi.

Xulosa qilib aytganimizda, hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan – kunga ortib bormoqda, chunki shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi – talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa zamonaviy texnologiyalarda esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarini ham o'zlari keltirib chiqishlariga o'rgatadi.

Bunday jarayonda o'qituvchi shaxsni rivojlanishi, shakllanishi bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan birga, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ya'ni ta'lim jarayonida o'quvchi – talaba asosiy figuraga aylanadi.

Mazkur metodlar o'quvchi – talabalarni bilimli etuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Hozirgi vaqtda 5 - 7 sinf o'quvchilarning ijodiy kasbiy tayyorgarligi sifat va samaradorligini oshirishda quyidagi pedagogik texnologiyalarni qo'llash maqsadga muvofiqdir:

1. O'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan pedagogik texnologiya – muammoli ta'lim, turli xil o'yinlar.

2. O'quv materialini didaktik jihatdan takomillashtirish va qayta ishlashga asoslangan pedagogik texnologiya.

3. O'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil qilishga asoslangan pedagogik texnologiya – tabaqalashtirilgan, individuallashtirilgan, dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyalari, ta'limning jamoa usuli, guruhli, kompyuterli ta'lim texnologiyalari.

4. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari – o'quvchi shaxsining ijobiy sifatlarini, ayrim sohadagi bilimlarini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

Ta'lim - tarbiya jarayonini loyihalash, loyihalangan pedagogik texnologiyani pedagogik jarayonga tatbiq etish o'qituvchidan *texnologik loyihalash qobiliyatini* talab etadi. Bu borada tadqiqotchilar quyidagi pedagogik talablarni ajratib ko'rsatadi:

- Pedagogikaning umumiy qonun - qoidalarini bilish;
- ta'limga texnologik yondoshuvga oid dastlabki manbalarni hamda loyihalash, individuallashtirish, texnologiyalashtirish jarayonlarining o'zaro bog'liqliklari haqida tushunchaga ega bo'lish;
- Ta'limni taraqqiy ettirishda texnologiyalarning o'rnini tushunish;
- O'qitishni shaxsga yo'naltirishning asosiy maqsad, turli shakl va darajalari haqidagi tasavvurga ega bo'lish;
- «individual yondoshuv», «o'qitishni tabaqalashtirish», «individual o'qitish» tushunchalari o'rtasidagi bog'lanish va farqlanishlarni bilish;
- O'quv jarayonini tashkil qilish vositalari orqali o'quvchining individual xususiyatlarini rivojlantirish yo'llarini bilish;
- Ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirishda individual rivojlantiruvchi texnologiyalar imkoniyatlarini bilish;
- Ta'lim - tarbiyani loyihalashga oid yondoshuvlar hamda loyihalashda asosiy bosqichlarni ajrata olish;
- Texnologiyalashtirishning umumiy mezonlarini bilish;
- Loyihalashga oid asosiy pedagogik ob'ektlarni bilish;
- Mavjud sharoitdan kelib chiqqan holda tashxislanadigan maqsad qo'ya bilish;
- O'quv materialini o'lchanadigan, kuzatiladigan darajada qismlarga ajratish;
- O'quv jarayonining mantiqiy tuzilishini qulaylashtirish.

Ishimiz jarayonida biz «*o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan pedagogik texnologiya*»ga muvofiq o'quvchilar bilim olish faoliyatini faollashtirishga asoslangan pedagogik texnologiyani qo'lladik.

Ijodiy bilim olish *texnologiyasi* o'quv – tarbiya jarayoniga tayanadi. Optimal o'quv jarayonida mustaqillik, erkinlik va ijodkorlik yaxshi rivojlanadi. Bunday sharoitda muhim intellektual ko'nikmalar shakllanishi kerak. Ulardan eng asosiysi *ijodiy amaliy ko'nikmasidir*. Har qanday ta'lim oluvchi mustaqil ta'lim materiallaridan yaxshi foydalanishni bilavermaydilar. Shu bois o'qituvchi oldida mas'ul vazifa turadi: qisqa muddat ichida ta'lim oluvchini nazariy va kompozitsiya qoidalarini mustaqil tushunishga, zaruriy axborotni tanlay bilish, baholash, taqqoslash, tahlil etish, muammoli vaziyatni hal etishga o'rgatish lozim.

Shuning uchun o'quvchilarga o'quv jarayonida bilim berishda ularni pedagogik texnologiyalari asosida ta'lim olish (o'rganilgan mavzu materiallarini mustahkamlash va kengaytirish, ijodiy ishlarni bajarishlari)ga yo'naltirish lozim.

Mashg'ulotni boshqarish texnologiyasida avvalambor darsning maqsadi aniq, kasbga yo'naltirilgan bo'lishi bilan birga, qaysi vosita yordamida va qanday ketma - ketlikda bu maqsadga erishish mumkinligi aniqlandi. O'qituvchining faoliyati o'quv materialini o'zlashtirish jarayonining tashkilotchisi tarzida ko'rinib, o'quvchi faoliyatining faolligiga ahamiyat berildi. Buning uchun material mazmunining bayonida o'qituvchi turli xil o'qitish metodlari va imkoniyatlaridan foydalandi.

Har bir mashg'ulotda qo'llaniladigan metodlar uchun pedagogik tizimda ularning o'ziga xos xususiyatlari bor. Tushunchalar va hatti - harakatlarning shakllanishini o'qituvchi boshqarib boradigan asosiy mashg'ulot turi amaliy mashg'ulotlar hamda boshqa dars metodlari bo'lib, uni o'tkazish metodikasi pedagogik tajriba va mahoratga bog'liqdir. Bu jarayonni tinmay o'rganib borish o'qituvchining o'z kasbiga mohirligi o'qitish texnologiyalari va ularning maqbul shakllari majmuasini egallab olganligi bilan belgilanadi.

Ta'lim jarayonida har bir mavzuni o'tishda yangi pedagogik texnologiyaning qaysi uslubi ma'qul, qulay, mavzuni yoritish uchun qanday jihozlar bo'lishi zarurligi aniqlab olindi. Fan mavzularini yangi pedagogik texnologiyaning u yoki bu uslubi, uslublar birikmasi bilan o'tish xaritasi tuzib olindi. Biz dars o'tishning noan'anaviy faollashtiruvchi uslublaridan quyidagilarni qo'lladik:

Amaliy mashq. Mavzuda bayon qilingan nazariy bilim, qonun - qoidalarni amalda, qalamtasvir va rangtasvir kompozitsiyasi ishlash jarayonida qo‘llay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lish maqsadida qo‘llanildi.

Mustaqil ijodiy ishlash – ma’lum mavzular chorak oxirida tugagach, ularni mustahkamlash maqsadida o‘quvchilarga mustaqil ijodiy amaliy ish bilan shug‘ullanish, darslik bilan ishlash ko‘nikmalarini hosil qilishdan iborat.

Tasviriy san’at darslarida muammoli vaziyat hosil qilishning umumiy talablari quyidagilardan iborat:

1. O‘quvchilar oldida muammoli vaziyatni tashkil qilish uchun shunday amaliy yoki nazariy masala qo‘yilishi kerakki, uning bajarishi davomida o‘quvchi o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan yangi bilimlarni o‘zi o‘rganib olsin.

2. O‘quvchiga taklif etilayotgan muammoli masala uning intellektual imkoniyatlariga mos tushishi kerak. O‘quvchining intellektual imkoniyatlari qancha katta bo‘lsa, o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilimlarning yangilik darajasi va umumlashtirilganligi shunchalik yuqori bo‘ladi.

3. Muammoli masala o‘rganilishi lozim bo‘lgan bilimlardan oldinda bo‘lishi kerak.

Tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarga mavzu haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishlari uchun muammoli vaziyatlardan foydalaniladi.

Tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarga «perspektiva» mavzusini o‘rgatish jarayonida oddiy narsani frontal perspektivada tasvirlash usuli ko‘rsatilib, qolgan usullari haqida qisqa ma’lumot beriladi, afzalliklari haqida to‘xtab o‘tilsa qolgan usullar muammo tarzida qo‘yiladi, shunda o‘quvchilarda ularni o‘rganishga qiziqish uyg‘onadi. Natijada o‘quvchi tavsiya etilgan qo‘shimcha adabiyotlardan foydalanib oddiy narsani burchakli perspektiva usullarini mustaqil o‘rganadi.

Muammoli dars, muammoli masala va savollar o‘quvchilarni mustaqil mulohaza yuritishga, o‘z xulosalarini chiqarishga, fikrlarini asoslashga o‘rgatadi.

Amaliy mashg‘ulotlar yoki o‘qib o‘rgangan faoliyatlarni amalda tatbiq etish yuksak darajada eslab qolishni, ya’ni bilimlar asosida shakllangan

ko'nikmalarni avvaldan borlariga nisbat berish yo'li bilan mustahkamlashni ta'minlaydi.

Edgar Deylning «bilish tajribasi konusi»ga asoslangan «bilish ierarxiyasi»ga binoan, talabalar ma'ruza darslarida - 10%, ma'ruza matnini o'qiganda – 20%, audio - video tasvirlar idrokida - 30%, namoyish qilib ko'rsatilganda - 40%, amaliy faoliyatda - 60%, *mustaqil ta'lim va uni amalda tatbiq etganda -70-80 % bilimlarni* esda saqlab qolar ekan.

Yuqorida sanab o'tilgan mashg'ulot metodlari o'quvchida idrok va xotira, diqqat - e'tibor va tafakkur, tasavvur va mantiqni birlashtirishi kerak. Bilimlar, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishda talabaning faolligi, qiziqishi, ijodiy mustaqilligini oshirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar – mashg'ulotlarni o'tishning maqbul shakllari va imkoniyatlari ana shunga ko'p jihatdan yo'l ochadi.

Pedagogik tajriba - sinov ishlari mazmuni, va uni tashkil etish metodikasi.

5 sinf “tasviriy san’at” fani mavzusi bo'yicha o'quvchining bilim olish faoliyatini faollashtirish texnologiyasiga asoslangan nazariy darsi namunasini keltiramiz.

Mavzu: tasviriy san'atning ifodaviy vositalari haqida suhbat.

Darsning maqsadi: tasviriy san'atning ifodaviy vositalari haqida ma'lumot berish. O'qituvchilarga san'atning uch guruhi (tasviriy, amaliy san'at; badiiy konstruktiv loyihalash; dizayn san'ati) bilan tanishtirish. Tasviriy san'atning ifodaviy tili (kompozitsiya, chiziq, dog', rang, shakl, hajm, fazo, faktura) haqida suhbat o'tkazish.

Dars uslubi: og'zaki bayon qilish, klaster metodi va suhbat o'tkazish.

Vosita: tasviriy san'atning ifodaviy vositalariga doir reproduksiyalar. Xususan, X. Raximova, A.O. Muxtorov, I. Jabborov, A. Dyurer, A. Matiss, T. Muhammedov, R. Choriev, B. Jalolovlarning chiziqli suratlari va boshqalar.

Dars shakli: suhbat, amaliy mashg'ulot va kichik guruhlar bilan ishlash.

Tashkiliy qism: o'qituvchining salomlashishi, jurnalga yo'qlama qilishi. Sinf o'quvchilarini darsga jalb qilib, ish muhitini yaratish.

O'tgan mavzuni mustaxkamlash: o'quvchilarning uy ishlarini tekshirib, «5» balli tizim asosida baholash vazifani namunali bajargan o'quvchilarning ishlari namuna qilib ko'rsatilib rag'batlantiriladi, chizishga qiynalgan o'quvchilarga ko'rsatmalar beriladi. Yozgi ta'tilda uyga berilgan tasviriy san'atdan bajarilgan natyurmortlar, manzaralar, turli xil xodisalar tasvirlangan vazifalarni ishlaydilar. Tarqatma materiallar bilan o'tilgan mavzu mustahkamlanadi.

Yangi mavzu bayoni: o'qituvchi darsni suhbat tarzida tashkil etib, unda asosiy e'tiborni tasviriy san'atning ifodaviy vositalari tasviriy, amaliy san'at, badiiy konstruktiv loyihalashga, dizayn san'atiga hamda kompozitsiya, chiziq, dog', rang, shakl, fazo, faktura haqida taniqli yirik musavvirlar asarlarining tahliliga qaratishi lozim. Suhbat quyidagi mazmunda bo'ladi va turli tasviriy materiallarni namoyish etish bilan olib boriladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at mashg'ulotlarining o'z maqsad va vazifalari mavjud bo'lib, ular naturaga qarab rasm ishlash, kompozitsiya, san'atshunoslik asoslari bo'limlari orqali amalga oshiriladi.

Naturaga qarab tasvirlash o'quvchilarga narsa va xodisalarning hajmi va fazoda joylashuvi, ularning bir muncha tiniq bilimlari haqida tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi. Naturaga qarab tasvirlash jarayonida o'quvchilar naturani tahlil qilish, ularni bir - biri bilan taqqoslash, umumlashtirish kabi eng muhim xususiyatlarini tasvirlashga harakat qiladilar. Bunda, ayniqsa, chiziqlar ravonligi, ranglarning nafis va mutanosibligini, ifodalangan go'zallikni zehnlab tasvirlay olishga alohida e'tibor beriladi.

Kompozitsiya. U mavzu bo'yicha xotira va tasavvur asosida rasmlar ishlash jarayonida o'z aksini topadi. Bunda o'quvchilar tanlangan mavzuga ko'ra, uning elementlarini qog'oz yuzasida bir biriga bog'lab, turli tasvir elementlaridan yaxlit kompozitsiyani hosil qilishni o'rganadilar. Kompozitsiya tuzishdan maqsad, mavzuga muvofiq keladigan elementlarni tanlab olib, ularni o'rnini almashtirib, yangi detallar kiritish orqali original mazmuni ifodalovchi ijodiy ish yaratishdir.

O'quvchilarga kompozitsiya qonuni – asosan uchta belgi bilan ifodalanishi haqida ma'lumot berishimiz lozimdir. Birinchi belgi bu badiiy asarda sodir bo'layotgan voqeaning o'ziga xosligi. G'.Abdurahmanovning «sijjakda kuz» va boshqalar asarlarining tahlili. Kompozitsiya qonunining ikkinchi belgisi – bu sodir bo'layotgan voqea mavzuini, harakat holatini, vaqtini tasvirlaydi. I.Repinning «kutilmagan edi» asarida faqat personajlar tasvirlangan. Bu erda bo'layotgan kulminatsion daqiqa hayotiy voqeani mavzu bilan bog'lovchi harakatdagi vositadir. Kompozitsiya qonunining uchinchi belgisi bu yangilikdir. Rassomlik san'ati haqiqatni to'g'ri ifoda etib qolmay, rassom his-tuyg'ularini, estetik go'zallikni, tasavvurni jozibali tarannum etadi. Badiiy obrazdagi estetik sifatlar, kompozitsiya echimidagi yangiliklar rassom tomonidan kashf etiladi.

O'quvchilarga biz yuqorida umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at mashg'ulotlarida talab etiladigan vazifalar haqida suhbat olib bordik. Endilikda biz dasturda talab etilgan tasviriy san'at haqida to'xtalamiz tasviriy san'atning asosiy uch turi mavjud bo'lib, bular rangtasvir, grafika va haykaltaroshlikdan iboratdir. Rangtasvir – tasviriy san'atning shunday bir turidirki, unda rang eng asosiy o'rinni egallaydi. Biror yuzada bo'yoqlar vositasida bajarilgan san'at asari rangtasvir deyiladi. Rangtasvir yo'nalishiga ko'ra, mahobatli, dastgohli, miniatyura, teatr rangtasvir kabi turlarga bo'linadi. Rangtasvir yo'nalishlarining har bir maxsus xususiyatlari bilan bir - biridan farqlanadi. Rassomlar O'. Tansiqboev, A. Abdullaev, R. Ahmedov, M. Nabiev, Ch. Ahmarov, R. Choriev va boshqalarning rangtasvir asarlarini o'quvchilarga tanishtirish rangtasvir haqida ma'lumot berish.

Grafika – hozirgi zamon san'atining keng tarqalgan turlaridan biridir. Tasviriy san'atning bu turiga oddiy qora qalamda chizilgan surat, tematik kompozitsiyalar kitobning ichki va tashqi tomoniga ishlangan turli rasm, illyustratsiya, plakat, va boshqalar kiradi. Grafika san'ati asarlari hajm jihatdan uncha katta bo'lmay, ko'p hollarda qog'ozga ishlanadi. Grafikaning xarakterli tomonlaridan biri, uning seriyali qilib ishlanishi, ya'ni voqeani bir necha qog'ozda tasvirlanishidir. Bunday soyali rasmlar o'zaro bir - biri bilan bog'liq bo'lib,

ma'lum bir mazmuni ochib beradi. Grafik rassomlardan M. Kagarov, Q. Basharov, M. Sadiqov, F. Gambarova, G'. Boymatovlarning ijodlarini sanab o'tish mumkin.

Haykaltaroshlik asarlari o'z ishlatilish o'rni, bajaradigan vazifasi va tayyorlanish usuliga qarab turlicha nomlanadi. Ular odatda dumaloq va qabariq ko'rinishda bo'ladilar. Dumaloq haykallarni hamma tomondan aylanib ko'rish mumkin bo'lsa, qabariq haykallarni yuzaga bo'rttirib ishlanganligi sababli faqat bir tomondan ko'riladi.

Haykaltaroshlardan I. Jabborov, A. Raxmatullaev, J. Quttimurodov, R. Mirtojiev, A. Xotamov, E. Esanovlarning reproduksiyalari bilan o'quvchilarni tanishtirish. Shuningdek dars jarayonida tasviriy san'at vositalari va ko'rgazmalar haqida suhbat o'tkaziladi. O'quvchilarga quyidagicha savollar berish mumkin.

- tasviriy san'at nima?
- tasviriy san'atning qanday turlari bor?
- rangtasvirni bilasizmi?
- haykaltarosh va grafika san'ati nima?
- rassomlardan kimlarni bilasiz?

O'qituvchi o'tilgan materiallar yuzasidan savol - javob o'tkazib, berilgan bilimlarni mustahkamlaydi. Amaliy san'at o'quvchilarda badiiy didni o'stirish bilan bir qatorda, ularda borliqni idrok etish madaniyatini va unga estetik munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Amaliy san'atning turlari naqqoshlik, yog'och o'ymakorlik, misgarlik, kandakorlik, zargarlik, gilamdo'zlik, kashtachilik, zardo'zlik va boshqalar.

Shu maqsadda o'quvchilarni quyidagi tushuncha va ma'lumotlarga ega bo'lishlari talab etiladi:

- avvalgi va hozirgi xalq amaliy san'ati ustalarini bilish;
- xalq amaliy san'ati muzeylarining nomi va joylashgan manzillarini bilish;
- xalq amaliy san'atiga oid ma'lum terminlarni bilish;

Dars jarayonida xalq amaliy san'atning turlariga mansub bo'lgan xalq ustalari tomonidan yaratilgan asarlarining reproduksiyalari bilan tanishtirish. O'quvchilarga xalq amaliy san'ati bo'yicha quyidagi savollarni berish mumkin.

– xalq amaliy san'ati nima?

– xalq amaliy san'atining turlarini bilasizmi?

– xalq amaliy san'ati muzeylari respublikamizda nechta va Qaerda joylashgan?

– xalq amaliy san'ati ustalaridan kimlarni bilasiz?

Dizayn san'ati hozirgi kunda birmuncha rivojlanib kelmoqda san'atning bu turiga alohida e'tibor berish davr talabi ekanligi Respublikamizning o'nlab mamlakatlari bilan savdo - sotiq, ijtimoiy, iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yishda ham ko'zga tashlanmoqda. Dizayn san'atining bu turi badiiy konstruksiyalash bo'lib bunda o'quvchilar har - xil ko'rinishga ega bo'lgan qutilarga badiiy bezak berib, uni jihozlaydi shuning bilan birgalikda bayramga bag'ishlangan otkritkalar turli shakldagi sovg'a - salom uchun qutichalar tayyorlash haqida suhbat o'tkaziladi. O'quvchilarga badiiy konstruksiyalashga tegishli bo'lgan materiallar bilan tanishtiriladi.

Yangi mavzuni mustaxkamlash: o'quvchilarning bilimlarini tekshirish uchun testdan foydalaniladi.

1. «san'atshunoslik asoslari» darslarida o'quvchilar qanday shaklda faoliyat ko'rsatadilar?

1. Naturadan rasm chizadilar. 2. Naqsh ishlaydilar. 3. Kompozitsiya ishlaydilar. 4. O'qituvchi suhbatini tinglaydilar.

2. Illyustrativ rasm ishlash qaysi sinflarda amalga oshiriladi?

1. Birinchi sinfda. 2. Boshlang'ich sinflarda. 3. 5 – 7 sinflarda. 4. 1 – 7 sinflarda.

3. Maktabda bolalar qanday bo'yoqlar bilan rasm ishlaydilar?

1. Moybo'yoq, akvarel. 2. Akvarel, guash. 3. Tempera, akvarel. 4. Akvarel, guash, moybo'yoq.

4. Ibtidoiy odam nima bilan rasm chizgan?

1. Ko‘mir va o‘tkir tig‘li tosh bilan. 2. Stiliusda, ko‘mirda. 3. Mo‘yqalamda, qalamda. 4. Qush patlari yordamida.

5. Poytaxtimizning markazida o‘rnatilgan buyuk sarkarda davlat arbobi Amir Temur obraziga ishlangan yodgorlik qaysi haykaltaroshlar tomonidan yaratilgan?

1. A. Rahmatullaev, L. Ryabsev, D. Ro‘ziboev.

2. I. Jabborov, K. Jabborov.

3. E. Aliev, N. Bandeladze, V. Degtyarov.

4. A. Rahmatullaev, I. Jabborov, E. Aliev.


O‘qituvchi: tarmoqlash usuli orqali tasviriy san‘atning turlari haqida klaster usulidan foydalanib, tarmoqlarni to‘ldirib chiqadi. Qolgan kataklarni o‘qituvchi yordamida o‘quvchilar to‘ldiradi bu esa o‘quvchilarning o‘tilgan darsni mustahkamlashga ko‘mak beradi.

Uyga vazifa: tasviriy va amaliy san‘at asarlaridan birontasini topib tahlil qilish va badiiy konstruksiyalash bo‘yicha biror bir quticha yasab kelish vazifa qilib topshiriladi. Tasviriy san‘atning nazariy darslarini ushbu texnologik yondoshuv asosida tashkil etilishi o‘quvchilarning o‘tilgan mavzularni puxta o‘rganib, shu mavzu bo‘yicha bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirishga yo‘naltiradi.

Bob bo‘yicha mustahkamlash va nazorat savollari

1. «Texnologiya» so‘zining ma‘nosi?
2. Zamonaviy pedagogik texnologiya deyilganda siz nimani tshunasiz?
3. Tasviriy san‘at darslarining samaradorligini oshirishda interfaol usullarining o‘rni?
4. Interaktiv metodlar deyilganda siz nimani tshunasiz?
5. «Aqliy hujum» metodi bu?
6. «Kichik guruhlarda ishlash» metodi bu?
7. «Bahs - munozara» metodi bu?
8. “Dars texnologiyasi” – bu?
9. “O‘qitish texnologiyasi” – bu?
10. “Ma‘lumot texnologiyasi” – bu?

II - BOB. TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA MODULLI VA MASOFAVIY O'QITISH



Tasviriy san'at darslarini modulli o'qitish. Moodle tizimining nazariy asoslari. Shaxsiy kabinet yaratish va dastlabki sozlash. Kurs elementlari bilan tanishish. Kurs yaratish asoslari. Yaratilgan kursga talabalarni qo'shish. Kursga oqim va guruhlar qo'shish. Bob bo'yicha mustahkamlash va nazorat savollari.

Tasviriy san'at darslarini modulli o'qitish

Bugungi kunda talabalarga sifatli ta'lim berishni tashkil qilishda ilmiy - texnika taraqqiyoti mahsuli bo'lgan zamonaviy axborot texnologiyalari va uning moddiy asosi kompyuterlar xizmatidan keng foydalanib elektron darslik va qo'llanmalar tashkil etish va internet manbalaridan hamda masofadan o'qitishning dasturiy vositalaridan foydalanish davr talabi bo'lib qolmoqda.

Aynan shu maqsadda axborot texnologiyalaridan foydalanish, mutaxassislarning umumiy ma'lumoti va kasbiy tayyorgarligining sifatini oshirish uchun jahon andozalariga javob beruvchi axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tadbiiq etish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

LMS tizimlari zamonaviy axborot texnologiyalari va masofaviy ta'lim tizimini tashkil etishi mumkin bo'lgan zamonaviy texnologiyalaridan biridir. Yangi texnologiyalar negizida (masalan, "**Moodle**" tizimida) individuallashtirilgan ta'lim metodikasini ishlab chiqish, talabaniing bilimlarini shakllantirish va takomillashtirish hamda egallagan bilim darajasini aniqlash kabi vazifalar hal qilinadi. Ta'lim jarayonida masofali o'qitish texnologiyalaridan foydalanish ta'lim mazmuni, shakllari va usullarining ijobiiy o'zgarishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Lms tizimlari va ularning tavsifi

Masofaviy o'qitish tizimi haqida dastlabki tushunchalar.

Ma'lumki, har bir ta'lim muassasasi o'z ta'lim jarayonini boshqarish uchun zamonaviy texnologiyalardan kelib chiqqan holda, o'zining virtual axborot ta'lim muhitini yaratishga harakat qiladi. Hozirgi vaqtga kelib, virtual axborot ta'lim muhitini yaratishning hojati qolmagan, chunki **Web** muhitiga moslashgan har xil

turdagi dasturiy majmualar jonkuyar dasturchi va ta'lim sohasida ishlab kelayotgan xodimlarning hamkorlikda ishlashlari, shuningdek, ta'limga yo'naltirilgan fondlar tomonidan qo'llab - quvvatlanishi natijasida, erkin va ochiq kodli dasturiy ta'minotlar yaratilgan.

Bu o'quv modulimizda masofaviy ta'lim jarayonini tashkillashtirish imkoniyatini beruvchi erkin va ochiq kodli dasturlar majmuasining tahlili keltiriladi. O'quv modulida keltirilgan dasturiy majmualar tahlili ko'p yillar davomida olib borilgan ilmiy - tadqiqotlar natijasidir.

Masofaviy o'qitish - eng yaxshi an'anaviy va innovatsion metodlar, o'qitish vositalari va formalarini o'z ichiga olgan sirtqi va kunduzgi ta'lim singari axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'lim shaklidir.

Masofaviy o'qish - bu yangi axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalariga asoslangan ta'lim tizimidir. U ta'lim oluvchiga ma'lum standartlar va ta'lim qonun - qoidalari asosida o'quv shart - sharoitlari va o'qituvchi bilan muloqotni ta'minlab berib, o'quvchidan ko'proq mustaqil ravishda shug'ullanishni talab qiluvchi tizimdir. Bunda o'qish jarayoni ta'lim oluvchini qaysi vaqtda va qaysi joyda bo'lishiga bog'liq emas.

Masofaviy ta'lim - masofadan turib o'quv axborotlarini almashuvchi vositalarga asoslangan, o'qituvchi maxsus axborot muhit yordamida, aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta'lim oluvchilarga ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi ta'lim majmuasidir.

Masofaviy o'qitish tizimi - masofaviy o'qitish shartlari asosida tashkil etiladigan o'qitish tizimi. Barcha ta'lim tizimlari singari masofaviy o'qitish tizimi o'zining tarkibiy maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllariga ega.

Axborot - kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim jarayonida (xususan, masofaviy ta'lim jarayonini) qo'llash asosan ikki xil ko'rinishda amalga oshiriladi. Birinchi sharti bu texnik jihozlar bo'lsa, ikkinchi sharti esa maxsus dasturiy ta'minotlar bilan ta'minlanganligidir.

Texnik jihozlar bilan ta'minlanganlik: kompyuterlar, tarmoq qurilmalari,

yuqori tezlikdagi internet tarmoqlari, videokonferensiya jihozlari va hokazo.

Dasturiy ta'minotga mavjud qurilmalarni ishlatadigan dasturiy ta'minotlardan tortib shu soha uchun mo'ljallangan dasturlar to'plami kiradi.

So'nggi yillarda G'arbda ta'lim tizimini boshqarishda qo'llanib kelinayotgan Internet yoki Intranet tarmog'i orqali elektron shakldagi ta'lim turi **Elearning** (elektron ta'lim) atamasi bilan kirib keldi. Elektron ta'lim — axborot - kommunikatsiya texnologiyalari asosidagi ta'limning turli ko'rinishlarini anglatuvchi keng tushunchadir. Elektron ta'limni tashkillashtirishning ko'pgina manbalari orasidan quyidagilarni ko'rsatish mumkin: Mualliflik dasturiy mahsulotlari (**Authoring tools**), virtual ta'lim jarayonini boshqaruvchi tizimlar **LMS (Learning Management Systems)**, ichki kontentni boshqaruvchi tizimlari **CMS (Content Management Systems)**.

LMS tizimlari funksiyalari va ularning taxlili

LMS/LCMS tizimlari elektron ta'limni (masofaviy ta'lim jarayonini) tashkil etishning asosiy funksiyalarini o'z ichiga oladi. Bunday funksiyalar qatoriga o'quvchilarning (o'qituvchilarning, kurs yaratuvchi pedagoglarni va boshqalarni) ro'yxatga olish, foydalanuvchilarni o'quv kurslardan chetlashtirish, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish muhitini yaratish, o'quvchi va o'qituvchilarning o'zaro individual yoki guruh bo'lib, hamkorlikda ishlashini (**Web2** elementlarini ishlatish orqali) tashkil etish, guruhlar yaratish va ularni boshqarish, oraliq, joriy va yakuniy nazoratlarni tashkillashtirish va elektron nazorat turlarini yaratish (elektron nazorat turlariga yopiq turdagi test, ochiq turdagi nazorat, moslikni topishga oid, ketma - ketlikni to'g'ri joylashtirish, bo'sh qoldirilgan joyni to'ldirish va boshqa turlari kiradi), har xil turdagi ijtimoiy so'rovlarni tashkillashtirish, o'quvchilarning bilim darajasini monitoring qilish, sertifikatlar (diplomlar) berish imkoniyati, elektron axborot resurslarini (elektron kutubxonalar) tashkillashtirish, elektron o'quv resurslarini eksport/import qilish imkoniyatlari, tizim foydalanuvchilarining (o'quvchilar, o'qituvchilar, kurs yaratuvchi pedagoglarning) tizimga qachon, qancha vaqt davomida o'quv kontentlar bilan tanishganligi, qaysi **IP** - manzil orqali kirganligini (bu esa qaysi davlatdan tizimga kirganligini aniqlashga yordam

beradi), brauzer va qaysi operatsion tizim orqali kirganligi, tizimda mavjud foydalanuvchilarning faolligini maxsus grafiklar orqali monitoring qilish imkoniyati, o'qituvchi (elektron kurs yaratuvchi pedagoglar) tomonidan elektron o'quv - resurslarini yaratishi, **Authoring tools**larda **SCORM**, **TinCan** yoki boshqa standartlar asosida yaratilgan elektron o'quv resurslarini yuklashi, o'quvchilarning boshqa o'quvchilar/o'qituvchilar bilan (**Chat**, **Forum**, videokonferensiya, umumiy elektron doskalar yoki tizimning ichki/tashqi xabarlar almashish moduli orqali) muloqotini tashkillashtirish, o'quv jarayonida bo'ladigan yangiliklarni barcha foydalanuvchilarga ommaviy xabar yuborib turuvchi modullarning mavjudligi, iqtisodiy va marketingga oid operatsiyalarni boshqarish va boshqa imkoniyatlarni sanab o'tish mumkin.

Quyida masofaviy ta'lim jarayonini tashkillashtirish imkoniyatini beruvchi erkin va ochiq kodli **LMS** dasturiy majmualarning nomlari va ularning asosiy imkoniyatlari bo'yicha ma'lumotlarni bayon qilamiz. **Atutor** — Ochiq kodli ta'lim jarayonini boshqaruvchi **LMS** tizimi hisoblanadi. Tizimda mavjud o'qitish modullari: **Forums**, **Materials**, **Messenger**, **Chat**, **Exercises**, **Group work**, **Student tracking** va boshqa modullari mavjud. Tizim bir necha standartlarni qo'llab - quvvatlaganligi sababli, internet orqali jismoniy nuqsonga ega bo'lgan o'quvchi - talabalar tizim orqali o'quv resurslardan foydalanishlari mumkin. Xususan, ko'zi ojiz talabalar maxsus web - ilovalar orqali tizimga bog'langan holda o'quv kontentdagi so'zlarni audio formatga o'tkazgan holda tinglashi mumkin.

Chamilo - tizimi ham boshqa **LMS** tizimlari singari **IMS(IMS Content Packaging, IMS QTI)** va **SCORM** standartlarini qo'llab-quvvatlaydi. Tizim kross- platformali hisoblanib, barcha operatsion tizimlarda ishlaydi. **GPLv3** litsenziyasi asosida ish yuritadi. Bu tizimda kurslarni tashkillashtirishda **sessiya** nomli qo'shimcha moduli mavjud bo'lib, ma'lum kurslar yakuni bo'yicha lokal imtihon aratish imkonini beradi. Shuningdek, hisobot bo'limi orqali esa kurslar, imtihonlar va foydalanuvchilarning holati bo'yicha hisobot yaratiladi. **Chamilo** tizimida modullarning imkoniyatlari yildan - yilga takomillashib bormoqda. Xususan, hozirgi kunga kelib qolgan **LMS** tizimlarida mavjud modullarga

qo'shimcha bo'lgan ochiq muloqot va videokonferensiya tashkil etish hamda taqdimot yaratish imkoniyatlari modullari ishlab chiqildi.

OLAT (Online Learning And Training) - tizimni ishlab chiqarish 1999 - yil **Syurix** universitetida yaratila boshlangan, 2004 - yildan boshlab dastur kodi ochiq kodlikka o'tdi. Hozirga kelib, tizimdan 50 000 ga yaqin foydaluvchi va 50 ga yaqin tashkilot foydalanib kelmoqda. Boshqa **LMS** lar singari **IMS (IMS Content Packaging, IMS QTI)** va **SCORM** standartlarni qo'llab - quvvatlaydi. **OLAT** dasturiy majmuasida mavjud o'quv modullari quyida keltirilgan: **Content managing, Forums, File discussions, Quizzes with different kinds of questions, Wikis, Blogs, Podcast, Surveys, Chat** va boshqa modullari mavjud. **Apache License 2.0** asosida foydalanish mumkin. **OLAT** tizimini ishlatish uchun talab etiladigan dasturiy majmualar: **Java SDK, Tomcat Servlet Engine**, ma'lumotlar omboridan **MySQL** yoki **PostgreSQL**. **OLAT** dasturiy majmuasida foydalanuvchilar (administrator, o'qituvchi, o'quvchi) rollaridan foydalanishlari mumkin.

Dokoes - Clarolinening 1.4.2 versiyasidan ajralib chiqqan yangi dasturiy majmua hisoblanadi. **Dokoes Claroline** platformasini ishlab chiqqan dastlabki ishchi guruh bir necha a'zolarining ish mahsuli bo'lib, ular ta'lim muassasalari uchun yaratilgan **Claroline** tizimidan farqli ravishda, davlat korxonalarining ishchi xodimlariga moslashtirishni maqsad qilishdi va amalga oshirishdi. **Dokoes** dasturiy majmuasining 2 turdagi versiyalari ishlab chiqarilgan, ular **Dokoes Free** - bepul va **Dokoes Pro** - bepul bo'lmagan, qo'shimcha modullarga ega bo'lgan dasturiy paketlaridir. Lekin **Dokoes Free** versiyasi yordamida ta'lim jarayonini tashkillashtirish uchun kerak bo'ladigan barcha o'quv modullari mavjud. Tizimning mavjud o'quv elementlaridan va o'qitish modullaridan ta'lim muassasalarida ham foydalanish mumkin. Hozirgi vaqtda **LMS** larining ko'pchiligi ijtimoiy tarmoqlardagi mavjud g'oya asosida o'zlarining ishchi muhitlarini shunday tarmoqlarga moslashtirmoqda. Shunga ko'ra, bu tizimda ham ijtimoiy tarmoq elementlari keng kiritilgan. Yuqorida keltirilgan **LMS** tizimlari singari **Dokoes** dasturiy majmuasi ham **SCORM** standartini qo'llab-quvvatlaydi. Bu esa ushbu

standartni qo'llab- quvvatlaydigan boshqa **LMS** tizimlariga o'quv kurslarini eksport/import qilish imkoniyatini beradi.

Sakai - dunyoning ko'pgina ta'lim muassasalarida keng foydalanib kelinayotgan navbatdagi ochiq kodli **GNU GPL** litsenziyasi asosida erkin tarqatiluvchi dasturiy majmua hisoblanadi. Boshqa **LMS** tizimlaridan farqi shundaki, tizim to'liq **JAVA** tilida yozilgan. Shu sababli tizim kross - platformali hisoblanadi. **Sakai** dastur majmuasining o'zida ma'lumotlar ombori mavjud bo'lib, agar foydalanuvchilar soni kam bo'lsa, tizimning ichki ma'lumotlar omboridan foydalanish mumkin. Agar foydalanuvchilar soni ko'p bo'lsa, u holda **MySQL** yoki **Oracle** ma'lumotlar omborida ishlashi mumkin. **Sakai** dastur majmuasida ta'lim jarayonini boshqarish imkoniyatini beruvchi quyidagi umumiy modullar mavjud:

- V **Announcements** (E'lonlar) - tizim foydalanuvchilariga tegishli e'lonlarni yetkazish uchun xizmat qiladi;
- V **Drop Box** (Fayllar almashinuvi) - talabalar/o'qituvchilar va o'qituvchilar/talabalar o'rtasida (shaxsiy) hujjatlar almashinuvini ta'minlashga xizmat qiladi;
- V **Email Archive** (Elektron pochta arxivi) - bu modul orqali tizimdagi foydalanuvchilarning pochta xabarlarini tizimning arxiv pochta saqlanadi;
- V **Resources** (Resurslar) - tizim ichidagi foydalanuvchilar o'zlarining o'quv resurslarini saqlashlari va ularni jamoaga e'lon qilish imkoniyati;
- V **Chat Room – on - line** ravishda tizim ichidagi foydalanuvchilar o'rtasida aloqani o'rnatish muhiti;
- V **Forums** – biror - bir mavzu bo'yicha diskussiya mavzularini ochish mumkin. **On - line** muloqotdagi chatdan farqli ravishda bu modul orqali **off - line** ravishda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish mumkin;
- V **Message Center** (xabarlar markazi) - tizim foydalanuvchilari o'rtasida ichki xabarlar almashish moduli;
- V **News/RSS** - **RSS** dinamik yangiliklarini o'zingizning kompyuteringizga eksport qilish imkoniyati;

S Poll tool (so'rovlar o'tkazish) - tizim ichida har xil so'rovlar o'tkazish imkoniyati;

S Presentation (prezentatsiya) - bir vaqtning ichida bir nechta foydalanuvchilar uchun fayllarni taqdimot qilish imkoniyatini beruvchi modul;

S Profile/Roster - tizimda mavjud foydalanuvchilarning shaxsiy profillari bilan ishlash moduli;

S Repository Search - tizim ichidagi ma'lumotlarni qidirish moduli.

O'qituvchi uchun maxsus ishchi modullari (teaching tools) quyidagilardan tarkib topgan: Assignments, Grade book, Module Editor, QTI Authoring, QTI Assessment, Section Management, Syllabus. Tizim muhitida o'quvchi uchun ishchi modullari (Portfolio tools) quyidagilardan iborat: Forms, Evaluations, Glossary, Matrices, Layouts, Templates, Reports, Wizards, Search, Web Content, WebDAV, Wiki, Site Setup, MySakai, Widgets.

Ilias - bu tizim ham erkin va ochiq kodli masofaviy ta'lim jarayonini boshqaruvchi **LMS** tizimi hisoblanadi. Dasturiy majmua 1998 - yildan hozirgi vaqtgacha rivojlanib kelmoqda. Boshqa tizimlarda mavjud bo'lgan o'qitish modullari bu tizimda ham bor: **Forums, Materials, Messenger, Chat, Exercises, Student tracking, Calendar, Glossari, Wiki** va boshqa modullari mavjud. Ushbu **SCORM** standartiga to'liq javob beradi. Tizimning boshqa tizimlarga nisbatan avfzal tomonlaridan biri elektron nazorat turlarining yaxshi yo'lga qo'yilganidadir. Quyida ko'rsatilgan elektron nazorat turlari: **single choice, multiple choice, matching, fill – in – the - blanks, hot spots, flash, java applet** va boshqalarni o'z ichiga oladi. O'quvchilarning olgan natijalarini tahlil qilish va sertifikatlash imkoniyati ham mavjud.

ATutor - tizimi ommalashgan masofaviy ta'lim tizimlari qatoriga kiradi. **ATutor** tizimning tarkibida quyidagi modullar mavjud: **Forum, Glossary, File Storage, Site map, My tests and surveys, My tracker, Directory, Export content, Chat, Links, Polls, Blogs, Web search** va h.k. Bu tizimda yaratilgan kurslar ob'yektga mo'ljallangan dasturlash tillarida klasslarni yaratish jarayoni kabi

uch xil tipda aniqlanadi. Chunonchi, **public, Private, Protected**. Foydalanuvchilar bilan ishlashda ham ular uchun bir qancha rollar mavjud bo'lib, ular **disabled** (ta'qiqlangan), **deconfirmed** (faollashtirilmagan), **student** (talaba), **instructor** (o' qituvchi/tyutor), **administrator** (administrator).

Open ELMS - erkin va ochiq kodli navbatdagi masofaviy ta'lim jarayonini tashkillashtirish imkoniyatini beradigan tizim bo'lib, **GNU GPL** litsenziyasi asosida foydalanuvchilarga foydalanishlari uchun tarqatiladi. Tizimning o'zi erkin va ochiq kodli bo'lganligi bois ham, dasturiy majmuani yaratishda ochiq kodli dasturiy ta'minotlardan foydalanilgan.

eFront - dasturiy majmua **PHP**ni qo'llab - quvvatlovchi barcha operatsion tizimlarda ishlaydi. Ma'lumotlar bazasi sifatida **MySQL** va **PostgreSQL**dan foydalanish mumkin. Boshqa **LMS**lar singari **IMS** va **SCORM** standartlarni qo'llab - quvvatlaydi. Tizim 30dan ortiq tilga tarjima qilingan, shu qatorida o'zbek tilidagi tarjimasi ham mavjud. **eFront** tizimining bir qancha versiyalari ishlab chiqarilgan, ular **Editions, Enterprise, Educational** va **Open-source**. **Open - source** versiyasidan foydalanish bepul hisoblanib, qolgan versiyalaridan foydalanish uchun ma'lum qo'shimcha pul evaziga sotib olishingiz mumkin bo'ladi. Lekin **eFront** dasturiy majmuasining **Open - source** versiyasi masofaviy ta'lim jarayonini tashkillashtirishingiz uchun yetarli hisoblanadi. Mazkur tizimda o'quv jarayonini tashkil etish uchun bir qancha umumiy modullar mavjud ular qatoriga quyidagilar kiradi: **youtube, wiki, workbook, translate, translator, thumbnail, shared files, rss, quote, links, quick mails, lessonstats, lesson sidebar, journal, gradebook, flashcards, faq, crossword, complete test, billboard, banners, blogs, certificates, bbb, chat, infoliosk, idle users, outlook invitation, mg reports** va **administration tools**. Tashkil etilgan darslar uchun quyidagicha maxsus modullar mavjud: **Theory** (Nazariy qism), **Examples** (Misollar), **Projects** (Loyixalar), **Tests** (Testlar), **Lesson rules** (Dars qoidalari), **Forum** (Forum), **Comments** (Izohlar), **Announcements** (E'lonlar), **SCORM**.

Ko'rinib turibdiki yuqorida ko'rib chiqilgan **LMS** tizimlarining imkoniyatlari bir - biridan qolishmaydi. Biroq, ular yordamida masofaviy ta'lim

tizimlarini tashkil etish administratorning qobiliyatiga hamda tizimlarning imkoniyatlari yaratilayotgan masofaviy ta'lim tizimiga qay darajada mos kelishiga bog'liq bo'ladi. Masofaviy ta'lim tizimlarini yaratishda minimal holatda darsning nazariy qismlarini yaratish, turli shakldagi testlar tuzish, forum, izohli lug'at, talabalarning reyting tizimini nazorat qilish bo'limlarining bo'lishliligi talab etiladi. Ko'rib chiqilgan LMS tizimlarining deyarli barchasi SCORM va IMS standartlarini qo'llab - quvvatlaydi. Bunday standartlar taqdimotlarni namoyish qilish, elektron manbalarni ko'rib chiqish hamda sodda va murakkab ko'rinishdagi testlarni tuzish imkonini yaratadi. SCORM va IMS standartli fayllarni bir tizimda yoki bir bo'limda emas, balki turli tizimlarning turli bo'limlarida qayta - qayta foydalanish imkoni mavjud bo'ladi.

Moodle tizimining nazariy asoslari

Moodle - Web muhitida o'qitish va online rejimdagi darslarni tashkil qiluvchi kuchli pedagogik dasturiy majmua hisoblanadi. Mazkur tizimda **Forums, Materials, Messenger, Chat, Exercises, Group work, Student tracking** kabi ko'plab o'qitish modullar mavjud.

Boshqa LMSlar singari **IMS, SCORM** va boshqa standartlarni qo'llab - quvvatlaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, boshqa **LMS** tizimlarga qaraganda, eng ko'p qo'shimcha plugin va modullari mavjud bo'lgan dasturiy majmua bu **Moodle** dasturiy majmuasidir.

Hozirgi vaqtda dunyoning aksariyat ta'lim muassasalari o'z masofaviy ta'lim tizimlarini tashkil etishda **Moodle** dasturiy majmuasini joriy etmoqdalar.

Respublikamizdagi ko'plab ta'lim muassaslari virtual ta'lim muhiti sifatida aynan **Moodle** dasturiy majmuasi foydalanib kelinmoqda. Xususan, Toshkent axborot texnologiyalari universitetining "Virtual ta'lim muhiti" (<http://etuit.uz>), O'zbekiston Milliy universitetining «Ochiq o'quv - axborot markazi», Xalq ta'limi vazirligi qoshidagi «Multimedia umum ta'lim dasturlarini rivojlantirish markazi» (<http://moodle.uzedu.uz>), Toshkent Turin Politexnika universiteti (moodle.polito.uz), Andijon mashinasozlik instituti (<http://moodle.andmiedu.uz>).

Ochiq kodli **Moodle** dasturiy majmuasi o'quv jarayonini boshqaruvchi **Web** interfeysli muhitga yo'naltirilgan maxsus tizimi bo'lib, asosan global tarmoqda foydalanishga mo'ljallangan. Tizimni yaratishda PHP, MySQL, AJAX, JavaScript, HTML, CSS, XML jQuery kabi qator ochiq kodli dasturiy vositalardan foydalanilgan. Uni ishlatish uchun ma'lumotlar omborini boshqarish dasturi (**MySQL** yoki **PostgreSQL**), **PHP** protsessori, **Web - xizmati** (**Apache** yoki **IIS**) dasturlari sozlangan server zarur. Operatsion tizim sifatida ixtiyoriy keng tarqalgan operatsion tizimlardan biridan foydalanish mumkin (**Windows**, **Linux**, **Mac OS X**, **Novell Netware**). Mazkur o'quv qo'llanma yozilayotgan vaqtda **Moodle** tizimining **2.9** versiyasidan foydalanilgan. Tizimning rasmiy internet manzili: <http://www.moodle.org>

Shaxsiy kabinet yaratish va dastlabki sozlash.

Moodle tizimidan foydalanish uchun dastlab mazkur **LMS** tizimida yaratilgan ilovaga a'zo bo'lish talab etiladi. **Moodle** tizimida ro'yxatga olish jarayoni barcha versiyalarida deyarli bir xil kechadi. Mazkur qo'llanmada **Moodle LMS** tizimi bo'yicha ko'rsatilgan misollarning barchasi **2.9** versiyasida amalga oshirilgan.

Ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilar mazkur blok yordamida o'ziga biriktirilgna login va parol asosida tizimga kirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Avval ro'yxatdan o'tgan, ammo tizimga kirish uchun tanlagan logini yoki paroli yodidan ko'tarilgan har qanday foydalanuvchilar esa **Забыли пароль?** havolasi orqali o'z logini yoki parolini qayta tiklashlari mumkin. Login yoki parolni tiklash uchun foydalanuvchidan ro'yxatga olish jarayonida kiritgan **e-mail** manzilini kiritish talab etiladi. Agar ro'yxatdan o'tish jarayonida noma'lum **e-mail** manzilidan foydalnilgan bo'lsa, foydalanuvchi logini va yangi berilgan paroli mavhumligicha qoladi. Bunday holatlarda faqat **Administrator** orqali muammoni hal etish yo'li qoladi.

Ushbu tizimdam dastlabki bor foydalanayotgan shaxslar yuqorida ko'rsatilgan blokdan **Создать учетную запись** havolasini tanlashi lozim. Natijada ro'yxatga olish sahifasi namoyon boladi. Ushbu sahifa maydonlariga

foydalanuvchi ma'lumotlari quyidagi rasmda keltirilgan tartibda kiritilishi mumkin.

Mazkur sahifada berilgan maydonlarning barchasini to'ldirish tavsiya etiladi:

S Логин maydoni - tizimga kirish uchun ishlatiladigan login hisoblanib, faqatgina lotin harflaridan foydalaniladi;

S Пароль - tizimga kirish uchun ishlatiladigan maxfiy kalit bo'lib, unga kamida bitta katta va kichik lotin harflari, bitta raqam va bitta tinish belgilaridan foydalanish zarur. Maxfiy kalit uzunligi 8 ta belgidan kam bo'lmasligi talab etiladi;

S Адрес электронной почты - avtorizatsiya uchun ishlatiladigan elektron pochta manzili. Kiritilgan pochta qutisi faol holatda bo'lishi zarur. Bir **e-mail** manzili yordamida faqat bir marta ro'yxatdan o'tish mumkin;

S Адрес электронной почты (еще раз) - E-mail maydoniga kiritilgan pochta manzilini tasdiqlash uchun kiritiladi. Ushbu maydonga **E-mail** maydoniga kiritilgan pochta manzili aynan kiritilishi talab etiladi;

S Имя – Professor - o' qituvchining ismi;

S Фамилия – Professor - o'qituvchining familiyasi;

S Город – Professor - o'qituvchining turar joyi;

S Страна – Professor - o' qituvchi fuqaroligi.

Yuqoridagi barcha maydonlar to'ldirilgandan so'ng **Сохранить** tugmasi bosiladi. Administrator tasdig'idan so'ng professor - o'qituvchilar tizimdan foydalanishi imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Tizimga kirish uchun professor - o'qituvchilar saytga kirish sahifasidan ham foydalanishlari mumkin:

Professor - o'qituvchi yuqoridagi sahifada login va parolini mos ravishda maydonlarga kiritib **Вход** tugmasini bosgandan so'ng, kiritilgan login va parol tekshiriladi. Agar login va parol bir - biriga mos bo'lsa, professor - o'qituvchi tizimga kirishi mumkin, aks holda xatolik haqida xabar namoyon bo'ladi. Shuningdek, login va parolni kiritish vaqtida **Caps Lock** indikatorini holatiga hamda tizimning kiritish tilining to'g'riligiga ahamiyat berishi kerak.

Professor - o'qituvchi tizimdagi shaxsiy ma'lumotlarini to'liq kiritishi yoki tahrir qilishi mumkin. Buning uchun sahifaning yuqori qismida ism va familiyasi yozilgan havolani bosish kerak. Natijada quyidagi qo'shimcha menyu hosil bo'ladi: Ushbu qo'shimcha menyu yordamida professor - o'qituvchi ma'lumotlarini tahrir qilishi, baholar hisobotini ko'rishi, boshqa foydalanuvchilar bilan xabar almashinishi, tizimdagi o'ziga tegishli sozlamalarni o'zgartirishi hamda tizimdan chiqish kabi amallarni bajarishi mumkin. Foydalanuvchi menyusidagi **Моя домашняя страница** bandi orqali tizimning bosh sahifasiga o'tish mumkin. **О пользователе** bandi orqali esa foydalanuvchiga tegishli bo'lgan barcha shaxsiy ma'lumotlarni ko'rish mumkin. **Сообщения** bandi orqali foydalanuvchi tizim foydalanuvchilari bilan xabar almashishlari mumkin. Mazkur xabar almashish bo'limi **SMS** ko'rinishida bo'lib, suhbatdoshlar faqatgina o'zaro gaplashishlari mumkin.

Foydalanuvchilardan xabar kelsa bu sahifada ularning ismi, familiyasi va yozga xabarlari soni aks etadi. Xabarni o'qish va javob yozish uchun kerakli ism va familiya bosiladi. Natijada quyidagi muloqot sahifasi namoyon bo'ladi:

Foydalanuvchi xabariga javob yozish uchun xabar maydoniga zaruriy matn kiritilib **Отправить сообщение** tugmasi bosiladi.

Настройки bandi orqali foydalanuvchiga tegishli bo'lgan barcha shaxsiy ma'lumotlarni tahrir qilish mumkin:

Выход bandi orqali esa joriy tizimdan vaqtinchalik faoliyatni yakunlash mumkin. Tizimga qayta kirib, login va parol orqali faoliyatni davom ettirish mumkin.

Kurs elementlari bilan tanishish

Boshqa **LMS** tizimlariga qaraganda **Moodle** tizimi orqali masofaviy ta'lim tizimini tashkil etishda keng imkoniyatlar mavjud:

S Kurs mazmunini boyitish uchun o'nlab kurs elementlarini mavjudligi;

S Talabalar uchun resurslarning bir qancha turdaligi;

S Foydalanuvchi hohlagan tilida ishlay olishligi;

S Har bir kursda darslar modullarga bo'lib tashkil etilishligi va boshqalar.


Moodle LMS tizimida quyidagi rasmda aks ettirilgan kurs elementlari mavjud:

База данных

ЭЛЕМЕНТЫ КУРСА

- Лекция
- Анкета
- Задание
- Опрос
- Глоссарий

Kurs elementlari.



Kurs elementlari ro'yxati

Анкета (So'rovнома) - elementining uch turdagi anketalari masofaviy ta'lim kurslarini baholash va rag'batlantirish uchun xizmat qiladi. Professor -

o'qituvchilar anketa moduli yordamida o'z talabalarini yaqindan bilishga yordam beruvchi ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Shuningdek, dars samaradorligini oshirishga yordam beruvchi talabalar fikrlariga ham ega bo'lishlari mumkin. Shuni ta'kidlash joizki, ushbu modul savollari oldindan ishlab chiqilgan bo'lib, ularni o'zgartirib bo'lmaydi. Talabalar uchun maxsus anketa taqdim etishda **Teskari aloqa** xizmatidan foydalanish mumkin.

Чат (Chat) - elementi kurs ishtirokchilari o'rtasida o'zaro yozma muloqot qilish imkonini yaratadi. Kursga kirish imkoni bo'lgan foydalanuvchilar **chat** modulidan ham faol foydalanishlari mumkin. **Chat** modulini yaratishda chatning ishlash vaqtini ko'rsatish zarur. **Chat** faol bo'ladigan vaqtlar oldindan belgilanadi. Masalan: bir marta, har kuni belgilangan vaqtda hamda har hafta belgilangan vaqtda. **Chat** faollashish vaqti hamda undagi xabarlar bilan bog'liq sozlash ishlarini professor - o'qituvchi **chat**ni yaratish vaqtida belgilaydi. **Chat** modulidan kurs ishtirokchilari bir - birlari bilan ko'rishishning imkoni bo'lmay qolganda foydalanish tavsiya etiladi. **Chat** modulidan quyidagi holatlar yuz berganda foydalanish mumkin:

- S** Turli joyda yashovchi bir kurs ishtirokchilari bir - birlari bilan axborot almashish maqsadida;
- S** Talaba o'qituvchining yoniga suhbat uchun borishni imkonini topa olmaganida;
- S** Talabalar erishgan yutuqlarini talabalar va o'qituvchilar bilan mukoma qilish zarur bo'lganda;
- S** Talabalardan mavzuga tayyorgarlik ko'rish uchun yordam olish maqsadida.

Лекция (Ma'ruza) - o'quv elementi masofaviy ta'lim tizmining asosiy mazmunini yoritib beruvchi elementlardan biri hisoblanadi. Uning yordamida ma'ruza, amalaiy mashg'ulot darslarining ma'lumotlari tashkil etiladi. Ma'ruza sahifalar to'plami asosida tashkil etiladi. Odatda, sahifalarning har biri savollar bilan yakunlanib, savollarga berilgan javobga qarab talabalar keyingi bosqichga o'tishi yoki oldingi bosqichni qayta o'zlashtirishi aniqlanadi.

Ma'ruza elementi quyidagi funksiyalarga ega:

S Har bir dars baholanish imkoniga ega bo'lib, olingan natijalar baholar jurnaliga yozilib boriladi;

S Har bir dars tarkibida bir necha sahifalar yaratish imkoni mavjud;

S O' zlashtirilgan darslarga bajarilganlik haqida belgi qo'yiladi;

S Yangi mavzularni mustaqil o'rganish mumkin;

S Darslarni nazorat qilish uchun turli xildagi test savollaridan foydalanish mumkin.

Внешний инструмент (Tashqi uskuna) - elementi boshqa web - saytlarda joylashgan ta'lim resurslari va faol namunaviy elementlarni kursga bog'lash imkonini yaratadi. Masalan, tashqi uskuna kursga tegishli bo'lgan yangi ma'lumot yoki ilova bo'lishi mumkin. Tashqi uskuna elementi **Гиперссылка** resursidan quyidagi xarakterlar bilan farqlanadi:

S Tashqi uskuna uzoqda joylashgan resurni o'z resursi kabi namoyon etadi;

S Tashqi ilovalarni o'qish, yangilash hamda o'chirish natijasida baholarga ega bo'linadi;

S Mazkur tizim bilan tashqi ilova o'rtasida o'zaro aloqa o'rnatilib, ularning bir - biriga ishonchli deb topilgandagina bog'lanish paydo bo'ladi.

Форум (Forum) - elementi uzoq vaqt davomida foydalanuvchilar o'rtasida muloqotni tashkil etadi. **Forum** modulini chat modulidan farqi bo'lib, chat aniq bir vaqt mobaynida qisqa xabarlar orqali muloqot tashkil etish uchun xizmat qiladi. **Forum** esa chatga qaraganda kengroq tushuncha bo'lib, aniq bir masala bo'yicha uzoq vaqt davomida foydalanuvchilar o'rtasida muzokara olib boorish imkonini yaratadi. Muzokara mobaynida foydalanuvchilar matnli va grafikli ma'lumotlardan foydalanishlari mumkin. **Forum** yangiliklariga a'zo bo'lgan foydalanuvchilar forum yangiliklari haqida doimiy xabardor bo'lib turadi. **Forum** xabarlari professor - o'qituvchilari hamda talabalar tomonidan ham baholanishi mumkin. Natijaviy baholar jurnaliga yozilishida ikkala guruh a'zolari bergan baholari birlashtiriladi.

Forum elementidan quyidagi holatlarda foydalanish mumkin:

- S Talabalar bir - birlari bilan yaqindan tanishish uchun ochiq muloqot interfeysi sifatida;
- S Kurs e'lonlaridan (yangiliklar **forumiga** a'zo bo'lganlar uchun) xabardor bo'lish uchun;
- S Kurs mundariyasi yoki kurs ma'lumotlarini muhokama qilish uchun;
- S Shaxsiy uchrashuvlarda tashkil etilgan muloqotni davom ettirish uchun;
- S Professor - o'qituvchilar hamkorlik muxitini tashkil etish uchun (yashirin forum shaklida);
- S Maslahat markazi uchun (professor - o'qituvchilar va talabalar uchun);
- S “Jumboq”, “Aqliy hujum” kabi mavzular doirasida muhokama - munozara olib borish maqsadida.

Глоссарий (Izohli lug'at) - elementi foydalanuvchilarga resurs va ma'lumotlarning tizimlashtirilgan hamda faoliyat doirasida foydalaniladigan lug'at tashkil etish imkonini beradi. Professor - o'qituvchilar izohli lug'atga fayllarni birlashtirish uchun ruxsat berishlari mumkin. Birlashtirilgan faylli yozuvlar o'qituvchi tasdig'idan so'ng izohli lug'atda ochiq holatda namoyon bo'ladi. Izohli lug'at yozuvlarini alifbo, kategoriya, kiritilgan sana va muallifi bo'yicha qidirib topish mumkin.

Agar izohli lug'atda avtobog'lanish filtri yoniq bo'lsa, u holda kursda ishlatilgan so'zlar va jummalarga mos kelgan termin haqida ma'lumot olish mumkin bo'ladi.

Izohli lug'atdan quyidagi holatlarda foydalanish mumkin:

- S Atamalarining qo' shma banki sifatida foydalanish;
- S Yangi talabalarining ismi va shaxsiy ma'lumotlarini kiritishni o'rgatuvchi maydon;
- S Foydali video, grafikli va audio ma'lumotlarni saqlash uchun umumiy muhit sifatida va boshqa holatlarda.

База данных (Ma'lumotlar ombori) - elementi foydalanuvchilarga barcha joydan yozuvlarni izlash, yaratish va xizmat ko'rsatish kabi imkoniyatlar yaratadi. Yozuv strukturasi o'qituvchilar tomonidan maydonlar soni orqali

aniqlanadi. Maydonlarning **menyu, matnli soha, bir tanlovli va ko'p tanlovli maydon, qalqib tushuvchi ro'yxat, giperhavola, rasm va fayl yuklovchi maydon** kabi turlari mavjud. Ma'lumotlar ombori ma'lumotlarini ko'rish va tahrirlash visual aks etishi ma'lumotlar ombori qolipi kabi amalga oshiriladi. **База данных** elementidan mavjud kurslarda andoza sifatida hamkorlikda foydalanishi mumkin. Shuningdek, professor - o'qituvchilar ma'lumotlar ombori yozuvlarini import va eksport qilishlari ham mumkin. Agar **База данных**ning avtobog'lanish filtri yoqilgan bo'lsa, u holda ma'lumotlar omborining har qanday yozuvi mavjud kurslarda uchraydigan s o'zlar va jummalarga avtomatik bog'lanadi. Professor - o'qituvchilar ma'lumotlar ombori yozuvlarini sharxlashga ruxsat berishi mumkin. Shuningdek, yozuvlar professor - o'qituvchilar va talabalar tomonidan baholanishi mumkin. Natijaviy ballar baholar jurnaliga yozilishida birlashtirilishi mumkin. **База данных**dan quyidagi holatlarda ko'proq foydalaniladi:

S Web - havola, kitob, kitobga berilgan taqriz, jurnal havolalari,
bibliografik ro'yxat kabi hamkorlik to'plamlari uchun;

S Yaratilgan surat, plakat, web sayt yoki ertaklarlami talabalar ko'rishlari va o'zaro sharxlashlari uchun.

Семинар (seminar) - o'quv elementi talabalar ishini o'zaro baholash, jamg'arish, ko'rib chiqish hamda taqriz berish imkonini yaratadi. Talabalar o'z ijodiy ishlarini har qanday fayl ko'rinishida taqdim etishlari mumkin. Masalan, **Word hujjati, Excel elektron jadvali**, shuningdek, **matn maydoni** yordamida matn ko'rinishida ham taqdim etishi mumkin. Taqdim etilgan ma'lumotlar bir qancha baholash mezonlari asosida topshiriq bergan o'qituvchi tomonidan baholanadi. Talabalarning bir yoki bir nechta kursdoshlarini baholash vakolatlari mavjud. Taqdim etilgan ishlar va taqrizlar zarur bo'lsa, yashirin holatda bo'lishi mumkin. Talabalar seminar uchun ikkita bahoga ega bo'ladilar. O'zining ishi uchun baho hamda bajargan ishi uchun kursdoshlari tomonidan berilgan baho. Olingan bahoning har ikkisi ham baholash jurnaliga yoziladi.

Опрос (So'rov) - elementi professor - o'qituvchilarga so'rov o'tkazish imkonini beradi. Yaratilgan so'rov tarkibida faqat bitta savol bo'ladi. Javoblar soni

esa istalgancha bo'lishi mumkin. So'rov javoblaridan bir yoki bir necha variantlarini tanlash imkoniyati ham mavjud bo'lib, bu imkoniyat so'rov yaratilish jarayonida belgilanadi. So'rov natijalari belgilangan muddatda keyin namoyon bo'lishi yoki umuman natijalar ko'rsatilmaslgi mumkin. Natijalar talabalar nomi bo'yicha yoki yashirin holda aks etishi ham mumkin.

So'rov quyidagi hollarda foydalaniladi:

S Mavzuni tanlashda tezkor ovoz berish maqsadida;

S Xotirani tezda tekshirish uchun;

S Talabalarning qaror qabul qilishida yordam berish uchun.

Задание (Topshiriq) - o'quv elementi talabalar ishlarini jamlash, baholash va ularni sharxlash hamda o'qituvchilarga kommunikativ topshiriq qo'shish imkonini yaratadi. Talabalar har qanday raqamli fayllarni yuborishlari mumkin. Jumladan, **Word hujjatlari, elektron jadvallar, rasmlar, audio** yoki **video** fayllar. Qo'shimcha yoki yordamchi o'qituvchilar talabalardan javoblarini matn muharriri orqali kirishini talab qilishlari mumkin. Tizimdan tashqarida bajariluvchi yoki raqamli fayl bo'lmagan topshiriqlar ham berilishi mumkin. Bunday hollarda topshiriq javobi matn muharriri orqali topshiriladi. Topshiriq o'qituvchi tomonidan baholanib, faylga javob mulohaza ko'rinishida, talaba yuborgan faylni to'g'rilangan shaklida yoki audio fayl ko'rinishida javob qaytarilishi mumkin. Javoblar ballar, foydalanuvchilaming baholash shkalalari yoki "Ilg'or" uslublar yordamida baholanishi mumkin. Natijaviy ko'rsatkichlar baholar jurnaliga kiritiladi.

Wiki - elementi ishtirokchilarga bog'langan web - sahifa to'plamini yaratish va tahrirlash imkonini beradi. **Wiki** individual (faqat muallif o'zgartira olishi mumkin) va hamkorlik (hamma o'zgartirish huquqiga ega)da yaratilishi mumkin. **Wikida** har bir ishtirokchi tomonidan amalga oshirilgan o'zgarishlarning har bir sahifasi saqlanib qoladi. **Wikidan** quyidagi hollarda foydalanish mumkin:

S Dars yoki qo'llanmalarga guruhli belgi qo' shish uchun;

S Kafedra va fakultet a'zolarining umumiy ishlarini rejalashtirish uchun;

S Murabbiy tomonidan berilgan mavzu bo'yicha talabalar hamkorlikda kitob yaratishlari uchun;

S Har bir ishtirokchi yozgan satrlari yordamida hamkorlikda tarix zarvaraqlarini yozish yoki she'r yaratish uchun;


S Tadqiqotlar yoki to'g'rilashlar natijasida erishilgan belgilar asosida shaxsiy jurnal yaratish uchun (Individual **Wiki** da qo'llaniladi).

SCORM (Sharable Content Object Reference Model, «berilgan ob'yektdan hamkorlikda foydalanish uchun namunaviy modeli») - elementi o'quv ob'yektlari uchun muvofiqlikda kelishilgan standart fayllar to'plamini o'zida mujassam etgan bo'lib, ular arxiv fayl ko'rinishida bo'ladi. **SCORM** paketi bir necha sahifa ko'rinishida bo'lib, fayldan foydalanish davomida fayllar biridan - biriga xarakatlanishi mumkin. Ularning aks etilishi turli xil bo'ladi. Masalan, **qalqib chiquvchi oyna, mundarija** hamda **navigatsion tugmalar** ko'rinishida bo'lishi mumkin. **SCORM** paketida odatda savollar va javoblar mujassam bo'ladi. Javoblar uchun berilgan qiymatlar baholar jurnaliga kiritiladi. **SCORM** paketidan quyidagi hollarda foydalanish mumkin:

S Multimediyali va animatsion fayllarni aks ettirish uchun;

S Baholash uskunasi sifatida.

Kurs resurslarining turi kurs elementlariga qaraganda biroz ozroq miqdori tashkil etadi. Kurs resurslari mustaqil o'rganish uchun asosiy adabiyotlar rolini bajaradi. Kurs resurslarining ro'yxatini quyidagi rasmda ko'rishimiz mumkin:



Kurs resurslari ro'yxati

Папка (Папка) - resursi professor - o'qituvchilarga sahifaga yuklangan bir

necha fayllarni ixcham ko'rinishda ya'ni bir papkada saqlash imkonini beradi. Fayllarni papkada saqlash orqali sahifani yuqoridan - pastga yoki aksincha varaqlashni oldini oladi. **Папка ZIP** - arxiv fayllarini ham yuklash imkoniyati bo'lib, ulardan foydalanishda arxivdan chiqariladi.

Папка quyidagi holatlar uchun qo'llaniladi:

S Bir mavzuga oid seriyali fayllarni yuklash uchun (talabalar loyihalarni PDF yoki grafik formatda taqdim etishida);

S Professor - o'qituvchilar uchun umumfoydalanishga ruxsat etilgan manbalarni saqlash uchun (papkada faqat professor - o'qituvchilar foydalanishlari mumkin bo'lib, papka talabalarga ko'rinmaydi).

IMS - paketi muvofiqlikda kelishilgan standart asosida ixchamlashtirilgan fayllar to'plamini yuklash imkonini yaratib, yuklangan fayllardan turli tizimlarda bir necha marta qayta foydalanish mumkin. Ushbu modul **IMS** - paketini arxiv shaklida yuklash hamda kurslarda resurs kabi foydalanish imkonini beradi. **IMS** paketi bir necha sahifa ko'rinishida bo'lib, fayldan foydalanish davomida fayllar biridan - biriga xarakatlanishi mumkin. Ularning aks etilishi turli xil bo'ladi. Masalan, **qalqib chiquvchi oyna, mundarija** hamda **navigatsion tugmalar** ko'rinishida bo'lishi mumkin. **IMS** paketida tarkibiga asosan multimediyali va animatsion fayllar kiritiladi.

Пояснение (Izoh) - moduli kursning boshqa element yoki resurslariga havola tashkil etish, multimediyali va matnli ma'lumot kiritish imkonini beradi.

Kursning tashqi ko'rinishi yaxshilashda **Пояснение** resursi universal modul hisoblanadi.

Izoh resursidan quyidagi holatlarda foydalanish mumkin:

S Kurs bo'limiga qisqa ta'rif qo'shish uchun;

S Ichki video va audio fayllarni sahifada ko'rish uchun;

S Faoliyatda bajarilgan katta ishlarni bo'limlarga ajratish uchun (sarlavha va rasmi bilan).

Книга (Kitob) - moduli professor - o'qituvchilarga kitobga o'xshash bob va bo'limlariga ega bo'lgan ko'p sahifali resurs yaratish imkonini beradi. **Книга**

resursida bo'limlarga ajratish mumkin bo'lgan ulkan matn yoki media fayllarni ham joylashtirish mumkin.

Книга modulidan quyidagi holatda foydalanish mumkin:

S O'quv materiallarni alohida bo'lim ko'rinishida tasvirlash uchun;

S Ma'lumotnoma sifatida;

S Talabalarga topshirilgan ishning namunaviy andozasi sifatida.

Страница (Sahifa) - moduli professor - o'qituvchilarga matn muharriri yordamida web - sahifa yaratish imkonini beradi. **Страница** moduli matn, rasm, audio, video, web - havola va boshqa turdagi (Masalan: **Google Maps, HTML**) ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin. **Страница** modulidan foydalanishning **Файл** modulidan ko'ra samaradorligi ko'proq hisoblanadi. Materiallarni **Страница** moduliga joylashtirish orqali mobil qurilmalar uchun tezroq ishlashni ta'minlash mumkin. Katta hajmdagi materiallarni joylashtirishda **Страница** moduli o'miga **Книга** modulidan foydalanish tavsiya etiladi.

Страница modulidan quyidagi holatlarda foydalanish mumkin:

S Kurs dasturi rezyumesi yoki kurs muddati va shartlarini e'lon qilish uchun;

S Foydalanilayotgan turli xil video va audio fayllarni izohlash uchun.

Файл (Fayl) - moduli professor - o'qituvchilarga fayllarni kurs resursi sifatida foydalanishga imkon yaratadi. Yuklangan fayllar kurs tarkibida ko'rinadi. Talabalar esa yuklangan fayllarni ko'chirib olish imkoniga ega bo'ladilar. **Файл** moduli tarkibiga **HTML, flash** yoki **grafik** fayllarni ham birlashtirish mumkin. Yuklangan fayllarni ochish uchun talabalar kompyuterida fayllarga mos dasturiy ta'minot bo'lishligi zarur ekanligiga e'tibor berish joiz. **Файл** modulidan quyidagi holatlarda foydalanish tavsiya etiladi:

S Ma'lumotlardan ommaviy foydalanish uchun;

S Kurs resursi sifatida mini - saytlarni birlashtirish uchun;

S Belgilangan dasturiy mahsulotlarda (**psd-Adobe PhotoShop** va x.k.) tayyorlangan fayllarni birlashtirishda. Talabalar mazkur loyihalarni tahrirlab va taqdim etish orqali baho olishlari kerak.

Гиперссылка (URL) - moduli professor - o'qituvchilarga kurs resurs sifatida qo'llaniluvchi web - havolalarini joylash imkonini beradi. **Гиперссылка**lar Internetda himoya qilinmagan ixtiyoriy resursga (Masalan, hujjatlar va rasmlar) bog'langan bo'lishi mumkin. **Гиперссылка** web saytlarning bosh sahifasiga emas balki, aniq web - sahifaga bog'lanishi zarur. Professor - o'qituvchilar resurs sifatida **YouTube, UzDisc, Wikipedia, Gmail** kabi saytlarning ma'lumotlaridan foydalanishlari mumkin. **Гиперссылка**larni aks ettirishni sahifa ichiga joylashtirish va yangi oynada ochish variantlaridan birini tanlashi mumkin. Zarur bo'lganda sahifaga qo'shimcha ma'lumotlarni yuborish mumkin. Masalan, talabani nomi. Shuni ta'kidlash joizki, **URL** - manzillarini faqat mazkur resursda emas balki, matn muharririga ega bo'lgan barcha resurslarga ham qo' shish mumkin.

Kurs yaratish asoslari

Kurs yaratish uchun tegishli kategoriya tanlanadi va **Добавить курс** tugmasi bosiladi. Natijada esa quyidagi rasmda keltirilgan sahifa namoyon bo'ladi:

▼ Общее

Полное название курса*

Краткое название курса*

Категория курса

Доступность

Дата начала курса

Идентификационный номер курса

► Описание

► Формат курса

► Внешний вид

► Файлы и загрузки

► Гостевой доступ

► Группы

► Переименование ролей

Kurslar qo'shish sahifasi

Ko'rib turganimizdek, **Добавить курс** sahifasi sakkizta bo'limdan iborat bo'lib, uning to'ldirilishi zarur bo'lgan asosiy maydonlari quyidagilar hisoblanadi:

1. Общее

S **Полное название курса** - Kurs (fan)ning to'liq nomi. Foydalanuvchilar mazkur nom bo'yicha kursdan foydalanishadi;

S **Краткое название курса** - Kurs (fan)ning qisqa nomi. Tizim mazkur nom bo'yicha kursdan foydalanishadi;

S **Категория курса** - Kurs tegishli bo'lgan kategoriya;

S **Доступность** - Agar bu maydon **Ко'rsatish qiymatiga** teng bo'lsa, mazkur kurs **kurslar ro'yxatida** namoyon bo'ladi. Aks holda esa, kurs yashirin holatga o'tadi;

S **Дата начала курса** - mazkur maydonda ko'rsatilgan sanadan boshlab kurs faollashadi. Berilgan sanagacha kursdan foydalanib bo'lmaydi;

S **Идентификационный номер курса** - bu maydonga kursning **ID raqami** kiritiladi. **ID raqam** faqat butun sonli qiymatni qabul qiladi. **ID raqami Moodle** tizimining ichki funksionaligini oshirish uchun foydalaniladi.

2. Описание

S **Описание курса** - bu maydon kurs haqida qisqacha kirish so'zlari bilan to'ldiriladi;

S **Файлы описания курса** - bu maydonga kurs mazmuni bilan aloqador bo'lgan fayllarni yuklash mumkin. Yuklangan fayllar asosida talabalar yaratilgan kurs haqidagi barcha ma'lumotlarga ega bo'lishlari mumkin.

3. Формат курса

S **Формат - Kurs formati** maydoni yaratilayotgan kursning shaklini belgilab beradi. Kurslar bir elementli, haftalar bo'yicha hamda mavzular bo'yicha turkumlangan bo'lib, bir kurs uchun ulardan faqat bittasini tanlash mumkin bo'ladi. Odatda, kurs shakli mavzular bo'yicha bo'lingani tavsiya etiladi;

S Количество разделов - kurs mavzulari yoki haftalari soni bo'lib, mazkur qiymat 0 va 52 oralig'ida bo'lishi kerak. Mavzu yoki haftalar sonini kurs bilan ishlash, qo' shish yoki o' chirish mumkin;

S Отображение скрытых разделов - yashirin bo'limlarning ko'rinmasligini ta'minlash uchun ushbu maydondan Полностью невидимы qiymatini tanlash kerak;

S Представление курса - ushbu maydon o'zida ikki xil qiymatni qamrab olgan bo'lib, ular Показывать все разделы на одной странице va Показывать один раздел на странице. Birinchi qiymatni tanlash orqali kursning barcha mavzulari bir sahifada joylashadi. Ikkinchi qiymatini tanlash orqali esa har bir mavzu alohida sahifada aks etishini ta'minlashi mumkin.


4. Внешний вид bo'limida kurs uchun foydalanuvchi til, sahifada yangiliklarning soni, talabalarning baholari ko'rsatilishi kabi sozlash ishlari bajariladi.
5. Файлы и загрузки bo'limida yuklanuvchi fayllarning maksimal hajmi belgilanadi.
6. Гостевой доступ bo'limi kursga mehmonlarning kirishi uchun parol qo'yish imkonini yaratadi. Bu bo'limga parol qo'yilganda, kursdan faqat parolga ega bo'lgan talabalar foydalanishlari mumkin bo'ladi.
7. Группы bo'limi orqali mazkur kursdan qaysi guruh a'zolari foydalanishi mumkinligi belgilanadi.
8. Переименование ролей bo'limi foydalanuvchi guruhlarining nomi faqat ushbu kursga moslab qayta nomlash imkonini yaratadi.

Yuqoridagi bo'lim va maydonlardan * belgisi mavjudlarini to'ldirish majburiy hisoblanadi. Qolgan bo'lim va maydonlarni to'ldirish kurs yaratuvchisining xohshiga bog'liq bo'ladi.

Maydonlar kerakli ma'lumotlar bilan to'ldirilgandan so'ng Сохранить и вернуться tugmasini bosish orqali kurs yaratiladi va oldingi sahifaga qaytish mumkin bo'ladi. Сохранить и показать tugmasini bosish orqali esa yaratilgan kurs sahifasiga o'tish mumkin bo'ladi. Kurs yaratishni bekor qilish uchun esa

Отмена tugmasi bosiladi.

Yaratilgan Веб дизайн kursi quyidagi rasmda keltirilgan:




Web dizayn kursi ko'rinishi

Har qanday kurs yaratilganda uning tarkibida Новостной форум elementi mavjud bo'ladi. Новостной форум elementi kursdagi yangliklar bo'yicha kurs ishtirokchilari o'rtasida muzokara qilish uchun xizmat qiladi.


Kursga kurs elementlari va kurs resurslarini qo'shish orqali masofaviy ta'lim tizimini ishchi holatga keltirish mumkin.

Buning uchun kursni yaratgan professor-o' qituvchi Режим редактирования tugmasini bosishi kerak. Natijada kurs sahifasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:



Web dizayn kursini tahrirlash

O - Piktogrammasini bosish orqali mazkur kursning bosh sahifasiga sarlavha hamda kurs haqida qisqa ma'lumotlarni joylashtirish imkonini beruvchi Описание для «Общее» sahifasi namoyon bo'ladi.



Kurs haqida umumiy ma'lumot

Название раздела maydoniga kurs sarlavhasini, Описание maydoniga esa kurs haqida qisqa ma'lumotni kiritib, Сохранить tugmasi bosiladi. Ushbu sahifani tahrirlashni bekor qilish uchun esa Отмена tugmasi bosiladi.

Har qanday kursni yaratishda Общее maydonidan so'ng mazkur kurs

ishtirokchilari uchun Forum yangiliklari nomi ostida forum avtomatik ravishda yaratiladi. Agar ushbu forum kerak bo'lmasa, forumni quyidagi usul orqali o'chirib tashlash yoki yashirin holatga keltirish mumkin.

Forum modulini o'chirish yoki yashirish

Редактировать menyusida joylashgan Скрыть buyrug'i yordamida modulni yashirish, Удалить buyrug'i yordamida esa o'chirish mumkin.

Modullarni sozlash ushuni esa Редактировать настройки bo'limidan foydalaniladi. Mazkur menyuda Назначить роли buyrug'i mavjud resurs va elementlar vazifasi e'tiborga olingan holda foydalanuvchilarni aniqlash mumkin.

Дублировать buyrug'i orqali mazkur moduldan ushbu sohaga nusxasini ko'paytirish mumkin.

Переместить вправо hamda Переместить влево buyruqlari esa mazkur modulni mos ravishda o'ngga yoki chapga surish imkonini beradi.

Har qanday kursga yoki kurs bo'limlariga qo'shilgan barcha kurs resurlari va kurs elementlari ushbu usul yordamida tarirlanadi.

Выберите назначаемую роль

Роль	Описание	Пользователи с ролью
Учитель		0
Ассистент (без права редактирования)		0
Студент		0

Foydalanuvchilarni tayinlash

Foydalanuvchilarni biriktirish uchun qizil chiziq bilan belgilangan sohani bosish yetarli bo'ladi.

Kursga yoki kurs mavzulariga resurs yoki element qo'shish uchun kerakli bo'limdan + Добавить элемент или ресурс tugmasini bosib, zaruriy modul tanlanadi. Bir bo'limga istalgancha element yoki resurs qo'shish mumkin. Avval qo'shilgan modulning ustida bajariladigan amallar yuqoridagi sahifada keltirilgan.

Kurs bo'limlarini hamda kursga yoki kurs bo'limlariga qo'shilgan modullarni biridan - ikkinchisiga olib o'tish uchun quyidagi rasmda qizil chiziq bilan

belgilangan piktogrammalarni sichqoncha yordamida Drag&Drop usulidan foydalanib boshqa bo'limlarga ko'chirish mumkin. Kursga yoki kurs bo'limlariga qo'shilgan modullarning har biri ko'k chiziq bilan belgilangan piktogrammaga ega bo'ladi. Ushbu rasmcha modul nomini o'zgartirish uchun xizmat qiladi. O'ng tarafda joylashgan sariq chiziq bilan belgilangan piktogramma esa mazkur bo'lim va uning tarkibidagi modullarni o'chirish imkonini beradi. Yashil chiziq bilan belgilangan piktogramma mazkur bo'lim va modullarini yashirin holatga keltiradi. Yuqorida joylashgan pushti chiziq bilan belgilangan piktogramma esa mazkur bo'lim ustida ish olib borilayotganini bildiruvchi belgi qo'yadi.

Kursni yaratish jarayonida kursning bo'limlari ya'ni nechta mavzu yoki haftadan iborat ekanligi aniq ko'rsatiladi. Bu esa yaratilgan kurs aniq qiymatda bo'lingan bo'ladi. Ba'zi hollarda kursga yangi mavzu qo'shish yoki ortib qolganini o'chirish zarur bo'ladi. Ushbu masala yuzasidan qo'shimcha bo'lim qo'shish yoki ortganini olib tashlash uchun kurs sahifasining quyida joylashgan va tugmalardan mos holatda foydalanish mumkin.

Режим редактирования tugmasini bosish bilan nafaqat kurs bo'limlarini sozlash va kursga zaruriry element yoki resurs qo'shish, balki kursdan foydalanayotgan ishtirokchilar uchun qo'shimcha bloklar qo'shish va ularni tahrirlash ishlarini ham bajarish mumkin.

Kursga doir bo'lgan bloklarning bir qancha turi bo'lib, ularning umumiy ro'yxati quyida keltirilgan:


- ^ HTML
- S Личные файлы
- S Люди
- S Закладки администратора
- S Искатель сообщества
- S Календарь
- S Комментарии
- S Курсы
- S Обмен сообщениями

- S Описание курса/сайта
- S Пользователи на сайте
- S Внешние RSS - ленты
- S Подопечные
- S Меню блога
- S Мои последние значки
- S Текущий пользователь
- S Теги
- S Теги блога
- S Случайная запись из глоссария
- S Самостоятельное отслеживание завершения
- S Состояние завершения курса
- S Свежие записи блога
- S Ссылки на разделы
- S Результаты элементов курса
- S Элементы курса

Ushbu ro'yxatda nomlari keltirilgan bloklarni kursga qo'shish huquqi faqat kurs mualliflariga berilgan bo'lib, mazkur bloklardan talabalar faqat foydalanishlari mumkin.

Kurs elementlari bilan ishlash

Avvalgi bo'limda kurs elementlari va kurs resurslari hamda ularning bajaradigan vazifalari bilan batafsil tanishib chiqildi. Ushbu bo'limda esa kurs elementlarini yaratish va ular bilan bajariladigan barcha amallarni o'rganamiz.



Qo'shish oynasi.

Страница - modulini yaratish uchun kurs yoki kurs bo'limlarida mavjud tugmasi bosiladi. Natijada kurs elementi hamda kurs resurslarini tanlash oynasi aks etadi. Mazkur oynaning Страница modulini tanlab, Добавить tugmasini bosish orqali Добавить страница в тема 1 sahifasini ochish mumkin.

Добавить Страница в Тема 1

Развернуть всё

▼ Общее

Название*

Описание

HTML belgilash tili ga kirish

Путь: p

Добавить Файл в Тема 1 ф

Общие

Название* Руководство

Описание

Шрифт Размер

Описание Web-Дизайна

Путь: p

Отображать описание / вступление на странице курса

Содержимое

Выберите файлы

Минимальный размер для новых файлов: неограничено

Файлы

Описание

Внешний вид

Способ отображения Автоматически

Выводить размер

Выводить тип

Выводить описание ресурса

Показать больше ...

Общие настройки модуля

Ограничить доступ

Сохранить и вернуться к курсу Сохранить и показать Отмена

Обязательные для заполнения поля в этой форме помечены *

Добавить файл sahifasi

Добавить файл sahifasining maydonlarini to'ldirish. Добавить Страница sahifasiga o'xshash bo'lib, u faqatgina quyidagi o'zgarishlar bilan farqlanadi.


Ushbu modul turli tipdagi fayllar bilan ishlash qobiliyati mavjud bo'lganligi uchun ham unga fayllarni yuklash talab etiluvchi maydoniga ega. Ushbu maydonga fayllarni yuklash ikki xil usulda amalga oshirilishi mumkin. Birinchi usuli sichqoncha yordamida Drag&Drop usuli orqali, ikkinchisi esa maydondagi Добавить tugmasini bosish orqali.

Foydalanuvchilar yuklangan fayl qanday hajm va kengaytmaga ega ekanligini oldindan bilishlarini ta'minlash uchun maxsus Выводить размер hamda Выводить тип maydonlariga belgi qo'yish tavsiya etiladi.

Kerak sozlash ishlari nihoyasiga yetkazilgandan so'ng Сохранить и вернуться к курсу tugmasini bosish mumkin.

Лекция - modulini yaratish uchun Добавить элемент или ресурс tugmasi

bosiladi. Oynadan Лекция modulini tanlab, Добавить tugmasini bosish natijasida Добавить лекция sahifa hosil bo'ladi:








Добавить Лекция в HTML bo'limlari bilan tanishish. 

[Развернуть всё](#)

Общее


Название*

Описание

Абзац **B** *I* U ~~ABC~~       

HTML tilda yaratilgan sahifa qanday qismlardan tashkil topishi ko'rib chiqiladi.

Путь: p

Отобразить описание /
вступление на странице
курса 

Внешний вид

Доступность

Контроль прохождения

Оценка

Общие настройки модуля

Ограничить доступ

[Сохранить и вернуться к курсу](#) [Сохранить и показать](#) [Отмены](#)

Обязательные для заполнения поля в этой форме помечены *

Добавить Лекция sahifasi

Лекция moduli asosiy kurs elementlaridan biri hisoblanganligi uchun ham uning sahifalarini to'ldirish qolgan modullarni to'ldirishdan farq qiladi. Barcha modullar bilan ishlashda Общее, Общие настройки модуля va Ограничить доступ bo'limlarini to'ldirish qoidalari bir xil kechadi.

Лекция moduliga bog'liq bo'lgan maxsus bo'limlarni to'ldirish tartibi va maydonlar vazifalari bilan quyidagi rasmlardan foydalangan holda ko'rib chiqamiz.

Отображать индикатор выполнения ?	Да ▼
Отображать текущий балл ?	Да ▼
Показывать меню ?	Да ▼
Минимальная оценка для отображения меню лекции ?	0% ▼
Слайд-шоу ?	Да ▼
Максимальное количество ответов/переходов ?	4 ▼
Использовать комментарий по умолчанию ?	Нет ▼
Ссылка на следующий элемент курса ?	Пусто ▼

Внешний вид bo'limi

Внешний вид bo'limining maydonlari quyidagi vazifalarni bajaradi:

- S Отображать индикатор выполнения - maydoni Да qiymatiga teng bo'lsa, o'zlashtirilgan Лекция darslariga o'zlashtirilganlik haqida belgi qo'yiladi.
- Отображать текущий балл - maydoni Да qiymatiga teng bo'lsa, talaba faoliyati davomida jamlagan ballarini ko'rish imkoniga ega bo'ladi. Aks holda esa talaba mazkur modulni yakunlagandan so'ng natijalarini ko'rishi mumkin.
- S Показывать меню - ushbu parametr yoqilgan bo'lsa, talabalar Лекция tarkibidagi sahifalar bo'yicha harakatlanish imkonini beruvchi menyudan foydalanishga ega bo'ladilar.
- S Минимальная оценка для отображения меню лекции - talabalarga ma'ruza menyusi namoyon bo'lib turishi uchun ushbu maydonga kiritilgan

ballar miqdoriga ega bo'lishlari kerak.

S Слайд - шоу - ushbu parametr ma'ruza modulini slayd - shou shaklida aks etishiga javob beradi.

S Максимальное количество ответов/переходов - ushbu maydonga kiritilgan miqdorda savollar uchun javob variantlarini tuzish mumkin bo'ladi.

S Использовать комментарий по умолчанию - ushbu parametr yoniq bo'lsa, berilgan javoblarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi haqida izoh aks etadi.

S Ссылка на следующий элемент курса - ushbu parametr kursning kerakli elementiga o'tish imkonini beruvchi havola namoyon bo'lishini ta'minlaydi.

Доступность bo'limining maydonlari quyidagi vazifalarni bajaradi:

S Лекция доступна с - mazkur parametr faollashtirilsa, ma'ruzadan belgilangan sana va vaqtdan boshlab foydalanish mumkin.

S Лимит времени - bu parametr ma'ruzadan foydalanishning oxirgi vaqtini belgilaydi.

S Защитить лекцию паролем - bu parametr faollashtirilsa, ma'ruzadan foydalanish uchun paroldan foydalanish mumkin. Parol professor - o'qituvchi tomonidan o'rnatiladi.

S Пароль - mazkur moduldan foydalanish uchun kiritilish zarur bo'lgan maxfiy kod.

Контроль прохождения bo'limining maydonlari quyidagi vazifalarni bajaradi:

S Разрешить студентам повторное прохождение - ushbu maydon Да qiymatiga teng bo'lsa, talabalar qayta o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladilar.

S Давать возможность повторно ответить на вопрос - bu parametr ma'ruza savollariga qayttadan javob berish imkonini yaratadi.

S Максимальное количество попыток - bu maydon qiymati savollarga javob berish uchun urinishlar sonini belgilaydi.

Оценка ⓘ	Тип	Балл ▼
	Шкала	Separate and Connected ways of knowing ▼
	Максимальный балл	100
Категория оценки ⓘ		Без категории ▼
Проходной балл ⓘ		56
Тренировочная лекция ⓘ		Нет ▼
Баллы за каждый вариант ответа ⓘ		Да ▼
Разрешить повторное прохождение ⓘ		Да ▼
Обработка результатов попыток ⓘ		Максимальная оценка ▼
Минимальное количество вопросов ⓘ		10 ▼

Оценка. Baholash bo'limi

Оценка - bo'limining maydonlari quyidagi vazifalarni bajaradi:

S Оценка - bu parametr baholash tizimi turini tanlash imkonini yaratadi.

- > Тип - ma'ruza modulini baholashning Отсутствует, Балл va Шкала turlarining biridan foydalanish mumkin.
- > Отсутствует turidan foydalanish orqali mazkur modulni o'zlashtirilganlik uchun baho berilmaydi hamda Шкала va Максимальный балл maydonlari nafaol holatga o'tadi;
- > Балл turidan foydalanish orqali esa modulni o'zlashtirish uchun beriladigan eng yuqori ballni belgilash mumkin. Baholashning Балл turidan foydalanilganda, Шкала maydoni nafaol holatga o'tadi;

S Шкала turidan foydalanilganda esa mavjud shkala bo'yicha baholanadi. Baholashning bu turidan foydalanilganda, Максимальный балл nafaol holatga o'tadi.

S Проходной балл - ushbu maydonga o'tish balining minimal qiymati kiritiladi.

S Тренировочная лекция - ushbu parametrni faollashtirish orqali ma'ruzani sinov uchun faollashtirish mumkin. Ushbu turdagi ma'ruzada olingan natijalar baholar jurnaliga kiritilmaydi.

S Баллы за каждый вариант ответа - bu maydonga har bir javob variantlariga beriladigan ball miqdori kiritiladi.

S Разрешить повторное прохождение - bu parametr faollashtirilsa qayta o'zlashtirish imkoni beriladi.

S Обработка результатов попыток - bu parametr urinishlar natijasida olingan ballarning maksimal yoki o'rtacha qiymatini hisobga olishni tanlash imkonini beradi.

S Минимальное количество вопросов - bu maydonga ma'ruzada javob berilishi kerak bo'lgan savollar soni kiritiladi.

Barcha bo'limlarning maydonlari tegishli ma'lumotlar bilan to'ldirilgandan so'ng, Сохранить и вернуться к курсу tugmasini bosish orqali ma'ruza mashg'uloti yaratiladi.

Yaratilgan ma'ruzaga o'quv materiallarni joylashtirishning bir qancha usuli bo'lib, ulardan istalgancha hohlagan tartibda foydalanish mumkin. Ma'ruza elementi asosan axborot va savollar sahifalaridan iborat bo'ladi. Ushbu elementga ma'lumot qo'shishning quyidagi usullari mavjud:

1. Импортировать вопросы - Savollarni import qilish.
2. Добавить информационную страницу/оглавление раздела - Axborot sahifasini qo'shish/bo'lim sarlavhasi.
3. Добавить кластер - Klaster qo' shish.
4. Добавить страницу с вопросом - Savolga ega bo'lgan sahifa qo' shish.

Добавить страницу sahifasi

Bilamizki, barcha ta'lim tizimlarida talabalarni mavzu bo'yicha materiallar bilan ta'minlash vazifasi ma'ruza mashg'ulotiga birlashtirilgan. O'rganilayotgan element ham xuddi ushbu vazifani bajaradi. Ma'ruza elementining materiallar bilan ta'minlovchi qismi Добавить информационную страницу/оглавление раздела sahifasi hisoblanadi.

HTML sahifalari bilan ishlash

► Развернуть всё

▼ Добавить информационную страницу / оглавление раздела

Заголовок страницы*

Hujjat tuzilishi

Содержание страницы

Абзац B I [List Icons] [Link Icon] [Image Icon] [Table Icon] [Table Icon]

Internetning WWW xizmati kundan-kunga rivojlanib, mukammal ma'lumotlar manbasiga aylanib bormoqda. Uning yordamida istalgan soxada, istalgan mavzuda va istalgan vaqtda ma'lumotlarni qidirib topish, ulardan foydalanish, zarur bo'lsa ulardan nusxa olish mumkin. Internetning ushbu xizmat turidan foydalanish uchun avvalo mijoz kompyuterida huddi shunday imkoniyatlarni yaratib beruvchi maxsus dastur ta'minoti bo'lishi zarur. Bunday dastur ta'minoti brauzer (Browsers) deb ataladi.

~~~~~

Eng birinchi brauzer CERN (Evropa Fizika Tadqiqotlari Markazi) hodimi Tim Berner tomonidan kashf qilingan. AQSHning NSCA (Milliy Super Hisoblash Markazi) hodimi Mark Andriesson va bir nechta talabalar tomonidan ishlab chiqilgan Mosaic brauzeri esa grafik ma'lumotlarni ekranda aks ettira oluvchi birinchi brauzer bo'lgan.

Brauzer inglizcha so'z bo'lib, ko'rinishni ta'minlash, ko'rsatish ma'nosini anglatadi.

Dunyoda eng ko'p foydalaniladigan brauzerlar Netscape Communication Navigator va Internet Explorer lar hisoblanadi.

Bugungi kunda Netscape hamda Internet Explorer dan tashqari yana ko'plab Opera, FMSD Friada, MSICE, Web celerator, AtGuard, AdWiper kabi brauzerlar mavjuddir. Brauzerlarga qo'yiladigan asosiy talablardan biri, bu internetning WWW

Путь: p

Расположить кнопки горизонтально?

Показывать в меню?

▼ Содержимое 1

Описание\*

Hujjat tanasi

Переход

Следующая страница

► Содержимое 2

► Содержимое 3

► Содержимое 4

*Добавить информационную страницу/оглавление раздела sahifasi*

Ushbu sahifa bo'lim va maydonlari quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

S Заголовок страницы - sahifa sarlavhasi.

S Содержание страницы - sahifa matni.

S Содержимое - Mundarijaning birinchi rejasi.


Описание - Birinchi reja sarlavhasi.

Переход - birinchi reja tugmasini bosgandan keyin aks etuvchi sahifa.

Ma'ruza mashg'ulotining har bir sahifasida kamida bir dona, ko'pi bilan to'rt dona reja vazifasini bajaruvchi tugmalar joylashtiriladi.

Ma'ruza elementi uchun savollarni import qilishda Импортировать вопросы sahifasidan foydalaniladi. Moodle tizimi Cloze, Alken, Blackboard, Examview, Gift, Moodle XML, WebCT kabi bir qator fayllarni o'ziga import qilish imkoniga ega.

Savollarni import qilish uchun savol formatlaridan birini tanlab, savol faylini yuklash orqali amalga oshiriladi.



### ***Импортировать вопросы sahifasi***

Ma'ruza elementida o'zlashtirilganlik darajasini aniqlashda savollardan foydalaniladi. Savollar va uning javoblari test shaklida bo'lib, uni tashkil etish quyidagi rasmda keltirilgan tartibda amalga oshiriladi.

### ***Выберите тип вопроса sahifasi***

Sahifani yaratishdan avval quyidagi oynadan savol turini tanlash kerak. Множественный выбор - ushbu turdagi savolda bitta yoki bir nechta to'g'ri javoblar bo'lishi mumkin, har bir savolga berilgan javobga ballar ma'ruza mashg'ulotiga ajratilgan umumiy ball va undagi savollar soniga qarab belgilanadi.

Har bir to'g' ri va noto'g' ri variantli javoblarga izohlar qo' shish mumkin.

Краткий ответ - bu turdagi savolga javob talaba tomonidan maxsus matn maydonini to'ldirish orqali bajariladi. Savolning bu turi test shaklida emas, balki savol - javob shaklida olib boriladi.

Числовой - bu turdagi savolni tashkil etish Краткий ответ shakli bilan deyarli bir xil bo'lib, faqat bunda javob faqat raqam va sonlardan iborat bo'lishi kerak.

*Добавить страницу с вопросом sahifasi*

### **Yaratilgan kursga talabalarni qo'shish**

Mazkur ta'lim tizimida yaratilgan kursdan talabalar foydalanishlari uchun ularni kursga talaba sifatida kurs tarkibiga qo'shish darkor. Buning uchun kursning Настройки blokidan quyidagi bo'limga kirish kerak.

## ▼ Управление курсом

У Режим редактирования

И} Редактировать настройки



Пользовател курс

и

Ит Записанные на

пользователи







► Способы записи на курс

## ***Настройки bloki***

### Записанные на курс пользователи

[Запись пользователей на курс](#)

Найти  Способы записи на курс  Роль  Группа   
Статус  Фильтр Очистка

| Имя / Фамилия <sup>▲</sup> / Индивидуальный номер / Адрес электронной почты / Телефон / Мобильный телефон / Отдел / Учреждение (организация)                                                                                                                                                                                               | Последний доступ к курсу | Роли                                     | Группы                                                                                | Способы записи на курс                                                                                                                                                                                                            |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------|------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|  Axmadaliyev Jaxongir<br> jaxmadaliyev@gmail.com<br> +998902324148<br>AT<br>AndMI | сейчас                   | Учитель ✕ Управляющий<br>Создатель курса |  |  Зачисление вручную с четверг, 8 Октября 2015, 00:00  ✕ |

[Запись пользователей на курс](#)


Ushbu bo'limga kirish natijasida quyidagi sahifa namoyon bo'ladi:

### ***Записанные на курс пользователи sahifasi***

Ushbu sahifada kursga a'zo bo'lgan barcha foydalanuvchilar ro'yxatini ko'rish mumkin. Kursga a'zo bo'lgan foydalanuvchilarni Способы записи на курс, Роль, Группа, Статус kabi parametrlar bo'yicha izlash va saralash imkoniyati mavjud bo'lib, bu funktsiya turli parametrlar bo'yicha zaruriy foydalanuvchilarni izlab toppish va saralash uchun xizmat qiladi. Birinchi ustundagi Имя / Фамилия/ Индивидуальный номер / Адрес электронной почты / Телефон/ Мобильный телефон / Отдел / Учреждение (организация) parametrlar bo'yicha foydalanuvchilarni saralash mumkin. Последний доступ к курсу ustunida foydalanuvchining oxirgi marta tizimga kirgan vaqti aks etadi. Роли ustunida esa foydalanuvchilar tegishli bo'lgan guruhlar ro'yxati namoyon

bo'ladi. Группы ustuni yordamida foydalanuvchini mavjud guruhlariga a'zo qilish mumkin. Способы записи на курс ustunida esa foydalanuvchilar kursga a'zo bo'lgan usulining nomi va vaqti aks etadi hamda mazkur ustundagi ikonkasi yordamida kursdan foydalanuvchi foydalanish mumkin bo'lgan vaqt, ikonkasi yordamida esa foydalanuvchini kurs tarkibidan o' chirib imkonini beradi.

Kursga turli guruhlar bo'yicha foydalanuvchilarni qo'shish uchun Запись пользователей на курс tugmasini bosish kerak. Natija quyidagicha modul oynasi namoyon bo'ladi:



### ***Записать пользователей на курс oynasi***

Ushbu oynada tizimga a'zo bo'lgan barcha foydalanuvchilar ro'yxatini ko'rish mumkin. Kursga foydalanuvchilarni qo'shish uchun Назначить роли maydonidan tegishli guruh tanlanadi hamda foydalanuvchi nomi qarshisida joylashgan Записать tugmasini bosish kerak. Kursga qo'shilishi kerak bo'lgan foydalanuvchilarni oynaning pastki qismida joylashgan qidiruv maydoni orqali izlash mumkin. Foydalanuvchilarni qo'shish jarayoni yakunlanganidan so'ng Оканчание записи пользователей tugmasini yoki oynaning yuqori qismida joylashgan tugmasini bosish kerak.

## Kursga oqim va guruhlar qo'shish

Mazkur ta'lim tizimini kurslarga a'zo bo'lgan talabalarni akademik guruhlar va oqimlar bo'yicha tartiblash imkoniyati ham mavjud bo'lib, buning uchun kursning Настройки blokidagi Группы bo'limga kirish kerak.

▼ Управление курсом ✓ \* Режим редактирования

■ft Редактировать настройки

"\* ■ Пользователи

^Записанные на

курс

пользователи

► Способы записи на курс

Группы

### *Группы bo' limi*

Hosil bo'lgan sahifa Группы (Guruhlar), Поток (Oqimlar) va Обзор (Ko'zdan kechirish) bandlaridan iborat bo'lib, guruh yaratishdan oldin oqimlarni yaratish maqsadga muvofiqdir.

Группы Поток Обзор

|               |        |               |
|---------------|--------|---------------|
| Поток         | Группы | Элементы      |
| Создать поток |        | курс Редактир |

Потоки

## *Потоку sahifasi*

Kurs tarkibida oqim yaratish uchun Создать поток tugmasini bosish kerak. Natijada quyidagi sahifa namoyon bo'ladi:

**Создать поток**  
▼ Общее

---

Название потока\*

ID потока

Описание потока

Абзац

B I

☰ ☷

🔗 🔄

🖼️ 📄 📁

Путь: р

**Сохранить** **Отмена**

## *Создать поток sahifasi*

Yuqoridagi sahifadan ko'rinib turibdiki, oqim yaratishda Название потока maydoniga oqim nomini, Описание потока maydoniga esa oqim haqida qisqacha izoh yozish yetarli bo'ladi.

Tizimda oqim yaratish jarayoni yakuniga yetgandan keyin esa guruh



## *Группы sahifasi*



yaratish jarayonini boshlash mumkin. Guruh yaratishning uch xil usuli bo'lib, ular Создать группу (guruh yaratish), автосоздание групп (guruhlarni avtomatik yaratish) va Импортировать группы (guruhlarni import qilish).

Guruh yaratishning oddiy usuli orqali bir paytning o'zida faqat bur dona guruh yaratish nunkin. Bu usul orqali guruh yaratish uchun Название группы (Guruh nomi), Описание группы (Guruh haqida izoh), Новое изображение (Guruh tasviri) maydonlarini zaruriy ma'lumotlar bilan to'ldirib, Сохранить (Saqlash) tugmasini bosish kerak.

Название группы\* Необходимо заполнить

ID группы ?

Описание группы


Абзац ▾ **B** *I* ☰ ☷ 🔗 🌐 📷 📺 📄

Путь: p

Кодовое слово ?   Показать

Скрыть изображение  ▾

Новое изображение ? Выберите файл...




Для загрузки файлов перетащите их сюда.

Сохранить Отмена

***Создать группу sahifasi***

Guruh yaratishning avtomatik usuli orqali bir paytning o'zida bir nechta guruh yaratish mumkin. Bu usul orqali guruh yaratish uchun Шаблон название (Qolib nomi), Количество групп/участников (Guruhlar/foydalanuvchilar soni), Распределить участников (Foydalanuvchilarni taqsimlash) maydonlarini zaruriy ma'lumotlar bilan to'ldirib, Отправить (Yuborish) tugmasini bosish kerak.

Шаблон названия\* 

Создавать автоматически, взяв за основу

Количество групп/участников\*

▼ Участники группы

---

Выбрать участников с ролью

Выбрать членов из потока

Распределить участников

Предотвратить создание маленькой последней группы

Игнорировать пользователей в группах

► Поток

---

### *Автосоздание групп sahifasi*

Guruh yaratishning import qilish usuli orqali ham bir paytning o'zida bir qancha guruh yaratish imkoiyati mavjud. Bu usulning avtomatik guruh yaratish usulidan farqi shuki, yaratilishi kerak bo'lgan guruh ro'yxati matnli fayllardan yuklanadi. Bu usul orqali guruh yaratish uchun Импорт (Import qilish) maydonini zaruriy ma'lumot bilan to'ldirib, Импортировать групп (Guruhlarni import qilish) tugmasini bosish kerak.



### ***Импортировать группы sahifasi***

Mazkur kurs uchun yaratilgan oqimlar va tashkil etilgan guruhlar hamda ularga a'zo bo'lgan foydalanuvchilar haqida batafsil ma'lumot olish uchun mazkur bo'limning Обзор sahifasidan foydalanish mumkin. Bu sahifa oqimlar hamda guruhlar kesimida foydalanuvchilarni saralash va oqim tarkibiga kiritilmagan guruhlar haqida ham ma'lumot beradi.

Группы   Поток   **Обзор**

### **Informatika va AT - EEE Обзор**

Поток   Группа  
 Фильтр групп по: Все   ▾   Все   ▾

### **EEE 1-oqim**

1-kurs EEE yo'nalishing 1-oqimi

| Группы (0) | Участники группы | Количество участников |
|------------|------------------|-----------------------|
|            |                  |                       |

### **[Группа вне потока]**

| Группы (1) | Участники группы | Количество участников |
|------------|------------------|-----------------------|
| 171-15     |                  | 0                     |


### **Bob bo'yicha mustahkamlash va nazorat savollari**

1. Moodle tizimi haqida tushuncha bering.
2. LMS tizimi haqida nimani bilasiz?
3. Tasviriy san'at darslarida Moodle tizimining o'rni?
4. Masofaviy o'qitish bu?

5. Masofaviy o'qish bu?
6. Masofaviy ta'lim bu?
7. Masofaviy ta'limning salbiy va ijobiy tomonlari haqida fikringizni bildiring.
8. WEB muhiti deganda siz nimani tshunasiz?
9. LMS tizimlari funksiyalarini tshuntiring.
10. SCORM paketi haqida ma'lumot bering.

### III - BOB. O'QITUVCHINING IJODIY ISHLARI. TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA TABAQALASHTIRIB O'QITISH

---



*O'quv-tarbiya ishida o'qituvchining roli va o'rni. O'quvchilarni tayyorlashda tasviriy san'atni o'qitishning pedagogic shart-sharoitlari. O'quvchilarni tayyorlashda tasviriy san'at o'qitish metodikasi. Tasviriy san'atni o'qitish texnologiyasida didaktika va metodika. Tasvirlashning asosiy qonun – qoidalari. O'quvchilarni tayyorlash jarayonida tasviriy san'atning zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish metodikasi. Talabaning bilimdonligi. ArtRage dasturi. Tasviriy san'atdan tajriba – sinov ishlarini tashkil etish. O'zbekistonning taniqli rassom, professor – o'qituvchilarining tasviriy ijodiy ishlari. Tabaqalashtirilgan ta'lim. Pedagogika fanining ta'limni tabaqalashtirish bo'yicha ichki imkoniyatlari. Bob bo'yicha mustahkamlash va nazorat savollari.*

#### **O'quv - tarbiya ishida o'qituvchining roli va o'rni**

Tasviriy san'at o'qituvchisi eng avvalo o'z fanlaridan o'quvchilarga ta'lim, tarbiya va rivojlantiruv vazifalarini beradi. Bu o'qituvchining asosiy maqsadi. Shuningdek mazkur o'quv fanlarini o'qitishda narsalarni e'tibor bilan ko'rishga, predmetlar shakli, rangi va mohiyatini tahlil qilishga o'rgatadi.

Tasviriy san'at o'qituvchisi o'quvchilarga kuzatishni, idrok etishni, narsa va voqealarga diqqat bilan e'tibor berishni o'rgatadi.

Tasviriy san'at o'qituvchisi tasviriy san'at darsi va mashg'ulotlarni tashkil etadi. Bu mashg'ulotlarni tashkil etish juda murakkab. Chunki har bir dars uchun mutaxassislik kabinetida 20 - 25 o'quvchi uchun to'la o'quv qurollari, didaktik materiallarni tayyorlashi lozim. Turli mazmunda ko'rgazmali qurollarni hozirlash kerak va o'quvchi idrok qilgan, ko'rgan narsasini rasmini chizishi zarur. Yana shuni aytish joizkim, maktab tasviriy san'at darsi 5 turda, 5 xilda, 5 xarakterda tashkil etiladi. Bunday xilma - xil darslarni tashkil etish va o'tkazish ancha qiyinchiliklar yaratadi. Uni ishi juda ko'p. Shu boisdan dars materiallarni murakkabligi darslarga o'qituvchini puxta tayyorgarlik ko'rishini talab etadi. Tajribakor o'qituvchi hamma ishlarga vaqt topadi. O'qituvchi darsni tashkil qilishdan boshlab, uni oxirigacha o'z aktivligi bilan amalga oshiradi. O'qituvchi

darsga tayyorgarlikdan boshlab uni o'quvchilarga oson, qisqa, asosli etkazishga harakat qiladi. O'qituvchi dars jarayonida har bir o'quvchi bilan individual ish olib borishi lozim. O'qituvchi yaxshi rasm chizishi uni sinf doskasida yoki uyda tayyorlagan bosqichli rasmlarida ifodalab berish, ko'rsatishi lozim. O'qituvchi darsni tashkil etishda barcha narsalarga e'tibor berib, hamma kamchiliklarni darsni boshlanishidanoq to'g'rilab olish kerak. Darsni olib borishda har bir etapiga to'g'ri amal qilishi zarur. Ajratilgan har bir minutlardan unumli foydalanish lozim. O'quvchilar bilimini tekshirishdan boshlab, uyga vazifa berishgacha bo'lgan davrdagi hamma o'quv - tarbiya ishlarini amalga oshirish zarur.

Shuningdek, o'quvchini rasm chizishda mustaqil ishlashga, undan tashabbusga va undan ijodkorlikka boshlovchi pedagogdir. O'qituvchi rasm chizishga o'rgatish bilan birga o'quvchilarga go'zallik - estetik tarbiya beradi. Mehnatga, ijodga, o'z o'lkasiga, Vataniga, xalqiga muhabbatli bo'lishiga o'rgatadi. Tasviriy san'at o'qituvchisi bolalarga halol, pok, iymonli, to'g'ri so'zli, e'tiqodli bo'lish his - tuyg'ularini singdirib, ularni Buyuk ma'naviyat sari boshlaydi. Bularni bajarish va amalga oshirishda o'qituvchi shaxsiy tashabbusi bilan faoliyat kursatadi.

Xorij manbalarida talabalardagi kasbiy sifatlarni shakllanishi muammosini tadqiq qilishga nisbatan ikkita yo'nalish ko'rsatib o'tilgan: birinchisi, kasbiy taraqqiyotga, shaxsning o'z ustida ishlashiga yo'naltirilgan, ikkinchisi esa, kasbiy shakllanishning ijtimoiy tomonlari va omillariga yo'naltirilgandir.

Masalan, M. Argayl 1970 yillarning boshlaridayoq talabalardagi kasbiy sifatlarni va individning kasbiy shakllanishi orasidagi bog'liqlik haqida yozib qoldirgan. Shu bilan bir qatorda bo'lajak mutaxassisning kasbiy shakllanishi o'zida quyidagilarni mujassamlashtirgan murakkab jarayon sifatida ko'rib chiqilgan: kasbiy treninglar, faoliyatni amalga oshirishga nisbatan qo'yiladigan talablar va standartlarni o'zlashtirish, guruh doirasida xulq - atvor normalarini tushunish. Aynan mehnat jamoasidagi boshqa shaxslar bilan o'zaro hamkorlik individga o'zi egallab turgan kasbning aniq standartlarini o'zlashtirish imkonini beradi. Kasbiy me'yorlarga amal qilish individdagi kasbiy sifatlarni o'zida tarkib toptirishga va

o'z mavqeini uzoq vaqt saqlab turishga zamin hozirlaydi. Shunday ekan, talabada muayyan bir kasbga qo'yiladigan talablar asosida muhim kasbiy sifatlarni shakllanishiga, bilim, ko'nikma, malakalarni tarkib topib borishiga zamin hozirlanishi lozim.

R. Finchman ishlarida asosiy e'tibor kasbni egallash jarayonida, ya'ni talabalarni kasbga tayyorlash davomida kasbiy talablar, axloqiy normalar, qadriyatlarni anglashga qaratiladi. Kasbiy sifatlarning shakllanish jarayoni talabaga kasbiy o'z - o'zini boshqarish imkonini beruvchi kasbiy taraqqiyotni ta'minlaydi.

K. Mak - Goven va L. Xartlar asosiy urg'uni o'z tarkibiga kasbiy rollarni amalga oshirish va yangi qadriyatlarni, ustanovkalarni va kasbiy sifatlarni tarkibini rivojlanishi uchun talab etiladigan maxsus bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni qamrab oluvchi ijtimoiy o'rganish jarayoniga qaratadilar. Pedagoglarning kasbiy shakllanishini tadqiq qilish natijasida quyidagicha tahliliy xulosaga kelingan: pedagog-talabalar tanqidiy tafakkur, shaxslararo munosabatlar, nizolarni bartaraf etish kabi sohalar yuzasidan maxsus bilim, ko'nikmalarni o'zlashtirishlari, qolaversa, kompyuter texnologiyalari va turli zamonaviy pedagogik metodlarni qo'llay olishlari zarur.

E.N. Kiryanova talabalardagi kasbiy sifatlarni o'zgaruvchan kasbiy sharoitlarda ko'nikma va malakalarni shakllanganlik darajasi va keyinchalik kasbiy o'sish bilan shartlangan, muayyan bir bosqichda sub'ektning kasbiy mahorat darajasiga erishishni ta'minlovchi individual belgi, kasbiy shartlar va kasb mazmunining barqaror muvofiqligi sifatida tavsiflaydi. Olima tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, talabalardagi kasbiy sifatlarni integral xarakterga ega va bo'lajak mutaxassislarining o'zgacha madaniyat doirasidagi kasbiy faoliyatga moslashishlarini universal asosi hisoblanadi. Bu kasbiy sifatlarning ko'p komponentli ekanligi haqidagi xulosani keltirib chiqaradi. Shaxsdagi kasbiy mahoratning yuqori darajasi bilan bir qatorda yangicha sharoitdagi ish joyida ko'nikma va malakalarni qo'llash qobiliyati tarkibiga kommunikativ qobiliyatlar, emotsional - irodaviy sohaning shakllanganligi,

faollik, sobitqadamlik, keskinlik, stressga barqarorlik, qolaversa, mehnat jamoasining axloqiy normalariga amal qilish kiradi.

Yuqoridagilarni hisobga olib, talabalardagi kasbiy identifikatsiyani o'zida kasblar dunyosiga yo'nalganlik va o'zaro ta'sirni ta'minlovchi, kasbiy faoliyatda shaxsning potensialini to'liq amalga oshiruvchi, qolaversa, tanlangan kasbning natijasini hamda taraqqiyot yo'nalishini oldindan ko'ra biluvchi shaxsning kognitiv, motivatsion va axloqiy xarakteristikalarini mujassamlashtirgan integrativ tushuncha deb hisoblasak bo'ladi. Muayyan bir axloqiy va motivatsion tizimdagi, qolaversa, shaxsiy kasbga nisbatan sub'ektiv munosabatlar bilan hamohang tarzda kechuvchi shaxsning mehnat jamoasida tutgan o'rni haqidagi tasavvurlari kasbiy identifikatsiyaning asosini tashkil qiladi. Bu g'oyalar talabalardagi kasbiy identifikatsiya kognitiv - motivatsion va axloqiy komponentlar bilan yaxlitlikni tashkil qilishi ko'rsatib berilgan va empirik tadqiqotlarda o'z isbotini topgan.

Kasbiy identifikatsiyaning kognitiv komponentiga nisbatan an'anaviy yondashuv D.N. Zavalishinaning yozishicha, talabalarning mutaxassislar guruhidagi normalar, qadriyatlar va a'analarni, zaruriy bilimlarni o'zlashtirishi bilan belgilanadi. Ushbu voqelik kasbiy identifikatsiya sifatida namoyon bo'ladi: "...Hech qanday kasbiy faoliyat va shaxsiy taraqqiyot kasblar dunyosini va o'z-o'zini anglashga yo'naltirilgan sub'ektning kognitiv faolligisiz amalga oshmaydi".

Kasbiy identifikatsiya mutaxassis shaxsining shakllanishidagi muhim mezonlardan biri hisoblanib, talabalarning kelajakdagi kasbiy taraqqiyoti, kasbiy o'z-o'zini anglashi uchun muhim vazifani bajaradi.

Talabaning shakllanish jarayonida uning imkoniyatlarini bosqichma-bosqich kashf qilinishi va uning alohida tarkibiy qismlari hamda strukturasi o'zgarishini muhim manbasi bo'lib aniq faoliyatning mohiyatini ochish dinamikasidagi maqsadga yo'nalganlik hisoblanadi. Psixologik tuzilish bilan muvofiq adekvat faollikni talab qiluvchi maqsadlar tizimini aniqlash, tanlash, unga erishish va alohida faoliyat tarkibiy qismlarining mazmuni hamda ko'zlangan natijaga erishish uchun psixik zo'riqqanlikning muvofiqlik darajasi ham talabaning psixik taraqqiyoti manbasi bo'lib hisoblanadi. Taraqqiyotning bu mexanizmi



predmetli faoliyat motivlarining shakllanish va aniqlashtirilish jarayoni, uning mehnat jarayonining har bir bosqichida o'zgarishlarni aniq bir fazasini bosib o'tuvchi, mazmun jihatdan boyib boruvchi va faoliyatning yo'nalganligiga, psixik va kasbiy taraqqiyotni harakatlantiruvchi omillarga aylanadigan motivatsion-ehhtiyojlarni boshqarish bilan bevosita bog'liqdir (Bodrov, Bessonova, 2005).

Talabaning kasbiy shakllanishi, shaxsning mutaxassisga aylanish jarayoni faoliyatning operatsional tomonini egallash qobiliyatini qidirish va yaratish, faoliyatning psixologik tizimi komponentlarining o'zaro aloqasi va mazmunini o'zlashtirishni o'z ichiga qamrab oladi.

Bu jarayonni boshqarishning asosiy mexanizmlaridan biri o'zi haqidagi tasavvurlarning (Men-konsepsiyasi), "Men-mutaxassis" obrazi va mutaxassis modelining namunasini shakllanishi, qolaversa, bu tasavvurlarning muvofiqligi, ular orasidagi qarama-qarshiliklarni aniqlash va tahlil qilish hisoblanadi.

Ko'rsatib o'tilgan sub'ektiv modellarning roli qator tadqiqotlarda o'z aksini topgan bo'lib, ular: "stereotiplashgan kasbiy namunalar shaxs tajribasining to'liq integratsiyasiga yo'l qo'ymaydi, bu vaziyatda kasbiy shakllanish shaxs taraqqiyoti uchun to'siq bo'lib xizmat qilishi ham mumkin", degan g'oyani tasdiqlaydilar (A.Rean, 2003). Faqatgina individuallashtirilgan, qolaversa, shaxsning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda yaratilgan kasbiy namunagina shaxs taraqqiyoti uchun xizmat qilishi mumkin, chunki ular muayyan bir shaxsning o'ziga xos xususiyatlari bilan muvofiq bo'ladi. Talabaning psixik sohasini o'rganish natijalari mutaxassis shaxsi shakllanishini boshqarish jarayoni bilan psixik funksiyalarning rivojlanish holatini aloqadorligini tushunishda muhim ahamiyat kasb etib, mehnat faoliyatining shaxsga ta'siri xarakterini aks ettiruvchi mehnat yutuqlari darajasini aniqlab beradi.

Talabaning kasbiy shakllanishi, o'zining hayotiy pozitsiyasiga, maqsadi va harakatlar dasturiga, faoliyat jarayoni va natijalariga nisbatan munosabatga hamda shu kabi qator maxsus xususiyatlarga ega bo'lgan mutaxassis shaxsining shakllanishi sub'ektning shaxs taraqqiyoti qonuniyatlarini engib o'tishi, faoliyat determinantlari ta'sirida uning hayotga psixologik qarashlarining o'zgarishi

natijasi hisoblanadi. Mutaxassis shaxsining shakllanishini o'ziga xos xususiyatlari talabaning kasbiy shakllanishiga nisbatan professiogenetik yondashuvning asosiy xususiyatlarini aniqlab beradi. Bu yondashuv talabaning bo'lajak kasbiy faoliyati davomida ijtimoiy va psixologik rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganish asosiga qurilgan. Bunda kasbiy taraqqiyot jarayonini faol boshqarish imkoniyatlari va shaxsning mehnat faoliyatiga yaroqliligi ko'rib chiqiladi. U faqatgina shaxs taraqqiyoti xususiyatlarini va mutaxassis shakllanishini o'rganishga qaratilgan bo'lmay, balki mavjud faoliyat turlarini, faoliyatga moslashish jarayonini psixik boshqarish mexanizmlari va shaxsning mavjud imkoniyatlari hamda kasbiy talablar orasidagi muvofiqlikni psixologik tahlil qiladi, qolaversa, obro'li kasb va faoliyat turlarining psixologik xususiyatlarini prognozlaydi. Ommaviy va obro'li kasbiy faoliyat turlarini psixologik tahlil qilishning samaradorligi faoliyatni rejalashtirishdagi texnik va texnologik qarorlar va shu bilan bir qatorda, shaxsga nisbatan kasbiy talablar harakteri hamda faoliyatning psixologik nazariyalarini ahvoli haqidagi ma'lumotlar yordamida aniqlandi.

Bo'lajak mutaxassis - talabani etuk shaxsga aylanishi sub'ektning faqatgina kasbiy taraqqiyoti bosqichida amalga oshmaydi. Umuman olganda, shaxs butun umri davomida komillik sari odimlaydi, ya'ni shaxsning ma'naviy - axloqiy, etik, psixologik dunyoqarashi va boshqa xususiyatlari jamiyat talablariga muvofiq ravishda shakllanib boradi. Talaba shaxsining kasbiy faoliyat jarayoniga jalb qilinganligi uni yangi talablarga muvofiq ravishda shakllanishi bilan bog'liq bo'lib, motivatsion-qadriyatlar tizimini, mehnat ustanovkalarini shakllanishida, hayot mazmunini va faoliyatni korreksiya qilishda aks etadi. Umuman olganda, kasbiy faoliyat uchun mehnat samaradorligini, ishonchliligini va xavfsizligi ta'minlash bilan cheklanib qolmay, balki shaxsning mehnatda rivojlanishiga, talabalarda "Men - bo'lajak mutaxassisman" konsepsiyasining shakllanishiga, o'zini - o'zi tasdiqlashga, o'z imkoniyatlarini namoyon qilishga va ijtimoiy muhit hamda mehnat jamoasiga to'liq moslashishga zamin hozirlaydigan talabaning shaxsiy va kasbiy sifatlari, bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

## **O‘quvchilarni tayyorlashda tasviriy san’atni o‘qitishning pedagogik shart - sharoitlari**

O‘quvchilar faoliyatida bilish jarayonlari sezgi, idrok, xotira, tasavvur, hayol, tafakkur va nutq katta rol o‘ynaydi. Yuqori sinf o‘quvchisi davrida vujudga kela boshlagan tafakkurning mustaqilligi, teranlik, ixchamlik, tashabbuskorlik, tanqidiylik sifatleri kun sayin takomillashib boradi. O‘quvchilarda o‘z - o‘zini nazorat qilish, aql zakovatning muhim jihatlari taraqqiyotning yuksak bosqichiga ko‘tariladi.

Mustaqil ishlarning barchasi: konspekt tuzishi, referat, annotatsiya, tezis, seminarga hozirlik, kurs va diplom ishlari o‘quvchilar mustaqillikni, ijodiy yondashishni kreativlikni, muammoli holatni murakkab pedagogik vaziyatni hal qilishni toqazo etadi.

Ta’lim jarayonida fikr yuritish operatsiyalaridan unumli foydalanish evaziga har qanday murakkab bilimlarni egallash imkoniyati vujudga keladi. O‘quvchilar tafakkur shakllari tushuncha, hukm, xulosa chiqarishning funksional va operatsional jihatlari bilan yaqindan tanishadilar, shuningdek, ulardan foydalanish uchun barcha intellektual zaxiralarni ishga solishga harakat qiladilar. Hukm chiqarishning barcha yakka, xususiy, umumiy, ziddiyatli, faraziy, inkor ko‘rinishlaridan o‘quv va mustaqil bilim olish faoliyatlarida foydalanish shart - sharoitlari tug‘iladi. Xulosa chiqarishning induktiv xususiydan umumiyga fikrning yo‘nalganligi va deduktiv umumiydan xususiy holga fikrning qaratilganligi yo‘llaridan muayyan tarzda bilish faoliyatiga» intiladilar. Bu narsalarning barchasi tafakkurni rivojlantirishga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Hozirgi zamon talabalarining ijodiy tafakkur orqali vujudga keltirgan badiiy asarlari, taklif etilgan ratsionalizatorlik takliflari xalq xo‘jaligini yuksaltirish, mustaqil Respublika fan va texnikasini rivojlangan mamlakatlar darajasiga ko‘tarish uchun xizmat qilmoqda.

Amaliy mashg‘ulotlarni asosiy yo‘nalishlari bo‘ljak tasviriy san’at o‘qituvchilarining davr jarayonini tashkil qilish, rejalashtirish va metodik jixatdan mantiqiy ravishda amalga oshirish, sinf taxtasida bo‘r bilan tasvir ishlash ko‘nikma

va mahoratlarini rivojlantirishga qaratilgan. Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi fani dasturi asosida quyidagi amaliy ish turlari nazarda tutilgan:

I. Umumta'lim maktablarda tasviriy san'at fanini o'qitish uchun:

1. Bir o'quv yili uchun tasvirli - mavzuli reja tuzish;
2. Tasviriy san'at davr turlari bo'yicha davr bayonlarini ishlash;
3. Tasviriy san'at davr turlariga ko'rsatmali qurollarni tayyorlash;
4. Tasviriy san'at darsining biror turiga namunaviy davr bayonini tuzish va namoyish etish;

5. Darslarni taxlil etish;

6. Sinf taxtasida bo'r bilan tasvir ishlash;

7. Tasviriy san'at darslaridan suhbat darsiga «Referat» yozish;

8. Kurs ishi;

9. Malakaviy ishlar talabalar tomonidan o'qituvchi rahbarligida bajariladi.

II. Akademik litsey va kollejlari, akademik litsey va kasb - hunar kollejlarida tasviriy san'at fanini o'tish uchun:

1- Qalamtasvir – mashg'uloti bo'yicha rasm ishlashning asosiy qoidalari, yo'l - yo'riqlari va nazariy, amaliy bilimlarga ega bo'lish;

2. Rangtasvir – mashg'uloti bo'yicha ranglarni ishlatishda o'ziga xos xususiyatlarini, texnologiyasini, rangshunoslik xaqida nazariy va amaliy bilimlarni xamda bosqichma - bosqich qoida - qonunlarini bilish.

3 Amaliy bezak san'ati - bo'yicha xalq amaliy san'atining turlarini o'rganish, xar bir turi bo'yicha kerakli ma'lumotlarga ega bo'lishi lozim. Amaliy san'at turlaridan birini mukammal (tarixi, ishlash usullari, kerakli asbob - uskuna va materiallari)ni o'rganib sir - usullarini egallash.

4. Xaykaltaroshlik - san'ati bo'yicha umumiy tushunchalar, nazariy bilimlarni o'zlashtirish, xaykal ishlashning qonun - qoidalari, xajm va shakl berish yo'llarini o'rganish xamda asbob - uskunalardan foydalanish qoidalarini egallash;

5. Kompozitsiya - qalamtasvirda, rangtasvirda, xaykaltaroshlikda va amaliy san'atning har bir turida o'ziga xos yusinda va o'ziga mos mazmunini

tashkil qilishini, xar bir san'at turining kompozitsiya usullarini egallash bu o'sha soxa xarakterini ijodiy tanlay bilish;

6. San'at tarixi va san'atshunoslik asoslari - bo'yicha ilmiy va nazariy asoslarini, jaxon san'ati tarixiga oid bilimlarni, O'zbekistan san'ati tarixiga oid bilimlarni, xozirgi zamon o'zbek rassomlarining xayoti va ijodini bilishlik;

7. Uslubiy asoslari - qalamtasvir, rangtasvir, amaliy san'at sirlari, xaykaltaroshlik san'at tarixi va san'atshunoslik asoslarida ko'rsatilgan bilim hamda malakalarni uslubiy jixatdan o'rgata olish sirlarini bilishi kerak. Mashg'ulot yoki dars o'tishning turli usul hamda uslublari va o'z ijodiy yondoshishlari. Talabalarga, o'quvchi va yoshlarga nisbatan mexrli, hamfikir bo'la olish hamda ularning psixologiyasini o'rganib ta'lim berishda to'g'ri yondasha bilish.

Davr - ta'lim tarbiyani amalga oshirishning eng qulay, eng samarali shaklidir. Jamiyatimizning turli jabhalarida bo'layotgan siyosiy - iqtisodiy, ijtimoiy - ma'rifiy o'zgarishlar barcha fanlar qatori tasviriy san'at darslarining mazmuni va metodikasiga ham yangi, zamonaviy talablarni qo'ymoqda. Bu talablarning asosiylari quyidagilardan iborat:

1. Darsda ta'limiy - didaktik tarbiyaviy rivojlantiruvchi maqsadlarni turli qo'ya bilish va ularni amalga oshirish;

2. Darsda ta'limning faol usul va uslublarini qo'llay bilish;

3. Davr jarayonida xalq pedagogikasi an'alarini, jahon pedagogikasi, ruhshunosligi, san'atimiz buyuk ajdodlarimiz o'gitlari, hikmatga to'la xadislarimiz, rivoyatlarimizdan unumli foydalanib borish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki keyingi yillarda tajribali metodist olimlar, psixologlar va amaliyotchi - o'qituvchilarning o'quv jarayonini tahlil qilish soxasida o'tkazilgan tadqiqotlari davr samaradorligini oshirishi, pedagogik va didaktik shart - sharoitlarga bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda.

Eng muhim shart - sharoitlar quyidagilardir:

- yaxshi darsliklar, didaktik va metodik o'quv ko'rsatmali qurollar hamda texnik vositalar;

- guruxda yaxshi psixologik muhit bo'lishi;

- o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasida o'zaro munosabatlar bo'lishi.

Umumiy pedagogik shart - sharritlarga amal qilib, mavzuning didaktik maqsadini to'g'ri tashkil qilinsa darsning sifati yuqori va samarali bo'lishi mumkin.

Tasviriy san'atdan davr bayonini tuzishda pedagogik – psixologik, ilmiy - metodik o'quv adabiyotlarini chuqur o'rganish asosida va shu bilan birga akademik litsey va kasb - xunar kollejlarining tasviriy san'at dasturlari doirasida xamda o'quv qo'llanmalari orqali bajariladi. Davr bayonida quyidagilar bo'lishi shart:

- darsning mavzusi (turi);
- darsning maqsadi: ilmiy, tarbiyaviy, estetik.
- darsning mazmuni;
- darsning tipi;
- darsning rejasi (tuzilishi);
- og'zaki takrorlash uchun savollar;
- o'quv materiallarining ketma - ketligi va uning xajmi;
- ijodiy ishlarning sifati va bosqichlari;
- mustaqil ishlarning mazmuni va usullari;
- texnika vositasi va o'quv ko'rsatmali qurollardan foydalanish;
- foydalangan adabiyotlar ro'yxati;
- sinf taxtasidan unumli foydalanish va pedagogik rasm ishlash;

Talabalarning amaliy mashg'ulot vaqtida o'tkazgan darslari va o'quv tarbiya mashg'ulotlari guruxning barcha talabalari, o'qituvchi ishtirokida taxlil va muxokama qilinadi. Bu muxokama va taxlillar umumdidaktik va metodik tomonlarini birlashtirib amalga oshiriladi. Taxlil jarayonida eng muhimi talaba o'zini davr o'tkazuvchi o'qituvchi sifatida tasavvur qilib, o'z ishini uddasidan qanchalik chiqa olishini to'g'ri baxolay bilishdir. Pedagogik amaliyotiga chikishdan oldin talaba o'z safdoshlari oldida tasviriy san'at davrni mashq qilinishi, bo'lgusi o'qituvchilarning professional o'sishiga yordam beradi.

Talabalar tomonidan o‘tilgan tasviriy san’at darsining yoki tarbiyaviy tadbirlarining guruh tahlili odatda o‘zini - o‘zi baholashdan, o‘zining xisobotini taxlil qilishdan, darsdagi holati va pedagogik taktikasini baholashdan boshlanadi. Bunda bo‘lajak pedagog uchun juda zarur bo‘lgan sifatlar shakllanadi.

O‘quvchilarining kasbiy maxorati va mutaxassislik kasbiga oid bilimlarni shakllantirish bo‘yicha nazariy bilimlar yoritiladi. Kasb - hunar kollejlarda o‘quvchilarni kasbiy tayyorlashda tasviriy san’atni o‘qitishning pedagogik shart - sharoitlari va hozirgi xolati tadqiqodlar o‘quvchilarning tasviriy - ijodiy ishlarining savodxonligini oshirishga, ularning estetik idroki, didining rivojlanishiga yordam beradi.

### **O‘quvchilarni tayyorlashda tasviriy san’at o‘qitish metodikasi**

Tasviriy san’at fanlari bo‘yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda "Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi" o‘rganiladigan asosiy kurslardan biri bo‘lib, u bo‘lajak o‘qituvchilarni amaliy mashg‘ulotlarda metodik jihatdan tayyorgarligini takomillashtirishning muhim omilidir. Bu amalda mashg‘ulotlar III - IV bosqich talabalarini badiiy - kasbiy bilimini, malaka va mahoratini shakllantirishga hamda ularni maktab o‘quvchilariga badiiy ta’lim - tarbiya berish jarayonida qo‘llashga o‘rgatishga qaratilgan.

"Metod" so‘zi grekcha bo‘lib, «Tadqiqot yo‘li», «bilish usuli» ma’nosini anglatadi. Pedagogika o‘qitish metodlari deganda, maktab o‘quvchilarning bilim, maxorat va malakalarini egallashida, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda va dunyoqarashini tarkib topdirishda o‘qituvchilarning qo‘llagan ish usullari tushuniladi.

Metodika ta’lim - tarbiya jarayonida o‘qituvchining o‘quvchilar bilan ishlash usullarining mazmunining xususiyatlariga qarab chiqadi. Ma’lumki, maktabda o‘qitishning xilma - xil metodlari qo‘llaniladi. Bu erda ta’lim usuli, o‘quv materiallarining joylashishi (o‘quv, reja, dastur), ta’lim prinsiplari va yana (so‘ngida), o‘quv tarbiyaviy ishlarning umumiy maqsad va vazifalari eng muhim ahamiyatga egadir.

Metodika soʻzi avvalo taʼlim va tarbiyaning samarali usullarini majmui maʼnosini bildiradi, mazkur metodik qoʻllanma akademik kasb hunar litsey va kolejlarida tasviriy sanʼatni oʻqitish metodikasining bir qator jihatlari koʻrib chiqiladi.

Tasviriy sanʼat oʻqitish metodlari deganda oʻqituvchining oʻquvchilar bilan ishlash usullari natijasida oʻquv materiallarini yaxshi bilib olish darajasiga erishish va oʻzlashtirish darajasini oshirilishi nazarda tutiladi. Har bir oʻqitish metodlari oʻquvchilar egallashi lozim boʻlgan bilimlarining mazmuni (hajmi)ga monand tarzida taʼlim maqsadiga, oʻquvchilarning yosh va fiziologik xususiyatlariga bogʻliq. "Usul" iborasi pedagogik adabiyotlarida tez - tez uchrab turadi. Oʻqitish usuli – bu taʼlim - tarbiya alohida qismlari hisoblanadi, ularning yigʻindisi oʻqitish metodlariga kiradi.

Umumiy yoʻnalishga qaratilgan maʼlum bir oʻqitish metodlari va usullarining majmuasidan oʻqitish tizimi tuziladi.

Tasviriy sanʼat oʻqitish metodikasi pedagogik ilmiy fan sifatida tajribada sinalgan ishlarning nazariy qismlarini umumlashtirib, amaliyotda samarali natijalar bergan oʻqitish metodlarini taqdim etadi. Metodika, asosan, pedagogika, psixologiya, estetika va sanʼatshunoslikning tadqiqot natijalariga asoslanadi. U tasviriy sanʼatni oʻrgatish qonun qoidalarini taʼriflab beradi, kelajak avlodni tarbiyalashning zamonaviy metodlarini belgilaydi.

Amaliy metodika, taʼlim va tarbiyaning rivojlanish jarayonini oʻrganadi. Pedagogik mahorat koʻnikmalarini oʻrganish uni egallashga qaratilgan maʼlum isteʼdod, qobiliyatlar va ishtiyoqlar (moyilliklar) mavjud boʻlishini taʼlab etadi, chunki metodika fani sanʼat pedagogikasining mashaqqatli murakkab va juda maʼsuliyatli sohasidir.

Demak, tasviriy sanʼatni oʻqitish metodikasi fani pedagogika ilmining oʻquvchilarni tasviriy sanʼatga oʻrgatish mazmuni, vazifalari va metodlarini oʻqitishning mazmuni, vazifalarini va metodlarini aniqlovchi, ijodiy ishlardagi oqilona usullarini oʻrganuvchi, taʼlim va tarbiyaning maqsad va vazifalariga tayangan holda samarali oʻquv jarayonini tashkil etuvchi, shakl va yoʻllarini tadqiq



etuvchi sohasidir.

Tasviriy san'at metodikasi metodika fanining boshqa sohalari kabi umumiy va xususiy turlarga ajratiladi.

UMUMIY METODIKA - o'quv faning nazariy qismini asoslariga qarashli savollarni va ko'pchilik fanlarga tegishli o'qitish usul va uslublarini qo'llanishlarini ko'rib chiqadi. Bular quyidagilar:

- tasviriy san'at fanining maqsad va vazifalari:
- tasviriy san'at fani dasturlarining tuzilishi va mazmuni:
- o'qitishning tashkiliy shakllari va metodlarini ishlab chiqish:
- ko'rgazmali metodik vositalarni tadqiq qilish va tanlash (o'quv ko'rgazmali qurollar va texnik vositalari):
- tasviriy san'atning boshqa fanlar bilan bog'liqligi (adabiyot, musiqa, biologiya, tarix):
- tushunchalarni, iboralarni ta'riflash va boshqalar.

XUSUSIY METODIKA – biron - bir o'quv fanining o'qitish uslubi nazarda tutiladi .

- ko'rgazmali qurollardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar beriladi:
- amaliy va ijodiy ishlarning mazmunlari aniqlanadi va x.k.

Hozirgi kundagi rasm o'rgatish metodikasi birdaniga kelib, shakllangan emas, bunga qadar mazkur metodika shakllanishi va murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Respublikamizda tasviriy san'atni o'rgatish metodikasining shakllanishida mahalliy olimlar, metodistlarning qator izlanishlari, o'quv qo'llanmalarining ahamiyati juda katta o'rin tutadi. Badiiy pedagogika metodika sohasidagi so'ngi yutuqlari ko'rsatilgan va talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash, ularni metodik bilim va mahoratlar bilan qurollantirish o'qitish san'atini egallashiga yordam berishni o'ziga asosiy maqsad qilib qo'ygan.

O'qituvchi tasviriy va amaliy san'at darslarining tashkilotchisi, rahbari va ilhomchisi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan o'quv - tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishga dastur asosida o'qitiladigan tasviriy san'at mashg'ulotlari narsaning

asliga qarab tasvir chizish; xotira va mavzu asosida tasvir chizish; dekorativ amaliy san'at va haykaltaroshlik: San'atni idrok qilish kabi turlarda olib boriladi. Qo'yida biz tasviriy san'at faning turlarini ko'rib chiqamiz.

O'qituvchi tasviriy san'at darslarida o'quvchilarni dars mavzusiga aktivlashtirish uchun dars mavzusining mazmuni, hayotdagi ahamiyati va uni chiqish qoidalari tushuntirishi zarur. Ba'zida o'qituvchilar tasviriy san'at darslarini tashkil etish uchun o'quvchilarga dars mavzusi yuzasidan savollar berib, unga berilgan javoblarni to'ldirish kabi vositalardan foydalaniladi.

O'quvchilar dars va darsdan tashqari vaqtlarda mustaqil ravishda bajarayotgan ishlari vositasi bilimga, malakaga, ijodiy ko'nikmaga ega bo'ldilar, o'qituvchining vazifasi o'quvchilarning mustaqil ishlariga yordam berishi, rag'barlantirish metodi asosida ilhomlantirish, yutuq va kamchiliklarni o'z vaqtida ko'rsatish, ularni o'z kuchiga ishonchini mustahkamlashida rahbarlik qiladi.

Dars jarayonida har bir individual xususiyatlari bilan bir - biridan farq qiladigan turli yoshdagi yoshlar bilan ish olib boriladi. O'quvchilar orasida ko'rib turgan narsalarni to'g'ri tasvirlay oladigan xotira asosida qiynalmay rasm chizadiganlar bilan bir qatorda, oddiy tasvirga qarab nusxa ko'chirishga ham qiynaladiganlar uchraydi. Bu borada biz ba'zi o'quvchilarning ko'rish qobiliyatining sustligi, rang sezmasligi kabi boshqa hollarini hisobga olishimiz kerak.

O'quvchilarning qobiliyat va xususiyatlariga qarab guruhlarga bo'lib ta'lim berish metodiga o'z vaqtida rus pedagogi Ushinskiy ijobiy baho bergan edi.

"Sinf bolalarini bir birdan kuchli bo'lgan bunday guruhlarga bo'lib o'tkazish zarur emas".- deb ko'rsatilgan edi.

Guruhlarga bo'lib o'qitish shuning uchun qulayki, kuchli o'quvchilarga qo'shimcha topshiriqlar beriladi, ular o'zlariga berilgan topshiriqlarni qiynalmay bajarib turishadi. Bo'sh, qiynaladigan o'quvchilar esa o'quvchilardan va kuchli o'quvchisidan o'rganadi. Bunday o'quvchilar tasvir chizishda surunkasiga orqada qoladilar, natijada ular o'qishga qiziqmay qoladilar. Bu o'qish ulardan ko'proq aqliy kuch sarflashni talab qiladi. Shularni bartaraf qilish uchun sinfdan olib

boriladigan individual ishni ayrim o'quvchilar bilan olib boriladigan individual ish bilan qo'shib olib borish kerak.

"Kuchli" biladigan o'quvchilarga "kuchsiz" bilimli o'quvchilarni biriktirib qo'yish ham yaxshi natija beradi. O'quvchilarning tasviriy faoliyatini aktivlashtirishda, ayrim o'quvchilar bilan yakka tartibda munosabatda bo'lish va unga pedagogik ta'sir o'tkazish ham katta ahamiyatga ega.

Ta'limni individuallashtirish masalasi hozirgi davrda pedagog va psixolog olimlar va metodistlarni qiziqtirmoqda. M.N. Skatin, N.N. Rostovsev, M.I. Mahmudov, V.S. Kuzin, B.P. Yusupov, S.S. Bulatov asarlarida bu masalalar yoritilgan. Sinfdagi bolalar haqidagi dastlabki ma'lumotlarga ega bo'lgandan keyin, o'qituvchi hamma bolalarning qobiliyat va malakalariga qarab quyidagi gruppalariga bo'ladilar:

1. Tasviriy faoliyati yaxshi rivojlangan, kuzatuvchanligi, ijodiy tasavuri taraqqiy qilgan, tasviriy san'at materiallarini o'zlashtirgan yoki tez o'zlashtira oladigan o'quvchilar. Bu 3 toifa o'quvchilarning har biri bilan alohida ishlab, ularning barchasini darsga qiziqtirish uchun quyidagi usullardan foydalanishi maqul bo'lar edi.
2. Kuzatuvchanligi, ijodiy tassavuri o'rtacha rivojlangan tasviriy san'at materiallarini o'qituvchi yordamida o'zlashtira oladigan o'quvchilar guruhi.
3. Kuzatish ko'nikmasi yaxshi rivojlanmagan, ijodiy tassavuri bo'lmagan, tasviriy san'at materiallarini o'qituvchilar yordamida qiyin o'zlashtiradigan o'quvchilar.

Bunday dars o'tish bizning fikrimizcha o'quvchilarning aktivligini oshiradi.

O'quvchilar bilan individual ishlashning ahamiyati katta. Bu metod yordamida qoloqlarsiz o'qitish darajasiga etish mumkin. Bundan tashkari tasviriy san'at sinf xonalari etarlicha yorug' bo'lishi kerak. Yorug'lik normal bo'lmagan joyda ko'rish sezgilariga zo'r berish zararlidir. Bunday xollarda o'quvchilarning tez charchashlari oqibatida darsga bo'lgan qiziqishlari sustlashishiga olib keladi.

## **Tasviriy san'atni o'qitish texnologiyasida didaktika va metodika**

Mamlakatimizning ta'lim - tarbiya sohasida o'zgarish va shiddatli rivojlanishi maktab o'quv fanlarining har birini yangi pedagogik texnologiya asosida o'qitish, ularni didaktik va metodika sohalarini takomillashtirishni talab qiladi.

Shunga ko'ra maktab o'quv fanlarini, jumladan tasviriy san'at o'quv predmetini ham yangi pedagogik texnologiya asosida o'qitishni davr talab qilmoqda.

Bu jarayon o'zining didaktik va metodik jihatlarida ham albatta ijobiy o'zgarishlar yasaydigan shart – sharoitlar yaratilishini taqozo qiladi.

Chunki, har qanday ta'lim berishni tashkil etish va berilgan bilim – malaka (ta'lim)larini oldindan belgilangan me'yorda bo'lishini ta'minlash, asosan ta'lim berish vositalari, didaktik va ko'rgazma qurollar, o'qituvchi nutqi va uni o'qitish didaktikasi va metodika – uslublaridan qay tarzda mukammal, to'g'ri, asosli, foydalanishga bog'liq bo'ladi.

Chunki, dars – fanni o'qitish didaktikasi va uning prinsiplariga javob bera olmaydigan bo'lsa, u hech qachon samarali bo'lmaydi.

Tasviriy san'atni o'qitishining pedagogik texnologiyasi – o'quvchilarga tasviriy san'at bo'yicha bilim – malakalar berish, ular asosida shaxsni rivojlantirish qonun – qoidalarini o'zida mujassam etgan holda oldindan rejalashtirilgan natijani kafolatlaydigan, pedagogik faoliyatdir, desak uni didaktik jarayoni va metodik yo'nalishi qay tarzda talqin etiladi?

Pedagogik texnologiya – murakkab jarayon sifatida qator o'qitish bosqichlaridan va o'z navbatda bu bosqichlarning har biri o'ziga xos amallardan iborat bo'ladi.

Agar biz tasviriy san'atning dars mashg'uloti, ya'ni 45 minutli vaqt ichida barcha imkoniyat, shart – sharoit, vosita, didaktika, metodik uslublardan (qanday darajaligidan qat'iy nazar) foydalanib, kafolatlangan natija uchun amalga oshirilayotgan faoliyatning barchasi (N.Talzina ta'rifiga ko'ra) tasviriy san'at darslarining pedagogik texnologiyasi bo'ladi.

Maktab tasviriy san'atini o'qitish texnologiyasida asosiy narsa – bu kafolatlangan natija bo'yicha imkoniyat, shart – sharoit, vositalar, metodika va uslublar bo'lib, ularni tashkil etish – tasviriy san'atni o'qitish didaktikasi va uning prinsiplarining asosiy vazifasiga kiradi.

Chunki, maktab tasviriy san'atini o'qitish didaktikasi har bir dars – mashg'uloti uchun eng avvalo berilayotgan bilim – malakalarni ilmiy asosda bo'lishi ta'minlanadi. Ilmiylik prinsipi – o'quvchilarga rasmi chiziladigan natura, ob'ekt, mavzu, voqea – hodisalarni yoki tahlil qilanadigan san'at asari bo'yicha beriladigan har bir ma'lumotni ilmiy va fan ma'lumotlari asosida bo'lishini ta'minlaydi.

So'ngra beriladigan bilim - malakalar sistemali, ketma - ketlik asosda bo'lishi ta'minladiki, bu pedagogikani yoki didaktikani osondan – qiyinga borish prinsipi asosida olib boriladi.

Bu jarayon avval osonroq tasvirlanadigan, oddiy predmetlar rasmini chizib, keyingi mashg'ulotlar asta murakkablashtirib borish asosida quriladi.

Bular maktab tasviriy san'ati dasturida berilgan mavzularning ketma – ketlik mazmunida o'z ifodasini topgan bo'ladi.

Shuningdek, kollej tasviriy san'ati bo'yicha o'quvchilarga beriladigan bilim – malakalar didaktikani tarbiyaviylik prinsipiga amal qilingan holda olib boriladi.

Chunki kollej tasviriy san'ati o'quv predmeti o'quvchilarni badiiy – ahloqiy, estetik, mehnatga, o'z halqiga, Vataniga, ota – bobolar ijodiga katta xurmat bilan qarashga o'rgatadi.

Yani kollej tasviriy san'atni o'qitish texnologiyasi va didaktikasi talabiga ko'ra har bir dars – o'quvchilarga berilayotgan bilim va malakalarini shu darsni o'zida amaliyotida qo'llash imkoniyatiga ega bo'lib, darsni asosiy qismida berilgan yangi bilim va ma'lumotlar asosida rasm chizish amaliyoti bajariladi. Bu fanni mazkur imkoniyati va shart – sharoitiga ko'ra uning dars texnologiyasida ijodiy o'zgarishlar namoyon bo'ladi. Tasviriy san'atini o'qitishda g'oyat ahamiyatga molik bo'lgan didaktik prinsip – o'quvchilarning tasvirlash qobiliyati, bilimi,

malakasiga mos holda o'qitishga shart – sharoit va imkoniyatlarini yaratishdan iboratdir. Bu prinsip o'quvchilarning barchani rasm ishlashga va tasvirlar yaratishga jalb qilish imkoniyatini beradi.

Kollej tasviriy san'at bo'yicha o'quvchilarga beriladigan bilim, malakalarini ijodiy, faol, mustaqil va tashabbuskorlik asosida bo'lishiga alohida e'tibor beriladi.

O'quvchilarga beriladigan tasviriy san'at bo'yicha bilim malakalarini oson, qisqa, tushunarli, ilmiy asosda bo'lishini ta'minlashda didaktikani ko'rgazmali o'qitish - ta'lim berish texnologiyasida eng asosiy didaktik prinsip sanaladi.

Kollej tasviriy san'atining Davlat dasturi bo'yicha o'quv materiallarining hammasi ko'rgazmali o'qitishni talab qiladi. Chunki, - “Maktabda ko'rgazmasiz o'qitib bo'lmaydigan yagona o'quv fani bu tasviriy san'atdir” – deb doimo ta'kidlanishi ham bejiz emas. Shuning uchun maktab tasviriy san'atini o'qitish – texnologiyasida ko'rgazmalilik – oldin belgilangan maqsadga erishishni kafolatlay oladigan didaktik prinsipning eng asosiysi va eng samaralisi sanaladi.

Tasviriy san'atini o'qitish texnologiyasidagi didaktik jarayon V.P. Bepalko ko'rsatib o'tganidek, - Yangi dars materialiga kirish – ya'ni, - o'quvchilarni yangi dars materialini qabul qilishga tayyorlash - motivatsiya jarayoni bilan boshlandi. Bu o'quvchilarni yangi dars materialiga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan birga, ularni dars davomidagi faolligini, mustaqilligini, tashabbuskorligi va ijodkorligini ta'minlash imkoniyatini beradi.

Tasviriy san'atini o'qitish texnologiyasida asosiy o'rinni uni o'qitish didaktikasi va metodikasi oladi. Chunki metodika va didaktika tasviriy san'atidan o'quvchilarga bilim – malaka berishning eng asosiy va oxirgi pedagogik jarayoni sanaladi. Metodika – maktab tasviriy san'atidan o'quvchilarga bilim – malakalar berishning eng oson, eng samarali pedagogik ta'sir ko'rsatuvchi vosita bo'lib, darsdagi oldidan belgilangan natijalarni kafolatlay oladigan jarayon xisoblanadi.

Bu o'rinda shuni aytish joyizki, tasviriy san'atini o'qitish texnologiyasida qo'llaniladigan hozirgi zamon o'qitish metodlaridan bo'lmish:

- Og'zaki bayon etish metodi;

- Ko‘rgazmali o‘qitish metodi;
- Amaliy ishlar metodi bo‘lib, bu metodlarning har biri qator usulblarga ham bo‘linadi;

Maktab tasviriy san‘atini o‘qitishda eng ko‘p ishlatiladigan metod “Og‘zaki bayon etish” metodi bo‘lsada “Ko‘rgazmali o‘qitish” va “Amaliy ishlar” metodidan ham har bir dars jarayonida foydalaniladi.

Chunki, maktab tasviriy san‘ati o‘quv faning o‘ziga xos xarakteriga ko‘ra ko‘rgazmasiz o‘qitish mumkin bo‘lmagan o‘quv fani hisoblanadi.

Yana bu o‘quv predmetini pedagogik texnologiyasiga ko‘ra, 45 minutli darsni yarmidan ko‘pi amaliy ishlar bilan ta‘minlanadi.

Maktab tasviriy san‘ati darslarida: “Og‘zaki bayon etish” metodini suhbat, hikoya, savol – javob, ma‘ruza kabi uslublaridan;

- “Ko‘rgazmali o‘qitish” metodini namoyish, illyustratsiya va reproduksiya bilan ishlash, doskada o‘qituvchi rasmi va ekskursiya, kabi uslublardan;

- “Amaliy ishlar” metodining rasm ishlash, haykal ishlash, badiiy – amaliy san‘at, kompozitsiyalar ustida ishlash, san‘at asarlari tahlili, san‘at asarlari yuzasida insho, referat yozish, kabi uslublardan foydalaniladi.

Xulosa, maktab tasviriy san‘atini o‘qitish texnologiyasi o‘zini oldindan belgilangan maqsadiga erishish uchun bu fanni o‘qitish didaktikasi va metodikasidan a‘lo darajada foydalana olishi o‘qituvchi zimmasidagi asosiy vazifa bo‘lib qoladi.

Buning uchun maktab tasviriy san‘at o‘qituvchisi eng avval pedagogik texnologiya, uni maktab tasviriy san‘atini o‘qitishdagi roli, o‘rni mazmun – mohiyatini, so‘ngra maktab tasviriy san‘atini o‘qitish didaktikasi, uning prinsiplarini va o‘qitish metodlarini yaxshi bilib olishi, yana ulardan qachon, qaysi o‘rinda, qanday mazmunda foydalanishni o‘zlashtirib olish zarur.

Yana bir izoh, yuqoridagi holatlarni yaxshi bilishi bilan birga kollej tasviriy san‘atini o‘qitish didaktikasi va metodikasini asosi bo‘lmish maktabda tasviriy san‘at kabinetini tashkil etish va unda o‘qitishning didaktik materiallari,

ko'rgazma qurollari va natura fondini yaratish zarur. Chunki, maktab tasviriy san'atini o'qitish texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi bo'yicha ishlashni, samara berishi asosan maktabda tasviriy san'at kabineti tashkil etishga bog'liqdir.

Tasviriy san'at o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlarni maqsadi talablarining o'quv materialini o'rganishdagi faolligini oshirish yo'li bilan ularning o'quv dasturidagi ayrim mavzularni mustaqil o'zlashtira olish imkoniyatlaridan eng maqbul tarzda foydalanishdir.

Amaliy mashg'ulotlarning tashkiliy metodik asoslari quyidagilardan iborat umumiy qoidalar:

Talablarning amaliy ishlarini o'quv tarbiya jihatining tarkibiy qismi sifatida, didaktik tamoyillar asosida amalga oshirish:

Talablarning amaliy ishlarni bajarishlari tasviriy san'at metodikasi fani, uning bilimlari, ayrim mavzulari bo'yicha tashkil qilish, o'quv – uslubiy va didaktik materiallar bilan ta'minlash:

Talablarning amaliy ishlari va yakunlashlarida o'qituvchi va bevosita yordami:

Amaliy ishlar to'garak, talablarining o'quv materiallarini qanchalik o'zlashtirilganini aniqlash uchun munozara, bahs, amaliy o'yin, ko'rgazma va eng yaxshi ishlarning namunalarini ko'rsatish va hokozolarni tashkil etish.

Talablarning mustaqil ishlarni o'zlashtirgan bilim va malakalarni o'z kasbkorlik faoliyatida qo'llay olishlari nuqtai nazardan, o'rganilayotgan fanlarga bog'lab qarab chiqish:

Talablarning har bir amaliy ish natijalarini konspekt, tayyorlash, grafik ish, tasvir, rang tasvir, referat va hokozolar sifatida topshirishlari:

Talablarning bajargan eng yaxshi ishlar tanlovini o'tkazish, g'oliblarni rag'batlantirish shuningdek, bilan ishlashning turli masalalari bo'yicha mustaqil fikr yuritish badiiy did, fazoviy tasavvur, real manzalarni ko'ra olish, mantiqli fikr yuritish, ijodiy xulosalar chiqarish, iqtidorni tarkib toptirish, san'at turini, badiiy asar va boshqa adabiyotlar, asarlar, ilmiy - ijodiy tavsiyalar va mashg'ulotlardan foydalanish ko'nikma va malakalarini takomillashtiradi.



Kasb - xunar kollejlarda kasbiy tarbiya va mutaxassislik kasbiga oid bilimlarni metodik rivojlanshiga nazar soladigan bo'lsak, tasviriy san'atga bo'lgan qiziqish insonlarni qadimdan o'ziga jalb qilib kelgan. U paytda ibtidoiy davr odamlariga o'zaro muloqat qilish, so'zlashish uchun zarur bo'lgan. Ularning aksariyati ovchilik bilan shug'ullanib kelgan, qadimgi odamlar hayvonlarning yurgan yo'llarini o'rganib, tik qoya va g'orlarda turli tasvirlar va belgilar qoldirganlar. Vaqt o'tgan sari ularni tasvirlash qobiliyatlari rivojlanish natijasida, keyinchalik esa har xil ov qilish manzaralari ham aks eta boshlangan. Ibtidoiy jamoa tizimida bizgacha yana uy anjomlari va bezak buyumlari, odamlar yashagan, tog' ostida qolib ketgan moddiy yodgorlik, odamlar va hayvonlarning jasadlari qoldiqlari g'or va erto'lalarga chizilgan surat bo'rtma tasvirlar ibtidoiy jamoa tizimiga mansubligi seziladi. Masalan Surhandaryo g'oridan topilgan zaravurtkamar, jaxon e'tiboriga molik ushbu tasvirida odamlarning yovoyi buqaga tosh va nayzalar otib so'ngra uni tikka qoyadan pastga tushurib yuborishi sahnasi tasvirlanganligini ko'rishimiz mumkin. Eramizdan avvalgi 3 - 2 asrga mansub kulolchilik buyumlari hamda devorlarga ishlangan suratlarda asosan osmon, er, quyosh, suv, odam va hayvonlarning tasvirlarini ko'rish mumkin.

Tasviriy san'atni o'qitish ishi bilan odamlar qadimdan shug'ullanib kelganliklari ko'proq qadimgi Misr manbalarida saqlanib qolgan. Misr maktablarida rasm ishlashga o'rgatish muntazam ravishda chizmachilik bilan bog'liq holda amalga oshirilgan. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda maktabni tugallab chiqayotgan yoshlar ma'lum maydon yuzasini o'lchash va uni qog'ozga tushura oladigan, bino planini chiza oladigan, ariq va kanallarning sxemasini tasvirley oladigan bo'lishlari talab etilgan.

Rasm o'quvchilarni yozish savodini chiqarishda ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Masalan "o" harfini o'rgatish uchun oyoq rasmi, "q" harfini o'rgatish uchun qo'l rasmi chizdirilgan. Bolalarni rasm chizishga o'rgatishda qo'lni erkin harakat qilishiga alohida e'tibor berilgan. Erkin, engil, ravon chiziqlar chizish doskada yoki papirus qog'ozlarda bajarilgan.

Shuni ham alohida qayd qilish lozimki, bu davr maktablarida faqat bolalar o'qiganligi sababli ularga nihoyatda yuqori talablar qo'yilgan.

Shuning uchun ham talab va ko'rsatmalarga rioya qilinmaganda bolalar qattiq jazolangan, hattoki yog'och bilan kaltaklangan.

Misr maktablarida rasm chizishga o'rgatish nazariyasi bor - yo'qligi ma'lum bo'lmasada, ayrim rasm chizish qoidalarini qo'llanilgan. O'qituvchilar rasm chizishni (shakl, rang, o'lchov, tuzilishi v.b.) tabiatni kuzatish asosida emas, ko'proq namunadan, sxemadan ko'chirish orqali o'rgatganlar. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, Misrda rasm chizishga o'rgatish qadimgi Yunonistondan ancha avval boshlangan. Italiyalik XV asr me'mori, artisti, yozuvchisi va olimi L.B. Alberti shunday deb yozadi: "Misrliklarning yozishicha, rangtasvir ishlash ularda Yunonistondan olti ming yil avval mavjud bo'lgan".

Rasm chizishga o'rgatish qadimgi Yunonistonda ham o'ziga xos yo'nalishda amalga oshirilgan. Ularda rasm ishlashga o'rgatishda tabiatni, butun borliqni o'rganishga, unda go'zalliklarni idrok etishga alohida e'tibor berilgan. Rasm ishlash uchun yog'och taxta ustiga asalari mo'mi surtilgan va uning ustini bo'yoq bilan sidirg'a bo'yalgan. Rasm ana shu yuza ustiga o'tkir metall yoki suyak bilan chizilgan. Noto'g'ri chizilgan rasm qo'l bilan ishqalanib, chiziqlar o'rni to'ldirib o'chirilgan. So'ngra tekis yuzaga yangi rasm ishlangan.

Eramizdan avvalgi 432 yilda Yunon haykaltaroshi Poliklet kishi tanasi a'zolari o'rtasidagi mutanosiblik, proporsionallikka doir namuna sifatida "Dorifor" haykalini yaratdi. Keyinchalik u barcha maxsus badiiy va badiiy bo'lmagan maktablarda o'rgatildi.

Yunon rassomlari borliqni va turmushdagi go'zalliklarni kuzatish asosida tasvirlashni qonun va qoidalarini ishlab chiqqanlar. Ularning fikricha go'zallik, ko'proq xushbichim, tartib, ritm va simmetriya, bo'laklar o'rtasidagi mutanosiblik, to'g'ri matematik munosabatlarda ifodalanadi.

Keyinchalik Yunonistonda rasm ishlashning bir necha o'ziga xos maktablari paydo bo'lgan. Ular orasida tasviriy san'at va uni o'qitish taraqqiyotida Sikion maktabi katta rol o'ynagan. Bu maktabda o'qitish ishlari ilmiy asosda

tashkil etilgan bo‘lib, bolalar ko‘proq tabiatga, uning qonuniyatlarini bilishga qaratilgan. Bu maqtabni bitirganlar orasida Pamfildek mashhur rassomlar ham bo‘lgan. Pamfil rasm chizishning ta‘limiy va tarbiyaviy ahamiyatini ko‘rsatib bergan. Bu haqda uning zamondoshi Pliniy shunday deb yozgan edi: “Uning sa‘yi harakati bilan avval Sikionda, so‘ngra Yunonistonda hamma bolalarga rasm chizishni o‘rgatish lozimligi belgilab qo‘yilgan.

Boshlang‘ich ta‘lim rasm chizishdan boshlanishi qayd qilingan edi. Uyg‘onish davrida ham Italiya tasviriy san‘ati va uni o‘qitish metodi katta rol o‘ynagan. Bu davrda rasm chizish umumiy ta‘lim beradigan o‘quv predmetlari qatoriga kiritildi. Mashhur rassomlardan Chennino Chennini, Leon Batista Alberti, Leonardo da Vinchilar bu borada e‘tiborga loyiq ishlarni amalga oshirganlar. Ularning asarlarida fan va san‘at o‘rtasidagi aloqalar, proporsiya, perspektiva, anatomiya masalalari asosiy o‘rinni egalladi. Ularning fikrlariga ko‘ra naturaga qarab rasm ishlash o‘qitishning asosini tashkil etishi lozim hisoblangan.

Ayniqsa, Leonardo da Vinchi tasviriy san‘atni o‘qitish metodikasi taraqqiyotiga katta ta‘sir ko‘rsatgan. U o‘zining “Kniga o‘ jivopisi” nomli ishida rassomchilikni jiddiy ilmiy fan sohasi deb qaradi. U ko‘p yillar davomida anatomiya, rang, kishi a‘zolari o‘rtasidagi mutanosiblik qonuniyatlarini ishlab chiqqan.

Evropada Uyg‘onish davri rassomlarining xizmatlari. Tasviriy san‘atni o‘qitishni takomillashtirishda Uyg‘onish davrining nemis rassomlaridan A. Dyurerning xizmatlari katta bo‘ldi. U birinchi bo‘lib rasm ishlashni yengillashtirish uchun geometrik metodni o‘ylab topdi. Uning fikricha har qanday buyum, qism va yuzalar asosida geometrik shakllar yotadi. Shuning uchun chizishda u yoki bu narsalarni tasvirlashdan avval geometrik shakllar chizib olinishi lozim, keyin ular umumlashtirilib, haqiqiy tasvir hosil qilinadi.

Keyinchalik uning bu metodi Dyupyui, Ashbe, Chistyakov kabilarning pedagogik faoliyatlarida keng qo‘llanila boshlangan. Hozirgi kunlarda ham bu metod o‘z kuchini yo‘qotganicha yo‘q.

Uygʻonish davri rassomlarining katta xizmatlari shundan iborat boʻldiki, ular tasviriy sanʼatda anatomiya, perspektiva, yorugʻ soyaning benihoya katta ahamiyatini asoslab berdilar. Natijada sanʼat asarlari oʻzining yuksak badiiyligi va realistikligi bilan tomoshabinlarni lol qoldiradigan boʻldi.

Shunga qaramasdan tasviriy sanʼatni oʻqitish tizimini yaratish ularga nasib etmadi. Bu muammolar asosan XVI asrdan boshlab yechila boshlagan. Bir qator akademiyalar tashkil etilishi ishni yengillashtiradi. Bunday akademiyalar Florensiya, Rim, Balon kabi shaharlarda ochildi. Avvalgi vaqtlarda bunday maqtablar xususiy shaxslar tomonidan tashkil etilgan boʻlsa, endi davlat va jamoalar ham bunga oʻz ulushlarini qoʻsha boshlagan edilar. Bu oʻquv yurtlari orasida mashhur rassom, haykaltarosh va muallim aka - uka Karrachilar hamda uning amakivachchalari Agostino va Annibale tomonidan ochilgan badiiy Akademiya koʻproq iz qoldirdi. Ular yaratgan oʻqitish tizimida oʻquv materiallarini tez oʻzlashtirish, oʻquvchilarni ilmiy bilimlar, muntazam mashq, qonun va qoidalar asosida rasm ishlash malakalarni hosil qilish asosiy oʻrinni egalladi.

Bu rassom – muallimlar oʻzlaridan avval oʻtgan rassomlarning tajribalari va yutuqlarini umumlashtirib, talabalarni shu asosda oʻqitishga harakat qildilar. Ular oʻz faoliyatlarida yorugʻ - soya, kolorit, rang, konstruksiya, anatomiya, perspektiva masalalariga alohida eʼtibor berdilar. Ayrim tarixiy va sanʼatshunoslik maʼlumotlariga qaraganda Dyurer tomonidan bir qator nazariy va amaliy qoʻllanmalar yaratilgan. Lekin ulardan ayrimlari saqlanib qolgan, xolos.

Uygʻonish davri tasviriy sanʼatning asoschilaridan biri boʻlgan Chennini Chennino «Rangtasvir qonuniyatlari» nomli asarida qalamtasvir bajarish metodlariga katta eʼtibor berib, uning zaminida narsaning oʻziga qarab tasvirlash mashqlari yotadi deb yozgan edi. Uning taʼkidlashicha yuksak mahoratga ega boʻlish uchun shogird har kuni bir necha soat rasm chizishi kerak edi. Florentsiyalik meʼmor – Leon Batista Alberti ham qalamtasvir va uni oʻqitish metodlariga katta eʼtibor beradi. Xususan uning «Rangtasvir toʻgʻrisida uch kitob» nomli mashxur asarlar toʻplamida yozishicha, ranglar bilan ishlashni

o'rganishdan avval, rassom chizmasvirni mukammal bilish zarurligini aytadi. Uning ushbu asari 500 yil avval yozilganiga qaramasdan, qonuniyatlari, xulosalari, xozirgi zamon akademik rasm chizish metodlariga to'la - to'kis mos keladi. Alberti rasm chizishga jiddiy ilmiy fan sifatida qarar edi.

Qalamtasvir predmeti san'atshunoslik fakultetlarida o'qitiladigan barcha maxsus fanlarning asosi hisoblanadi va ular o'rtasida bevosita bog'liqlikni ta'minlaydi. Qalamtasvir borasida yetarli bilim va malakani egallamay turib, talaba kompozitsiya, rangtasvir, haykaltaroshlik, xalq amaliy san'ati va boshqa mutaxassislik fanlarini yuqori darajada o'zlashtira olmaydi. Qalamtasvir – barcha tasviriy san'at turlarining asosi hisoblanadi. Rassom tasviriy san'at turining qaysi birida ijod qilishidan qat'iy nazar, qalamtasvirga asoslanadi. U o'zining kuzatishlari, katta asar kompozitsiyalari ustidagi izlanishlarini avval qalamda dastlabki chizgilar bilan ifodalaydi. San'at asarini yaratishda ushbu qoramalar rassomga yordamchi manba bo'lib xizmat qiladi.

Rassom u yoki bu kartinasini yaratishni qalamda chizishdan boshlaydi. Keyin asarga ranglar beriladi va u tomoshabinlarga estetik huzur baxsh etadi. Boshqacha qilib aytganda, qalamtasvirsiz hech bir rassom o'z asarini etuk holga keltira olmaydi.

Qalamtasvir mustaqil ravishda tugallangan san'at asari ham bo'lishi mumkin. Tush, sangina, pastel, sous, qalamda yaratilgan ko'plab kartinalar jahonning turli san'at muzeyi va ko'rgazmalaridan joy olgan.

Qalamtasvir mashg'ulotlari ko'rib – kuzatib to'g'ri tasvirlash, borliqni idrok etish, qo'l, ong va sezgi organlarini rivojlantirishda nafaqat bo'lajak rassomga, balki turli kasb sohasidagi kishilarga ham zarurdir.

Qalamtasvir bakalavriat talabalariga, I – IV kurslarda amaliy mashg'ulotlar orqali o'rgatiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, amaliy mashg'ulotlar bilan bir qatorda talabalarga nazariy bilim berish g'oyat muhim. Bu bilim bo'lajak pedagoglarning o'qishni tugatgandan so'nggi ilmiy va ijodiy faoliyatlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Borliqdagi narsa va shakllarni realistik tasvirlash talabaga amaliy bilim va ko'nikma beribgina qolmay, balki uning estetik didini o'stirish, dunyoqarashini kengaytirish uchun juda muhimdir. Realistik tasviriy san'at yosh rassomlarning borliqni haqqoniy obrazlarda ifoda etish mahoratini rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega.

Rasm chizish asoslarini o'rganish narsaning o'ziga qarab, metodik izchillikda tasvirlash prinsipiga asoslanadi. Tabiatga muhabbat va o'ta kuzatuvchanlik, buyumlarni to'g'ri tasvirlash kabi fazilatlar tasviriy san'at bilan shug'ullanadigan har bir talabaga xos bo'lmog'i kerak.

Bo'lajak pedagog – rassomlarni buyuk rassomlar, tasviriy san'at sohasida ko'plab nazariy, amaliy bilimlarni meros qilib qoldirgan shaxslar hayoti va ijodiy faoliyati, bilan tanishtirish, ularning asarlarini chuqur o'rgatish hamda ulardan nusxalar olishga jalb etish katta ahamiyatga ega. Qalamtasvir mashg'ulotlari bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilariga quyidagi eng asosiy qonunlarni o'rgatishni maqsad qilib qo'yadi:

1. Tasviriy san'atda kompozitsiya asoslari.
2. Shakllarning chiziqli konstruktiv tuzilishi.
3. Buyumlarning o'zaro nisbatlari.
4. Tasviriy san'atda perspektiva qonunlari.
5. Shakllarda yorug' va soya qonuniyatlari.
6. Tasvirni metodik ketma – ketlikda analiz va sintez qilib to'g'ri bajarish.


Bu ko'nikma va malakalar talabaning, oliy o'quv yurtining barcha bosqichlari davomida bilim olishi vaqtida, o'quv mashqlarini bajarishi orqali rivojlanadi va takomillashib boradi.

### **Tasvirlashning asosiy qonun – qoidalari**

Ta'lim tizimida rasmni o'rganish eng avvalo turli geometrik jismlarni chizishdan boshlanadi. Bu uchun avvalo shu predmetlar shakli simdan yasalgan bo'lsa maqsadga muvofiqdir. Rasm chizishni o'rganuvchilar ma'lum bir hajmga ega bo'lgan predmetlarni chizishni oddiy kubni tasvirlashdan boshlashlari maqsadga muvofiqdir. Buning uchun gips model bilan bir qatorda uning

o'lchamiga teng simdan yasalgan karkasini qo'yish tavsiya etiladi. Bunda kubning orqadagi ko'rinmas qismlari yaqqol ko'rinadi va chizuvchi kubning aniq konstruktiv shaklini ko'ra oladi.

Karkas va kub chizuvchiga nisbatan 45 burchak ostida qo'yiladi. Shunday qilib chizuvchi oldida ikki o'lchamli qog'oz, qo'lida qalam, ko'z oldida stol va uning ustida model turibdi. Model chizuvchi qo'lini oldinga cho'zgan holdagi masofadan kam bo'lmagan masofada qo'yiladi. Endi diqqat bilan naturani kuzatamiz va uning bir qirradi bizga yaqin, qolgan qirralari va tomonlari bizdan uzoqroqda joylashgan. Ishni nimadan boshlaymiz? Har bir ish asosni topishdan boshlanganligi sababli kubni ham asosini topishga harakat qilamiz. Qog'oz chetiga nisbatan gorizontaal chiziq o'tkazib gorizontaal chizilgan chiziqqa nisbatan qaysi burchak ostida ichkari tomon ketgan tomonlarni ko'z bilan chamalab belgilab olamiz. So'ngra asosni chizib olib kubning bizga yaqin tomonini pastki qismiga nuqta qo'yamiz va u qirrani balandligini belgilab vertikal chiziq o'tkazamiz. Keyin qolgan qirralarini balandligini belgilab vertikal ravishda yuqoriga ko'taramiz. Yuqori qismini belgilangan joylaridan bir – biriga chiziqlar o'tkazib tutashtiramiz. Natijada bizga kubning simli modelining aniq chiziqli rasmi hosil bo'ladi. Ish bajarish chamalash usuliga asoslangan bo'lib o'lchov asboblarisiz bajariladi. (1 - rasm). Bunda chizuvchi naturaning ichkariga ketgan tomonlarini ham ko'radi, perspektiv qisqarishni his qiladi. Chizuvchiga perspektiv qisqarishini o'rganish davomida turli predmetlar masalan: shisha banka, piyola, stul, stol, shkaf, televizor va boshqa predmetlarning qisqa muddatli konstruktiv chiziqli tasvirlarini chizishi keyingi tusli ishlar bajarganda katta yordami tegadi.




*1 - rasm. Kub rasmini chizishni boshlang'ich bosqichlari*

Biz gipsdan yasalgan kubni chizish uchun quyidagilarga e'tibor berishni tavsiya etamiz. Kubning gipsdan yasalgan modelini chizganda ham uni simdan yasalgan konstruksiyasi kabi shaffof materialdan deb faraz qilamiz va konstruksiyasini topamiz. So'ngra chizayotgan ishimizni yana bir bor natura bilan solishtirib shakl hajmini berishni boshlaymiz. Yorug'lik kubni yuzasiga tushib turli tuzlarni hosil qiladi. Yorug'lik tushishini kuzatib chizuvchi eng yorug' va eng to'q joylarini hamda yorug'roq joylarini aniqlaydi. Inson idroki xususiyati eng avvalo katta shaklni ko'rib so'ng uni qolgan qismlariga diqqatni qaratish kerakligidir. Bu rasmni chizishning eng asosiy jarayoni umumiylikdan xususiylikka qarab tasvirlashdir. Bu erda kubni umumiy shakl va yoritilganligi topilib so'ngra qolgan detaliga ishlov berishga o'tiladi. (2 - rasm)




Yorug'likning to'g'ri tushishi natijasida hosil bo'lgan yorug' va to'q qirralarni aniqlaymiz va to'q joyiga yengil shtrix beramiz. Shunday qilib yorug' va to'q joy aniqlandi. Shundan so'ng soya – yorug'liklarni batafsil tahlil qilib ishlov beriladi.



*2 - rasm. Kub rasmini chizishni navbatdagi bosqichlari*


Kub rasmini chizish jarayoni ikki qismdan iborat: birinchisi – kub konstruksiyasini tuzish, ikkinchisi – soya – yorug’liklarni aniqlash va berish. Kubning gipsdan yasalgan modelini chizishdan oldin uni diqqat bilan kuzating. Uni tashkil etgan tomonlariga qirralariga, yorug’lik tushishi natijasida hosil bo’lgan soya-yorug’liklar vositasida qanday tasvirlashni ko’z oldingizga keltiring. Kubni ufq chizigidan pastga joylashtirishni unutmang. Uni qog’ozingiz yuzasiga qanday tartibda chizishingizni, ya’ni kompozitsion ko’rish nuqtasidan to’g’ri tasvirlashni chamalab ko’ring. Kubning eng katta o’lchamlarini qog’ozga belgilang. Kubni tashkil qilgan qirralarini simdan yasalgan model deb faraz qilib uni konstruksiyasini toping. Kubning bizga yaqin turgan tomoni o’z o’lchamida bo’lishi, uzoqlashgan tomonlari qiskarishini esdan chiqaring. Bu uchun perspektivadan olgan bilimingizni qo’llang. Chizilayotgan tasvirlarda olgan barcha bilimingizni qo’llang. Chizilayotgan tasvirlarni qalamni qattiq bosmasdan chizing. Kubni chizib bo’lgandan sung yorug’lik tushishi natijasida hosil bo’lgan jismdagi yorug’-soya shtrix, tushevka yordamida bering. Diqqat bilan qarang, kub biror - bir chiziq bilan o’rab olinmagan. Xajmni berishda tus masshtabini qabul qiling va shu asosda soya, yorug’lik, yarim soya, tushuvchi soyalarni bir - biriga nisbatan solishtirgan holda bering. Ishni yakunlash oldidan umumlashtiriladi, to’q joylar pasaytiriladi yoki aksincha kuchaytiriladi.



*3 - rasm. Prizma rasmini chizish*

Kubni chizib bo'lgandan so'ng shakl jihatdan murakkab bo'lgan olti qirrali prizma modelini chizishga o'tish mumkin. Bu modelni chizish ketma – ketligi ham kubni chizishga o'xshab eng avvalo uni konstruktiv tuzilishi quriladi. Lekin bu erda prizmani chizishga yangicha yondashuv talab etiladi. Eng avvalo hayolan ko'zga yaqin bo'lgan prizma qismini belgilaymiz. Bu qismdan burchak emas, balki, prizmaning qarama – qarshi tomoni bilan bog'lovchi markaz asosi aniqlanadi. Qachonki oldindagi qism belgilanib bo'linsa asosning boshqa tomonlariga ketuvchi tomonlari burchagi topiladi. Keyingi bosqich asos topilgandan so'ng bizga yaqin bo'lgan qism qirralari balandligi tiklanadi, bu jarayon xuddi kubni chizgandagidek prizmaning ustki asosi chizilib chiqiladi. Keyin yorug'soya munosabatlari natura bilan solishtiriladi, taqqoslanadi, eng

yorug' va eng to'q joylari topiladi. Oxirgi bosqich qirrali prizma ustida ishlashda rasmni umumlashtirish bo'lib. bu katta ahamiyatga ega. Bu bosqichda chizilayotgan tasvirni yaxlitlikka keltirilishidir (3 - rasm).




*4 - rasm. Silindr rasmini chizish*

Silindrni chizish uchun eng avvalo ishni uning paski asosini topishdan boshlanadi (4 - rasm). Asosni oldin olti qirrali, so'ng o'n ikki qirrali va hokazo qismlarga bo'lib aylana darajasigacha yetkaziladi. Silindr asosidan perpendikulyar chiqariladi, so'ng bizga ko'rinib turgan tomon va boshqa tomonlari quriladi.


Silindr qurilishi tugatilgandan so'ng uning soya – yorug'liklari tahlil qilinadi va tus yechimiga o'tiladi. Silindrda eng yorug' joy prizmaga o'xshab qirrada emas, balki, bir oz o'rtaroqda bo'ladi. Undan oldin va keyin yarimsoya, so'ng esa naturadagi eng to'q joy soya keladi. Predmetning shaxsiy soyasidan keyin yarimsoya va devor yoki stoldan qaytgan yorug'lik ta'siri natijasida refleks hosil bo'ladi. Demak, yorug'lik, yarimsoya, soya va refleks tus gradastiyalari berilishi natijasida silindrning umumiy hajmli shakli hosil bo'ladi.

Silindr bir qancha holatlarda chizilgandan so'ng konusni chizish tavsiya etadiki, bunda ish jarayoni oldin chizilgan modellarga o'xshashdir.


Endi shar rasmini chizilishini ko'rib o'tsak. Sharni chizish oldingi modellarga o'xshab ko'pqirra asosida emas balki, boshqacharoqdir. Bunda eng avvalo shar tegib turgan yuzadagi nuqtani belgilab olamiz va undan ikkita diametr o'tkazamiz: vertikal va gorizontaal. So'ng bu diametrlarga sharning chetki nuqtalarini belgilab aylana shaklni chizib olamiz va birdaniga tus yechimiga o'tamiz. Sharni chizganda shuni unutmaslik kerakki, uning hajmini berish yorug'soya munosabatlarining berilishi orqali yechiladi. (5 - rasm).




*5 - rasm. Shar rasmini chizish*



6 - rasm. Kub va konusning konstruktiv asoslari



7 – rasm. Gipsdan yasalgan kub va shar rasmini chizish




*8 - 9 rasmlar. Gipsdan yasalgan geometrik jismlarni tasvirlash*

Geometrik jismlarni alohida tasvirlarini chizib bo'lingandan so'ng ularning to'plami rasmini chizishga o'tiladi. 6 - 9 - rasmlarda ularning namunasi keltirilgan.

Hajmli predmetlarni tasvirlashda nafaqat perspektiv jihatdan to'g'ri chizilishi orqa va oldingi tomonidagi chiziqlarning qalinligi hamda yoritilganligi, soya-yorug'liklar munosabati asosida hajmini berilishi bilan ham bog'likdir

Soya-yorug'lik deganda biz tasvirda to'q va yorug' shtrixlar, dog'lar qanday taqsimlanishini tushunamiz va oldingi topshiriqda bu haqda batafsil ma'lumotga ega bo'lganmiz. Natura chizganda e'tibor bering unda chiziq degan narsaning o'zi yo'q, lekin biz chiziq yordamida naturani shaklini chizib topib olamiz.



*10 – rasm. Gipsdan yasalgan geometrik jismlardan*

Naturaning sirtlarida chiziq yo'qligi, lekin unda soya va yorug'lik borligi va shu asosda biz naturaning hajmi haqidagi ma'lumotga ega bo'lamiz. Shar shaklidagi gips modelni kuzatish orqali biz sharning shaklini tasavvurimizda jonlantiruvchi soya va yorug'lik qatlamlari orqali uning hajmini idrok etamiz.

To'rt burchak shaklidagi predmetlarda ham yuqoridagi holatlar ya'ni soya-yorug'liklar tarqalishini predmetlar shakliga bog'liq ekanligini unutmaslik kerak.

Natyurmort fransuzga so'z bo'lib, turli buyumlardan tuzilgan kompozitsiya, ma'lum bir ma'noga ega bo'lgan jismlar yig'indisidir. Aniq tarjimasi "jonsiz tabiat" deb yuritiladi. Natyurmort chizish asosida rasm qoidalarini o'rgatish barcha badiiy maktablar usulida qadimdan bo'lgan. Bu borada Italiya, Olmoniya, Rossiya kabi badiiy akademiyalarni boy tajribasini tilga olish mumkin. Leonardo da



Vinchi, Albrext Dyurer, Chennino Chennini kabi g'arbning buyuk rassomlari klassik meroslari ham fikrimiz dalilidir.

Natyurmort ustida ishlash jarayonida talabalar kuzatish perspektivasi, narsalarni konstruktiv tuzilishi soya – yorug' tarqalishi qoidalari haqida aniq bilim va ko'nikmalar hosil qiladilar, turli materiallar (gips, shisha, metall, yog'och, mato va h.z. fakturasini tus orqali ifodalashga o'rganadilar (10 - rasm). Natyurmort chizishda eng birinchi navbatda shakli aniq, ortiqcha bezaksiz, murakkab bo'lmagan buyumlarni tanlash kerak. Shundan so'ng natyurmort tuzish qoidalarini qo'llab natyurmort tuzish kerak. Tanlangan predmetlar orasida mantiqiy bog'lanishga e'tiborni qaratish zarur.

Bu uchun natyurmortnavis rassomlar bajargan ishlarni reproduksiyalarini o'rganish tavsiya etiladi. Ularning natyurmortni qanday tuzganliklariga e'tibor qaratisa ko'p narsa ayon bo'ladi. Natyurmort uchun eng xarakterli narsa unda ishtirok etadigan narsalarning yagona kompozitsiya markaziga bo'ysunishini esdan chiqarmaslik kerak.

Ishda eng asosiy vazifalardan biri naturani qog'ozga qanday joylashtirilganligiga ham bog'lik. Chunki, chizilayotgan narsani qog'ozga vertikal yoki gorizontal joylashtirilishi turlicha ko'rinadi.

Tasvirlanayotgan natyurmortni puxta o'ylab, tuzish ishning tabiiy chiqishiga yordam beradi. Ular uy-ro'zg'or buyumlari to'plami, musiqa asboblari, sport anjomlari va h.z. tuzilishi nazarda tutiladi.

Fon sifatida yaltiroq bo'lmagan, bezaksiz, bir xil tusga ega bo'lgan mato ortiqcha buramalarsiz, tekis qo'yilsa maqsadga muvofiq buladi. Ishni bajarish rasm uchun asosiy bo'lgan prinsip umumiylikdan bo'laklarga hamda bo'laklardan umumiylikka qaytish qoidasiga asoslanish kerak. Ishni baholashda naturaning qog'ozga qanday joylashtirilganligi fazodagi o'rni, perspektiv qisqarishlari hamda soya-yorug' qonunlarining yechimi, nisbatlar alohida e'tiborga olinadi.

O'quv ishida muhim bosqich matolar rasmini chizishni o'rganish, matolardagi buramalarning ma'lum joylashishuviga bog'liqligini o'rganishdir. Matoni mebel jihozi ustiga bir uchi bilan tashlab qo'yish, boshqa uchi osilib turishi yoki biron

narsaga ilinib turishi yirik qatlar, turli siniqliklari bilan tasvirlash mumkin. Boshda matoni bezaksiz, silliqroq tanlash yaxshiroq, bu qatlar shaklini ancha umumlashtirib qabul qilishga imkon beradi. Birinchi xomaki rasmlarni kontrast kechki yorug'likda bajarishni tavsiya etiladi. Qatlam yoki buramalar shaklini aniqlaydi. Dastlabki tasvir oddiy bo'z mato chizilsa aniq qatlar hosil qilinganligini darhol sezamiz.

Navbatdagi uy topshiriqlarida vazifani murakkablashtirib kiyim rasmlarini bajarish tavsiya qilinadi. Ular stulga qo'yilgan ko'ylak, dekorativ mato va hokazo. Xatto qisqa muddatli, rasmda qatlar xususiyatini ifodalab, hamma vaqt mato joylashgan shaklini his etish, shuningdek qatlar ko'pligida shakldagi ancha xarakterlilarini ajrata olish zarur bo'ladi.

Bunday chizishlardan hosil qilingan ko'nikmalar syujet hamda dekorativ xarakterli kompozitsion topshiriqlar ustida ishlashda foyda keltiradi.

Matoni rasmi va uning shakl bilan bog'lanishiga rassomlar katta ahamiyat berganlar.

### ***Me'moriy detallar tasviri (kapitel, rozetka, va boshkalar).***


Rasm chizishni o'rganishda murakkab bo'lgan gipsli predmetlar shakliga, kapitel, rozetkalarini chizish uchun alohida o'rin ajratiladi. Gipsli model nushalar bizni oldingi davrlarda yashagan buyuk musavvir - me'morlarning ishlari bilan tanishishga asos bo'ladi. Rasm chizishni o'rgatishda barcha jaxonning badiiy maktablarida bu modellardan hozirgi kungacha ham foydalaniladi.

Gipsdan yasalgan bu modellarni chizish qo'zg'almas bir joyga o'rnatilib chizilganligi sababli chizuvchiga ajoyib qulaylik yaratadi. Chizuvchi naturani old tomondan, yondan yoki to'rtidan uch ko'rinishda hamda ufq chizig'iga nisbatan turli holatda chizish imkoniyatiga ega. Bu o'rganuvchiga perspektiv qisqarishlarni mukammalroq egallashlariga yordam beradi.

Naqshlar bir qancha turlarga bo'linadi. Rasm chizishni o'rganishda ko'proq o'simliksimon gipsli naqshlar chizilishi jahon badiiy ta'limida muntazam

qo'llanilib kelinmoqda. Ular gullar, mevalar, barglar va x.z.lardan iborat bo'lib stilizastiya qilingan shakllardir.

Gips taxtaga tushirilgan ushbu gullar tasviri ham qog'ozga kompozitsion joylashtirishdan boshlanadi.



*11 - rasm. Naqshli rozetka qalamtasviri (bosqichlari)*


Rasmda eng muhimi gips naqsh tasvirining qog'ozga nisbatan to'g'ri joylashtirilishidir. Bunda natura yuqoriga yoki pastga tushib ketmasligi, o'ngga yoki chapga surilib qolmasligi hamda qog'ozga nisbatan katta yoki kichik bo'lib qolmasligi kerak. Shundan so'ng gips taxtaga tushirilgan naqshning eng katta o'lchamlari belgilab olinadi. Keyingi bosqich katta o'lchamlar ichidagi barcha detallar aniqlanadi. Chizayotgan vaqtda perspektiv qisqarishga e'tibor berish kerak. Shaklning hajmli, chiziqli va konstruktiv tuzilishini aniqlab, taxlil qilish zarur. (11 - rasm).

Gipsli naqshning chiziqli - konstruktiv tuzilishini chizib bo'lgandan so'ng shaxsiy va tushuvchi soyalar, tus munosabatlari aniqlanadi.

Rasmda yorug' - soya munosabatlarini topish, soya, yarim soya, reflekslarni bajarish hamda tasvirning yaxlitligiga erishish bilan tugatiladi.

Navbatdagi rozetkani chizish bosqichlarini ko'rib o'tsak:

Ish chizayotgan naturani umumiy ko'rinishini qog'oz yuzasiga joylashtirishdan boshlanadi. So'ng yengil chiziqlar bilan predmetning umumiy shakli va asosiy o'q chiziqlari topiladi. Rozetkani umumiy shakli bizga aylanani eslatadi, o'rtasida shar shakli, to'rt tomonidan chiqib turgan shoxsimon elementlar bo'lib ularni bir-biriga tutashtirsak to'rtburchak hosil bo'ladi. Shundan so'ng naturadagi o'lchamlarni aniqlashga o'tamiz. Naturaga diqqat bilan qaralsa uning ichida to'rtta katta barg borligini ko'ramiz, bu barglar bir - biriga qarama - qarshi tomonda simmetrik ravishda joylashgan.



12 - rasm. Gipsdan yasalgan naqshli rozetkani chizish ketma - ketligi

Naturadagi asosiy elementlar o'zni aniqlangandan so'ng uning detallari aniqlanadi. Bu o'rinda asosiy element bo'lib to'rtta barg hisoblanadiki ular chizilganda barchasi bir - biriga o'xshashligini unutmaslik kerak va tasvirda ham shunga erishish zarur. Shakl to'liq, o'ziga o'xshash chiqqandan so'ngina bir bor natura bilan solishtiriladi hamda har bir elementning soya, yarim soya va soyalar belgilanadiki bu chizuvchiga kelgusidagi ish jarayonida poydevor vazifasini o'taydi. Rozetkadagi belgilangan soya - yorug'liklarning aniq ishlanishi uning hajmini yoki bir butun yaxlit tasvirini idrok qilish imkonini beradi (12 - rasm).

### ***Gipsdan yasalgan vaza tasviri***



Rasmni bajarish har doimgidek qog'oz yuzasiga tasvirni kompozitsiya jihatdan to'g'ri joylashtirishdan boshlanadi. Joylashtirish jarayoni tasvirni yengil chiziqlar bilan vazaning umumiy ko'rinishini belgilashdan boshlanadi. Eng asosiy narsa vazaning tasviri bilan natura o'rtasidagi o'xshashlikni topishga erishishdan iborat. Umumiy shakl topilgandan so'ng vazaning konstruktiv asoslarini perspektiva qonun-qoidalariga rioya qilgan holda topiladi. Rassom pedagog P.P. Chistyakov tavsiyasiga ko'ra ko'rish bu aniq nisbatlarni topib tasvirlashdan iboratdir.

Ko'zaning o'ng va chap tomoni ham bir xil bo'lganligi sababli vazaning o'rtasidan simmetriya o'q chizig'i o'tkaziladi. Shu chiziq naturani teng ikki qismga bo'ladi va bir-biriga tengligi shu chiziq yordamida tekshiriladi. Yordamchi chiziqlar yordamida vazaning yuqori qismidan asosiga qadar chiziqlar o'tkaziladi. So'ng vazaning konstruktiv asoslarini topishga diqqat qaratiladi. Vazaning yuqorisi kesik konus va silindr shakliga ega. Ostki qismini chizishni osonlashtirish uchun geometrik jismlar shakli bilan taqqoslansa ish yengil ko'chadi.

Vaza tasviri qurilgandan so'ng uning soya-yorug'liklari aniqlanadi. Bunda vazaning yorug'lik, soya va yarim soya shu bilan bir qatorda tushuvchi soyalar chegaralari aniqlanadi. Bu o'rinda rassom Leonardo da Vinchining "Rangtasvir haqida kitob" asaridagi maslahatni eslash joiz "eng avvalo butun shaklga yorug'lik tushmaydigan joylariga yengil tus beriladi" so'ng yarim soya va asosiy soya

tushiriladi. Shaklni soya-yorug'liklar vositasida hajmini berishda kerakli joylarda qalam kuchi bilan to'klashtiriladi, yorug'lik va soya o'rtasidagi bog'liqlik, refleks va tushuvchi soyalar munosabatlari aniqlashtiriladi.

Vazaning shakli murakkab bo'lganligi sababli eng avvalo uning xarakterli joylarini ko'ra olish zarur. Bu uchun rasm chizish jarayonidagi asosiy qoida umumiylikdan – alohidalikka va yana alohidalikdan umumiylikka o'tish qoidalariga amal qilish zarur (13- 15 rasmlar).



*13 - 14 rasmlar. Gipsdan yasalgan vazani chizich ketma – ketligi*



*15 - Rasm. Gipsdan yasalgan vaza tasviri (yakuniy bosqich)*

Shakli murakkab bo'lgan predmetlar qatoriga me'morchilik bo'laklari ham kiradi va bu memoriy detallardan biri bo'lgan kapitel ya'ni ustunlarning yuqori qismlarini chizishga tavsiya qilinadi. Mumtoz me'moriy orderlar doriy, taskan,

ioniy va korinf nomlari bilan ma'lum. Biz quyida ioniy kapiteli chizilishini ko'rib o'tamiz.

Kapitel me'morchilikda ishlatiladigan ustunning yuqori qismi bo'lib hisoblanadi, ostki qismi esa antablament bo'lib sanaladi. Kapitelni yuqori qismidagi gipsli taxta abaka, so'ng turit, temendan aylana gajjak qismi - volyuta, ular o'rtasidagi oval val - exin, relefli gullar - ionika deb nomlanadi.

Kapitel rasmini chizish uni xayolan taxlil qilishdan boshlanadi. Ustun silindr shaklida bo'lib uning ustiga kesik konus to'ntarilib qo'yilgan holatni ko'rishimiz mumkin. So'ng volyutani ya'ni gajjaklarni to'rtburchakli yashik ichida deb tasavvur qilamiz. Bu holatda perspektiv qisqarishlarni ham topish oson bo'ladi. Valyutalar o'rtasida aylana shaklidagi exinlar joylashgan bo'lib yukoridagi taxtani ikki bo'lakka bo'linsa uning markazi hosil bo'ladi. So'ng ustundagi o'yiqlar bir - biridan ajralgan holda chiziladi. Ustun aylana shaklida bo'lgani uchun o'yiqlar yuqorisidan aylana shaklidagi yordamchi chiziq chiziladi va perspektiv qisqarishlarni hisobga olgan holda o'yiqlar taqsimlanib chiqiladi. Ularning o'lchami naturada bir xil bo'lsada, chizuvchida turli xil bo'ladi. Shu holatda kapitelni umumiy qurilishi tugagandan so'ng detallarni chizishga o'tish mumkin. (16 - rasm).



*16 - rasm. Mato fonida kapitel qalamtasviri*



## *Qalamda natyurmort chizish (o'y-ro'zgor buyumlaridan, san'at anjomlaridan va boshqalar)*

“Natyurmort” – fransuzcha so'z bo'lib, turli buyumlardan tuzilgan, ma'lum bir ma'noni anglatadigan kompozistiyadir. Bu so'zning aniq tarjimasini “jonsiz tabiat uyushmasi” deyish mumkin. Natyurmort asosida rasm chizish qoidalarini o'rgatish barcha badiiy maktablar usulida qadimdan rivojlangan. Bu borada Italiya, Olmoniya, Rossiya kabi badiiy akademiyalarning boy tajribasini tilga olish mumkin.

Leonardo da Vinchi, Albrext Dyurer, Chennino Chennini kabi buyuk rassomlarning klassik merosi fikrimiz dalilidir.

Natyurmort ustida ishlash jarayonida talabalar kuzatish perspektivasi orqali narsalarning konstruktiv tuzilishi, yorug' – soya tarqalishi qoidalari haqida aniq bilim va ko'nikmalar hosil etadilar. Turli materiallar (shisha, metall, yog'och, mato va h.z. fakturasini tus orqali ifodalashga o'rganadilar. Natyurmort chizishda eng birinchi navbatda shakli aniq, ortiqcha bezaksiz, murakkab bo'lmagan buyumlarni tanlash kerak. Shundan so'ng ma'lum qoidalar asosida natyurmort tuzish kerak. Bunda tanlangan predmetlar orasidagi mantiqiy bog'lanishga jiddiy e'tibor qaratish zarur. Buning uchun natyurmortchi rassomlar bajargan ishlarning reproduksiyalarini o'rganish juda muhimdir. Ularning natyurmortni qanday tuzganliklariga e'tibor qaratilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Predmetlarni tanlashda ularning qanday materialdan ekanligi, turli xil shakl va figuradagi predmetlar ishtiroki ishning qiziqarli va jonli chiqishiga imkon yaratadi. (17 – rasm).




*17 - rasm. Uy - ro'zgor buyumlardan tuzilgan natyurmort tasviri*

Natyurmort uchun eng xarakterli narsa unda ishtirok etadigan narsalarning yagona kompozitsion markazga bo'ysunishidir.


Ish jarayonida hal etilishi lozim bo'lgan eng asosiy vazifalardan biri – naturani qog'ozga joylashtirishdir. Chunki chizilayotgan narsalar qog'ozga vertikal yoki gorizontal joylashtirilishi bilan turlicha ko'rinadi.

Tasvirlanayotgan natyurmortni puxta o'ylab, tuzish kerak juda muhim. Bunda masalan, uy - ro'zg'or buyumlari to'plami, musiqa asboblari, sport anjomlari va hokazolardan foydalanish mumkin.

Fon sifatida yaltiroq bo'lmagan, bezaksiz, bir xil tusga ega bo'lgan mato



18- a rasm



b rasm

ortiqcha burmalarsiz, tekis qo'yilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ishni bajarish rasm uchun asos bo'lgan tamoyil – umumiylikdan alohidalikka hamda alohidalikdan umumiylikka qaytish qoidasiga asoslanishi kerak. Ishni baholashda naturaning qog'ozga qanday joylashtirilganligi, fazodagi o'rni, perspektiv qisqarishlari hamda yorug' – soya qonunlarining to'liq hal etilganligi, nisbatlar alohida e'tiborga olinadi.

O'quv ishida muhim bosqich mato rasmini o'rganish bo'lib qolmay, burmalarning qanday shaklda ekanligini ko'rsata olishdir. Mato mebel jihozi ustiga bir uchi bilan tashlab qo'yilganda, osilib turganda yoki biron narsaga ilinib turganda yirik qatlar, turli siniqlarni hosil qilishi mumkin. Avvaligi matoning bezaksiz, sillig'ini tanlash yaxshiroq. Bu qatlar shaklini ancha umumlashtirib qabul qilishga imkon beradi.(18 - a, b rasmlar). Birinchi xomaki rasmlarni kontrast

kechki yorug'likda bajarish tavsiya qilinadi. Oddiy bo'z matoda shakl aniq qatlar hosil qiladi.

Ish jarayonining keyingi bosqichlarida topshiriqlarni murakkablashtirib, kiyimlar rasmini tasvirlash tavsiya qilinadi. Masalan, stulga qo'yilgan ko'ylak, dekorativ mato va hokazo. Hatto qisqa muddatli rasmda qatlar xususiyatini ifodalab, shaklni his etish, shuningdek o'zgacha xususiyatlarni ham ajrata olish mumkin.

Bunday mashqlar natijasida hosil qilingan ko'nikmalar syujet hamda dekorativ xarakterli kompozitsion topshiriqlar ustida ishlashda foyda beradi.


Qadimgi rassomlar mato rasmini chizishda mato va u joy olgan makon o'rtasidagi bog'lanish tasviriga katta ahamiyat berganlar.

### *Yorug – soya nazariyasi*

Rasm bajaradigan talaba oldida tus munosabatlari, narsaning xajmini ifodalash «o'xshashligi» vazifasi turadi. Mazkur vazifani muvaffaqiyatli bajarilishi shakl va hajmni soya-yorug' vositalari orqali ko'rsatib berilishga bog'liq. Bu uchun hajm, «shakl» tushunchasini bilishlari muhim o'rin tutadi. Barcha hajmli predmetlar uch o'lcham bo'yi, eni va balandligi orqali aniqlanadi. Demak narsaning hajmi deganda uni tekisliklar bilan chegaralangan uch o'lchamli kattaligi tushuniladi. Shakl – bu predmetning tashqi ko'rinishi, ya'ni rassom o'tirgan joydan narsaning ko'rinadigan tomonlari tushuniladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, tasviriy san'at bilan shug'ullanadiganlar oldida asosan hajmli shakllarni ifodalash vazifasi turadi. Demak rasm chizishda hajmli shaklni tasvirlab bilish rassomning malakaviy taorgarligida asosiy o'rin egalaydi, shu jumladan bo'lajak rassom – pedagoglar tayyorgarligida ham o'rni o'zgacha. Hajmiy shaklni his eta bilish, qalamtasvirning mavjud chizish usullari xuddi mana shu vazifani bajarishga qaratilgan bo'lishi shart. Gipsdan yasalgan geometrik modellarga shakl yo'nalishi bo'yicha shtrix berib hajm masalasi yechiladi.

Rasm chizadigan kishiga predmetning ko'rinadigan shakli uning soya yorug'ligi bilan belgilanadi, ko'z orqali qabul qilingan shakl xuddi shunday rassom tomonidan rasmda takrorlanadi.



19 - rasm. Yo'rug va soya taqsimlanishi. 1, 3 - yorug'lik, 2 -shu'la, 4 - yarim soya, 5 - shaxsiy soya, 6 - refleks, 7 - tushuvchi soya.

Yorug'lik shakl bo'yicha tarqalib, eng yorug' joydan to'q soyagacha turli tusda bo'ladi. Shunday qilib, yorug' - soya degan tushuncha paydo bo'ladi. Misol sifatida yorug'lik tushib turgan silindr qaralsa, yorug'lik manbaiga qaratilgan

silindrning old tomoni ko'zga yorug' bo'lib ko'rinadi. Yorug'lik tushmaydigan tomoni-soya bo'ladi. Yorug'lik va soya o'rtasidagi tekislik yorug'likni to'la aks ettirmaganligi sababli yarim soya deb nomlanadi. Yorug'lik manbasiga tushadigan nurlarning ma'lum qismi natura (mazkur) holatda silindr atrofidagi narsalardan qayta natura soyasiga o'z aksini beradi. Rasmda bu «refleks» deb nomlanadi. Va nihoyat, tushgan soya mavjud. Odatda, narsalarning yorug' tomonida yaltiroq joy bo'ladi. Bu shu'la deb aytiladi. Predmetlar soya - yorug' chegaralari aniq ko'rinadi. Shar, silindr kabi egri tekislik jisimlarda esa soya - yorug'lik chegaralari aniq emas, yorug'lik soyaga qarab sekin xiralashgan holda o'tadi. Shuni aytish kerakki yorug'lik va aks tusining kuchi yorug'lik manbaing uzoq yaqinligiga bog'liq.

Xulosa qilib aytish mumkinki silindr misolidagi tasvirda barcha soyalar yorug'lik tuslarini quyidagi ketma-ketlikda joylashtirish o'rinli: yaltiroq qismi (shu'la), yorug'lik, yarim soya shaxsiy soya, aks shu'la, tushgan soya (19 – rasm).

Tahlil qilingan soya - yorug'lik tarqalishi qoidasi nafaqat oddiy geometrik jismlarni tasvirlash, balki turli materialdan (yog'och, metall, shisha va h.k.) iborat bo'lgan natyurmortlar, insonda ham, tabiat tasvirida ham qo'llaniladi. Shu bilan birgalikda atrofda borliqning rang - barangligi, yorug'likning turli tomondan tushishi, intensivligi yuqorida keltirilgan soya-yorug'lik qoidalarini ijodiy tarzda foydalanishni talab etadi.

Ma'lumki har qaysi predmetning o'z rangi bor. Chunonchi: pomidor qizil, bodiring - yashil, limon - sariq... lekin pomidor to'q qizil, och - qizil, sabzi rang bo'lishi mumkin. Bodring och yashil, to'q yashil. Limon to'q sariqdan yashil tusli sariqqacha bo'ladi. Ochiq havoda yashagan odam yuzi bilan shaharda istiqomat qiluvchi odam yuzining tusi ham farq qiladi. Demak rangning turli tusi mavjud. Shu uchun ham qalamtasvirda, rangtasvirdagi kabi tus termini mavjud. Soya - yorug' va tus predmetni hajmini ko'rsatish uchun materialligini, fakturasini aniqlashga xizmat qiladi. Soya - yorug'lik kuchi:

Tekislikdan yorug'lik manbasining uzoqlik darajasiga, tekislikka yorug'lik tushayotgan nuqtasi (burchagi)ga, tekislikning rangi tuqligiga hamda rassomga nisbatan mazkur predmetning uzoq - yaqinligiga bog'liq.

Albatta, tabiatdagi tus munosabatlarini tulik ifodalab bo'lmaydi. Rassom oldida bunday vazifa qo'yilmaydi. Chunki borliq benihoyat rang - barang. Borliqni idrok etish uchun tasviriy san'atda tus masshtabi qabul qilingan.

Darhaqiqat, yirik narsalarni chizganda, misol daraxtni, rassom shartli masshtab orqali uning xaqiqiy o'lchami ko'rinishini qog'ozga tushiradi. Tusning shartli kuchi – bu qalamning, ya'ni qalam grafitini kuchi hisoblanadi.

Rasmda asosiy soya-yorug' joylarining chegaralari aniqlanib, tasvirlovchi barcha tus munosabatlarini eng yorug' va soya orasida joylashadi. Eng yorug' joy bu oq qog'oz, baland soya joyi qalamning to'la kuchi bo'ladi. Shu uchun hajmni ko'rsatishga tus masshtabining roli juda katta.

Tus masshtabini belgilash qo'yilgan vazifaga bog'liqdir. Tasvirloyotgan narsaning soya-yorug'ligi (hajmi shtrix va tusli shtrix tushyovka) vositasi orqali ifodalanadi. Shtrixlar pedmetning shaklini ifodalashi zarur.

Tabiiy yorug'likda soyalar, ayniqsa tushuvchi soyalar tarqalgan bo'lib, murakkab qo'shimcha soya, yarim tusli soyalar hosil bo'lishi mumkin.

Leonardo da Vinchi shaklni tus orqali modelirovka qilishda reflekslar rolini alohida ta'kidlaydi. Bu erda olim yorug'lik tarqalishining fizikaviy qonunlarini hisobga olgan. Keyin esa tusni idrok etishning o'ziga xos psixologik ta'sirini unutmaydi «Refleks to'qroq fonda aniq ajraladi yorug' fonda esa kam. Bu turli xil to'q predmetlarni taqqoslashtirganda kam to'q predmet kishini to'qroq narsaga nisbatan qoramtir bo'lib ko'rinishiga majbur qiladi, agar turli xildagi oq predmetlarni solishtirsak bunda oq predmet yonidagilarni o'z holatidan ham kam oq bo'lib ko'rinishga majbur qiladi.

Tus munosabatlarini o'rganish uchun quyidagi mashqni bajarish foydadan xoli emas. Format o'lchamidagi qog'ozni olib uni gorizontliga 5 - 10 bo'lakka bo'ling. Har bir bo'lakka shunday shtrix beringki u oldingi bo'lakdan o'zining teng nisbatda to'yinganligi bilan ajralib tursin. Oldin 4 - 5 tusni ajratish so'ngra buni 10 - 12 qatlamgacha etkazish mumkin. Agar rassom ko'zi qancha soya - yorug'lik gradasiyasini aniqlasa, u bajarayotgan tasvirda shunga ko'p nozik yorug' - soya o'yinlari yordamida predmet hajmining ifodasi yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Yuqorida aytilganlarni, idrok qilgan talaba maqsadini tasvirda aniq ifoda etishga intiladi. Bu chizayotgan narsaga borliqqa nisbatan ijodiy munosabat bilan yondoshishda yuzaga chiqadi. Agar talaba chizayotgan borliqqa ijodiy yondoshmasa nafaqat ijodiy ishda, balki o'quv ishida ham obraz yaxlitligiga erishishi qiyin. Chizuvchi kishi har bir chizayotgan narsasidan o'ziga xos xususiyatini topa olishi kerak. Tabiatning har bir ko'rinishi, chizuvchida ijobiy yoki salbiy munosabat uyg'otadi. Tugatilgan ishni tomosha qilayotgan tomoshabin ham yuqorida aytilgan xayajonni o'z boshidan kechirishi kerak. Aks holda eng avvalo rassomni hayajonlantirmay chizilgan tasvir, tomoshabinda ham ishga nisbatan befarq munosabatni yuzaga keltirib chiqaradi.

Shu sababli talaba ishda muvaffaqiyatga erishi uchun o'zida borliqqa nisbatan badiiy ko'rish va badiiy kasbiy mahoratini rivojlantirishi kerak. Har bir talaba yuqorida aytilgan sifatlarni egallashga intilishi zarur. Biz ushbu sifatlarni qaysi yo'l bilan rivojlantirish kerakligi haqida fikr yuritamiz. Bu sohadagi yo'nalishlardan eng avvalo talaba xotira asosida rasm chizish malakasiga ega bo'lishi kerak. Rassom uchun kerakli sifatlarni tarbiyalaydigan yana bir boskich bu tasavvur asosida rasm chizishdir.

Yaxlit ko'rish inson ko'zi orqali amalga oshiriladi. Ko'z taxminan  $180^{\circ}$  kenglikdagi narsani ko'rgan holda faqatgina  $35^{\circ}$  oshmagan kenglikdagi narsalarni aniq ko'radi. Qolgan masofadagi narsalarni u ko'zni doimiy harakati asosida ko'radi. Bizni qiziqtirgan ya'ni shu  $35^{\circ}$  kenglikda ko'ringan narsalar asosiy narsa bo'lib uning yon atrofida esa ikkinchi darajali bo'lib ko'rinadi yoki go'yo qo'shilib ketgandek aniq ko'rinmaydi. Aynan shu aniqroq ko'ringan joy kompozitsiya markazi bo'lib hisoblanadi, atrof esa uncha aniq bo'lmagan holda idrok etiladi. Mana shu ko'rish jarayoni asosidagi kompozitsion tanlov rasmda ishlatilishi mumkin.

Topshiriqni bajarayotgan vaqtda talaba eng avvalo natura qaerda joylashtirilganligi, yorug'lik manbai qaysi tomondan, tabiiy yorug'lik tushyaptimi yoki sun'iyimi, uning nurlari naturaning qaysi bo'laklarini yoritmoqda, bu bo'laklar yuzasi qaysi rangda yoki materialdan ishlanganligiga e'tiborni qaratishi kerak. Bu

holat chizuvchida tus munosabatlarini idrok etishni yengillashtiradi, naturadagi tus birligi va asar yaxlitligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ishdagi yaxlitlikni ta'minlash, tus munosabatlari birligiga erishish uchun ba'zan naturani ko'zni yarim qisgan holda kuzatish tavsiya etiladi. Bu usul ishda yaxlitlikni saqlash hamda rasmning ifodali chiqishi uchun yaxshi natijalar beradi.

Rassom rasmning barcha unsurlari o'rtasidagi bog'lanishni kompozitsiya deb atab, bu aloqa tomoshabinga personajlar o'rtasidagi munosabatni aniqlash, mazmun g'oyasini ochish, rassom tasvirlagan vaqtdan oldin yuz berganlarni va nimalar yana sodir bo'lishini o'ylab topishga yordam beradi. Har bir aniq syujet o'ziga xos kompozitsion echimni talab qiladi. Biroq tasviriy san'atda shunday usullar mavjudki, ularni bilib va ijobiy qo'llab rassom o'z maqsadini aks ettiradi: Rasm asar g'oyasi bilan bog'lanmagan tasodifiy narsa bo'lishi mumkin emas. Rasmda ikkinchi darajali narsa bosh narsaga bo'ysunadi.

Kompozitsiyaning eng asosiy qonuni deb kartinaning yagona yaxlitligini aytish mumkin. Kompozitsiyadagi barcha elementlar bir-biriga bog'liq holda bir-birini to'ldiradi, diqqat markazini tashkil etadi, bunda barcha ikkinchi darajali bo'laklar bosh g'oyaga bo'ysunadi va bu yaxlitlikni ta'minlaydi.


Bajarilgan ishda kompozitsion yaxlitlikni shunday tushunish kerakki, u chuqur o'ylangan konstruktiv g'oya asosida tuzilgan bo'lsin, Agar kartina yaxlit idrok etilmas ekan u turli-tuman bo'laklarni bir-biriga «yopishtirilgan» holda ya'ni alohida alohida idrok etiladi natijada bizning xotiramizda asarning yaxlit obrazi emas bo'laklarigina qoladi.

Mukammal kompozitsiyaga erishish faqat uzoq mehnat natijasida yuzaga keladi. Bunday chizilgan tasvirdan biror - bir detalni olib tashlash yoki ko'shish mumkin bo'lmaydi. Yaxlitlik nafaqat o'zaro aloqa va kompozitsiya elementlarining bir - biriga bo'ysunishi bilan ya'ni qo'shimcha tarzda aloqa va o'zaro bog'lanishlar qonuniy va haqqoniy tarzda ifodalanishi lozim. Rassom qalamtasvirda turli vositalar ya'ni – chegara chizig'i (sirtning chegarasi), shtrix, tushevka, hamda nisbatlarga rioya qilish, simmetriya, ritm, turg'unlik va harakat, shu bilan birga perspektiva qonunlariga rioya qilgan holda tasvirni ko'radi.



## Qalamtasvirda perspektiva

“Perspektiva” soʻzi – fransuzcha boʻlib, “uzoqqa qarash” yoki “toʻgʻri koʻryapman”, yunoncha “oyna orqali toʻgʻri va aniq koʻraman” degan maʼnolarni anglatadi. Umuman olganda, perspektivani tasviriy sanʼatning grammatikasi deyish mumkin.



20 - rasm. Perspektiv tasvir

Perspektivaga oid boshlangʻich maʼlumotni biz Anaksagor (eramizdan 500 yil oldin), Demokrit (e.a. 460 - 370 y), mashhur astronom Ptolomey va boshqalar ishlarini ham uchratamiz.

Uygʻonish davrining buyuk siymosi, italiyalik mashhur rassom va olim Leonardo da Vinchi perspektivada uch yoʻnalish borligini aniqladi. Birinchidan, bir xil kattalikdagi narsalar uzoqlashtirilgan sari, bir toʻgʻri chiziq boʻyicha kichrayib borishini oʻrganib, buni chiziqli perspektiva deb nomladi. Ikkinchidan, narsalarning kuzatuvchidan uzoqlashgan sari havo qatlami taʼsiri ostida rangi oʻzgarib borishini aniqladi. Uchinchidan, narsalarning chegaralari chizuvchidan uzoqlashishi natijasida asta - sekin xiralashib borishini kuzatdi. Ushbu maʼlumotlar asosida u “Perspektiva tasviriy sanʼatning rulidir” deya yozgan edi.

Ma'lumki, narsalar shakli va o'lchamining katta - kichikligi o'zgarishi ularning uzoq-yaqinligi va holatiga bog'liq. Shuning uchun qog'oz tekisligiga hajmli narsaning ifodalanishi faqatgina uning tashqi ko'rinishini chizishni emas, perspektiv o'zgarish qoidalarini tushunishni ham talab etadi. Hajmiy shaklni tasvirlash bu – tasvirlovchi, tasvirlanayotgan predmet va atrof - muhit aloqalarini aniqlash natijasidir.

Hajmli predmet atrof-muhitdan ma'lum tekisliklar, qirralari va uchlari bilan ajralib turadi. Tasvirda atrof - muhitni predmetlar va fon tashkil etadi. Predmet tekisligi – biz chizayotgan tekislikka yer, stol usti, natura qo'yadigan joy mansubdir.

Ikki o'lchamli qog'ozda (kartina tekisligi) biz predmet tekisligini ifodalash yordamida chuqurlikni, uzoq planlarni ko'rsatishga erishamiz. Atrof - muhitning elementi fon hisoblanadi. Fon tasvirlanayotgan narsaning orqa tomoni bo'lib, buyumlarni ajratib turadi. Fon tekis yoki chuqur fazo bo'lishi mumkin.

Kartina tekisligida hajmli buyumni chizganda, biz fazoviy erkinlik va chuqurlikni ko'rsatmoqchi bo'lamiz. Buning uchun perspektiva qoidalarini bilish zarur. Ular quyidagilardir: ufq chizig'i, ko'rish nuqtasi, tutashuv nuqtasi.


**Ko'rish nuqtasi.** Rasm chizishda ko'pincha ish to'rt nuqtadan bajariladi: yuqori yon tomon, pastki yon tomon, yuqori o'ng tomon, pastki o'ng tomon. Mazkur ko'rish nuqtalari chiziqli perspektivani aniq ko'rsatishga imkon beradi (20 - rasm).

**Ufq chizig'i (gorizontal chiziq).** Ufq chizig'i orqali kartina tekisligida tasvirlanayotgan predmetning o'rni topiladi. Ufq chizig'i doimo rasm chizayotgan kishining ko'zi sathidan o'tadi. Ufq chizig'i predmet tekisligini ikkiga – past va baland qismga bo'ladi.


Ufg' chizig'i o'rtasida, ya'ni to'g'ri qaraganimizda ko'rinadigan barcha narsalarning o'rtasi ufq chizig'ining **tutashuv nuqtasi** deb nomlanadi.

Rasmda bu holat yaqqol ko'rinib turibdi. Chuqurlikdagi temir yo'l, simyog'ochlar, yo'lning chetlari – barchasi tutashuv nuqtasiga taqaladi. Uzoqlashgan sari mavjud narsalar ko'zimizga kichikroq bo'lib ko'rinadi. Perspektiv

o'zgarayotgan narsalarning yuqori va pastidan shartli chiziq o'tkazganda, mazkur shartli chiziqlar borib ufq chizig'ining tutashuv nuqtasiga taqaladi (21 - rasm).



21 - rasm. Temir yo'l va simyogochning perspektiv ko'rinishlari



22 - rasm. Interyer perspektivasi

Chiziqli perspektivaning asosiy qoidalari quyidagilardir:


1. Chizayotgan vaqtimizda biz ikki o'lchamga ega bo'lgan qog'ozda qanday qilib perspektiva qoidalaridan foydalangan holda uch o'lchamga ega bo'lgan hajmli predmetni tasvirlashni o'ylashimiz kerak.

2. Predmetlar tasviri biz kuzatayotgan joyga bog'liq holda o'zgarishini unutmaslik kerak.

3. Bir xil o'lchamga ega bo'lgan predmetlar tasvirlanayotgan bazada agar bizga yaqin bo'lsa – katta, uzoqroq borgan sari kichkina bo'lib ko'rinadi (22, 23, - rasmlar).

4. Ufq chizig'i ko'z balandligidan o'tadi deb faraz qilinadi.

5. Naturadagi parallel chiziqlar gorizont chizig'ining ma'lum bir nuqtasida tutashadi.



*23- rasm. Eksteryerda perspektiva holatlari*

### *Qalamtasvirda kompozitsion yechim*

Tasvirdagi barcha unsurlarning yagona g'oyaga bo'ysundirilishi kompozitsiya deyiladi. Kompozitsiya personajlar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash, asar g'oyasini ochish, rassom tasvirlagan vaqtgacha va undan keyin nimalar sodir bo'lishini o'ylab topishga yordam beradi. Tasvirda har bir syujet o'ziga xos kompozitsion yechimni talab qiladi. Biroq tasviriy san'atda shunday usullar mavjudki, ulardan maqsadli muammolar yechimida foydalaniladi:

Bularga quyidagilar kiradi:

- fazoda figuralarni guruhlashning turli usullari;
- yuza tekisligida fazoni tasvirlash;
- personajlarni ruhiy tasvirlash usullari;
- syujetning rangli yechimi;
- yorug'lik va soya berish;
- kontrastlilikni ta'minlash;
- ritmik tuzilish;
- fon, unsurlarni qo'llash;
- kartina o'lchami va formatini tanlash.


Rassom o'z asarida odamlarning nafaqat individual xususiyatlarini, balki ularning tipik belgilarini, ya'ni ushbu sinf odamlari xususiyatlarini o'xshash xarakterlar, o'xshash holatlarda ham topib ifodalaydi.

Bunda rassom odamlarning xususiyatlarini ham, tabiat hodisalari bilan bog'liq xususiyatlarni ham bo'rttirib ko'rsatadi.

Rassom personajlarni joylashtirishning qaysi bir usulini tanlamasin, har bir rasmda personajlar uning diqqat markazida bo'ladi, atrofda esa boshqa voqealar rivojlanadi. Ko'pincha bosh g'oya rasm o'rtasidan sal chetroqda, ikkinchi planda joylashtiriladi.

Kompozitsiyasi to'g'ri hal etilgan rasmda asar yaxlitligi mavjud bo'lib, ayrim narsalarni olib tashlash va qo'shishning iloji yo'q. Rasmda asar g'oyasi bilan bog'lanmagan tasodifiy narsa bo'lishi mumkin emas, ikkinchi darajali unsurlar

bosh g'oyaga bo'ysunadi. Bundan tashqari, rassom kompozitsiyaga tomoshabin diqqatini jalb etish tartibini o'rnatadi.



*Natyurmortni kompozitsion joylashuvi – 24 rasm*

Qalamtasvirda kompozitsion yechimni hal etish uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak.

“Kompozitsiya” – lotincha so'z bo'lib, “compositio” – tuzish yoki italyanча “componier” – qurish, tuzish ma'nolarini bildiradi. Uning tom ma'nosi – bo'laklar birligi, yaxlitlash demakdir (24 - rasm).

Bajariladigan har bir ish, qalamtasvir, rangtasvir yoki dekorativ ish bo'lmasin, uning asosida kompozitsion yechim yotadi. Demak, chizuvchi bajarayotgan ishning birinchi bosqichi kompozitsiya bo'lib hisoblanadi.

Kartinning yaxlitligi kompozitsiyaning eng asosiy qonuni hisoblanadi. Kompozitsiyadagi barcha elementlar o'zaro bog'liq holda bir-birini to'ldiradi,

diqqat markazini tashkil etadi. Bunda barcha ikkinchi darajali bo'laklar unga bo'ysunadi va bu yaxlitlikni ta'minlaydi.

Chuqur o'ylangan konstruktiv g'oya asosida ish ko'rilganligi bajarilgan ishda kompozitsion yaxlitlikni ta'minlaydi. Agar kartina yaxlit idrok etilmas ekan, u turli-tuman bo'laklarni bir - biriga "yopishtirgan" holda, ya'ni alohida - alohida idrok etiladi va bizning xotiramizda asarning yaxlit obrazi emas, bo'laklar qoladi.

Mukammal kompozitsiyaga erishish faqatgina uzoq mehnat natijasida yuzaga keladi. Shu darajadagi, chizilgan tasvirdan biror-bir detalni olib tashlash yoki qo'shish mumkin bo'lmasin. Yaxlitlik nafaqat o'zaro aloqa va kompozitsiya elementlarining bir-biriga bo'ysunishi, balki aloqa va o'zaro bog'lanishlarning qonuniy va haqqoniy tarzda ifodalanishi hamdir.

Rassom qalamtasvirda turli vositalar, ya'ni liniya-kontur, shtrix, tushevka hamda nisbatlarga, simmetriya, ritm, turg'unlik va harakat, shu bilan birga perspektiva qonunlariga rioya qilgan holda tasvirni ko'radi.

Qalamtasvir jarayonida quyidagi kompozitsion qoidalarga rioya qilish diqqat markazida turishi lozim:

1. Odam gavdasi yoki predmetlar tasvirini chizganda inson tanasining plastik tuzilishini hisobga olgan holda simmetriya qoidasiga rioya qilish.
2. Bir - biriga qarama-qarshi tomonlarining o'zaro mutanosibligi muvozanat hisoblanadi.
3. Kompozitsiya plastik yechimini topishda turg'unlik va harakat qoidasiga rioya qilish.
4. Katta va kichik shakllarning, harakat va tinchlikning, kontrast va o'zaro yaqinlikning hamda yorug'lik va soyaning o'zaro ritmik takrorlanishi.
5. Perspektiva qoidalariga rioya qilish.
6. "Oltin kesim" qoidasiga amal qilish.
7. Naturaga nisbatan chizilgan tasvirning kattalashtirilishi yoki kichraytirilishi, ya'ni masshtab va h.z.

Yuqoridagi qoidalarga rioya qilingan holda san'atdagi turli janrlardagi ishlar – haykaltaroshlik va arxitektura amallari bajariladi va bu jarayonda har bir san'at turi uchun tasvirlash vositalari turlicha bo'lishini esdan chiqarmaslik lozim.

### **O'quvchilarni tayyorlash jarayonida tasviriy san'atning zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish metodikasi**

O'qituvchining faoliyati dars o'tish bilan birga, o'quv metodik ishlarni olib borish, ilmiy bilimlarni tashviqot qilish, ilmiy tadqiqot ustida ish olib borish va kafedraning ilmiy salohiyatini oshirish, ko'rgazmali qurollarni tayyorlash, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars o'tish uchun slaydlar tayyorlash, maslahatlar berish, talabalar bilan ma'naviy - ma'rifiy tadbirlar tashkil etish, kafedra majlislarida ishtirok etishlar ham kiradi.

Pedagogik kasblarni tanlagan talabalarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- pedagogik kasbning shaxsiy va ijtimoiy qimmati, ahamiyatini, bozor iqtisodiyoti qonunlariga asoslangan demokratik jamiyatda uning o'rni, vazifalari va xususiyatlarini ochib berish;

- o'qituvchini pedagogik faoliyatga tayyorlashning tizimi, mazmuni, shakl va metodlarini bayon etish;

- oliy maktabda ta'lim - tarbiya jarayonining tashkil etilishini, mustaqil ishlash metodikasini o'rganishdan iborat. Kasbning mohiyatini chuqur anglashga, mustaqil o'qish, ilmiy ishlar, jamoat ishlarida ongli ravishda va faol qatnashishga yordam beradi. Bularni o'rganish bo'lajak o'qituvchilarning faoliyati va tafakkurini professional - pedagogik yo'nalishda shakllantirishga, oliy maktabda ta'lim olish sharoitlariga ko'nikish hosil qilishlariga imkon beradi. Unda pedagogik kasbning axloqiy xarakteri, o'qituvchi odobining tushunchalari, norma va qoidalari bayon etiladi. Bu bo'lajak mutaxassislarni ma'naviy - axloqiy jihatdan mukammal shakllantirishga yordam beradi.

Talabalarda o'qituvchi odobini shakllantirish pedagogika va psixologiya hamda ixtisoslik tasviriy san'at fanlarini o'qitish jarayonida ham amalga oshiriladi.



Bu fanlardan o'qitilayotgan mavzularning mazmuni bilan bog'liq ravishda talabalarning e'tibori kasbiy axloq - odob masalalariga jalb etiladi.

Istiqbolli rejalarning ba'zilarida oliy o'quv yurtini bitirib maktablarda, o'rta maxsus va kasb - hunar o'quv yurtlarida, korxonalarda ishlayotgan kishilar bilan uchrashuvlar, ularning professional malakasini oshirishga yordam beradigan boshqa tadbirlar ham mo'ljallanadi. Bu oliy maktabni bitirib chiqqan kishilar bilan uchrashuvlar, ularning professional malakasini oshirishga yorda beradigan boshqa tadbirlar ham mo'ljallanadi. Bu ish alohida diqqatga sazovordir. Chunki u mutaxassislar tayyorlash sohasida amalga oshirilgan barcha ishlar natijasining samaradorligini aniqlashga, xususan universitetni tamomlab chiqqan yosh o'qituvchilarning axloqiy sifatlari shu kuydagi talablarga qay darajada mos kelishini aniqlashga yordam beradi.

Talabalarning barkamol shaxs sifatida rivojlanishi – uning faolligiga bog'liq. Talabalar bajaradigan kasbiy o'quv - biluv mehnati, ijtimoiy foydali ishlar, unumli mehnat yoshlarda kasbiy malaka va ko'nikmalarni, qobiliyat va xarakterni, boshqa shaxsiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. O'qish va ijtimoiy foydali mehnat natijasida shaxsning fuqarolik qiyofasi tarbiyalanadi, shaxs va jamiyat manfaati yo'lida xizmat qilish ko'nikmasi hosil bo'ladi, mehnatga va mulkka munosabat hissi rivojlanadi. Faoliyatning barcha turlarida izchil qatnashish talabani mustaqilligi va ijtimoiy faolligini oshirishda asos bo'lib xizmat qiladi, ularda professional - kasbiy sifatlari va axloqiy fazilatlarini o'stirishga imkon beradi.

### **Talabani bilimdonligi**

Pedagogik mahorat yuksak darajadagi ma'naviy etuklik hamda pedagogik faoliyatning taraqqiy etishini, pedagogik texnikani egallashni, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi, fuqarolik va kasbiy mavqeni ifodalaydi.

Pedagogik mahoratning asosini pedagogik bilimdonlik tashkil etadi. Pedagogik bilimdonlik, deganda konkret tarixiy davrda qabul qilingan me'yorlar, normalar, standartlar va talablarga muvofiq pedagogik vazifani bajarishga qobillik va tayyorlik bilan belgolanadigan integral kasbiy - shaxsiy tavsifnoma tushuniladi.

Pedagogik bilimdonlik pedagogik sohada mahorat bilan ishlayotgan kishining ta'lim va tarbiya ishida insoniyat to'plagan barcha tajribalardan ratsional foydalanish qobiliyatini ko'zda tutar ekan, demak u etarli darajada pedagogik faoliyat va munosabatlarning maqsadga muvofiq usullari va shakllarini egallashi lozim bo'ladi.

Kasbiy - pedagogik bilimdonlikni bosh ko'rsatkichi, bu insonga , shaxsga yo'nalganlikdir.

Kasbiy - pedagogik bilimdonlik pedagogik voqelikni izchil idrok eta olish va unda izchil harakat qila olish malakasini qamrab oladi. Bu xislat pedagogik jarayon mantig'ining yaxlitligicha va butun tuzilmasi bilan birgalikda ko'ra olish, pedagogik tizimning rivojlanish qonuniyatlari va yo'nalishlarini tushunish imkoniyatini ta'minlaydi hamda maqsadga muvofiq faoliyatni konstruksiyalashni osonlashtiradi.

Bilimdonlik oliy maktab o'qituvchisi uchun o'ta muhim bo'lgan 3 ta holat bilan bog'langan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallashni taqozo etadi:

- odamlar bilan o'zaro aloqada bo'lishda, madaniy muloqotda bo'lish;
- fan sohasi bo'yicha axborotlarni qabul qila bilish va uni o'qitish mazmuniga moslab qayta ishlash va undan mustaqil tahsil olishda foydalana olish;
- o'quv axborotlarini boshqalarga bera olish.

Kasbiy - pedagogik bilimdonlik asosan 4 ta komponenti bilan xarakterlanadi:

- shaxsga, insonga yo'nalganlik
- pedagogik voqelikni izchil idrok etish;
- fan sohasiga yo'nalganlik
- pedagogik texnologiyalarni egallash

Hozirgi ta'lim jarayonida kasbiy - pedagogik bilimdonlik yana 3 komponent bilan to'ldiriladi:

- bilimdonlik, umuman, o‘z faoliyatini jahon pedagogik madaniyatini darajasida ishlab chiqilgan tajribalar asosida tashkil etish qobiliyati hamda unga va Vatanimizdagi pedagogikaga integratsiyalasha olish

- o‘z safdoshi vazifasi va innovatsion tajribalar bilan o‘zaro samarali munosabat o‘rnatish qobiliyati

- o‘z tajribalarini umumlashtirish va boshqalarga bera olish malakasida namoyon bo‘ladi.

Pedagogning kasbiy bilimdonligi kreativlik bilan xarakterlanadi.

Kreativlik - bu kasbiy hayot usuli, ko‘p qirrali ta’lim jarayoni va tizimining maqsadlari, mazmuni, texnologiyalari sathida yangi pedagogik voqelikni yaratish istagi va malakasidir. Kreativlik o‘qituvchiga innovatsion o‘zgarishlar oqimiga moslashib olishiga yordam beradi.

Har qanday darajadagi kasbiy bilimdon pedagogik refleksiya qodirdir.

Refleksiya – fikrlashning maxsus usuli bo‘lib, pedagogik voqelikka, tarixiy - pedagogik tajribaga, muayyan kasbiy mavqening tashuvchisi bo‘lgan o‘z shaxsiyatiga qayta nazar tashlashdir.

Yuqoridagi kasbiy pedagogik bilimdonlikni tashkil etuvchi barcha komponentlar murakkab tuzilmani hosil qilib, mutaxassisning “ideal modeli”ni shakllantira boradi va natijada zich birlashib ketadi hamda o‘qituvchi shaxsi faoliyati tavsifini belgilaydi.

Bilimdonlik faqat faoliyat jarayonida va faqat konkret kasb doirasida namoyon bo‘ladi va baholanadi.

Shu bilan bir qatorda o‘qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o‘qituvchi o‘quv predmetining o‘ziga xos tomonini, joy va sharoitni eng asosiysi, o‘quvchi - talabaning imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, o‘quvchi – talabani ta’limning markaziga olib chiqish kerak.

### ***Audio vositalar:***

Audio vositalar eshitish orqali axborotni o'rganish, o'zlashtirish imkoniyatini beradi.

Hozirda ko'proq audiovizual vositalar, ya'ni bir vaqtda eshitish va ko'rishga xizmat qiluvchi vositalar: kino va boshqa ovozli video tasvirlardan foydalaniladi.

Aslida esa amaliyotda mavjud sharoit va vaziyatdan kelib chiqqan holda, ijodiy yondashuv asosida mavjud vositalardan kompleks foydalanish eng yaxshi samara berishi mumkin.

### ***Tabiiy vositalar:***

Tabiiy vositalarga pedagogik texnologiya jarayonida o'rganish ko'zda tutilgan mazmunga tegishli barcha tabiiy narsalar kiradi. Bular odam va jonivorlar, o'simliklar va tabiat, asbob - uskunalar, buyumlar, mashinalar, mexanizmlar, inshootlar va shu kabilardan iborat.

Talaba - o'quvchi va o'qituvchi uchun zarur o'quv anjomlari hamda maktab jihozlari pedagogik texnologiyaning zarur vositalari hisoblanadi.

Umuman pedagogik texnologiyaning sifati va samaradorligi hozirgi kunda ko'p jihatdan barcha turdagi zarur vositalarning sifati va ulardan yuqori samaradorlik bilan foydalana bilishga bog'liq.

Bu vositalardan to'g'ri va unumli foydalanish o'qituvchining malaka, mahorat, ijodkorligi, izlanuvchanligiga bog'liq.

Bugungi kunda ko'proq audiovizual vositalar, ya'ni bir vaqtda eshitish va ko'rishga xizmat qiluvchi vositalar: kino va boshqa ovozli video tasvirlardan foydalaniladi.

Aslida esa amaliyotda mavjud sharoit va vaziyatdan kelib chiqqan holda, ijodiy yondoshuv asosida mavjud vositalardan kompleks foydalanish eng yaxshi samara berishi mumkin.

Men tasviriy san'at fani bo'yicha, o'quvchilarga kompyuter orqali **ArtRage** dasturida **dekorativ rangtasvirni** manzara misolida ishlashni tushuntirib o'taman.

## ArtRage dasturi

### ArtRage:

-**Roller** (Valik)

-**Oil Brush** (Mo'y qalam)

Referens “Bu dasturda ishlaydigan shahs” bu dasturda yozish, ishlash sifatida tanlangan foto yoki homaki chizma orqali mustaqil chizish mumkin.

Masalan: moybo'yoqni tabiiy bo'yoqqa taqlid qilib ishlashimiz mumkin. Bizning ishimiz **Speedpainting** nomli shakilda bo'ladi.


1. Yangi hujjat yaratamiz.

**Menu**→**Faile**→**New Painting... (Ctrl+N)**

2. Bizning kartinamiz uchun xolst o'lchami F4 – 450×650 pix format tanlaymiz.

3. Xolst g'adir- budirligini standart to'plam **Smooth Carvas** tanlanadi.

4. **Referens** “Bu dasturda ishlaydigan shahs” – foto yoki homaki chizmani **Tracing** (Kalka)-**Menu**→ **Tools** →**Tracing Options** → **Load Tracing Image...** (**Ctrl+T**) ko'rinishda yuklab olamiz.



Ushbu darsda Referens “Bu dasturda ishlaydigan shahs” **Tracing** bilan avtomatik ravishda nusxa ko'chiramiz. Yuklab bo'lingach **Automatically Choose Colors From Tracing** sozlagichida «belgi» turganligiga ishonch hosil qiling.

(Rang va kalkani avtomatik tanlash) –**Manu**→ **Tools** → **Reference Image...**  
Bundan tashqari siz tanlagan foto va referensni loqlashingiz va undan rangni tanlashingiz mumkin.

Yana har doim oldindan o'ylangan imkoniyatlarni va ihtiyoriy ranglar o'z did va ijodiy fikirlarni qo'shish mumkin bo'ladi.

Demak ishga tus manzaraning orqa plandagi asosiy ranglarini birinchi bosqichda beramiz. **Paintroller** ish qurolidan foydalanamiz.

(**Valik**) sozlagich bilan:

**Size (o'lcham) 100% Settings: Pressure (bosish) 0%**

**-Thinners (qalinligi) 0%**

**-Loading (quyuqligi) 100%** hamda **Auto Clean (Avto yuvish) [V]**

Bu sozlagichlarni qisqa yozamiz: **100/ 0-0-100/ [V]**

O'sha ish quroli bilan **Paint Roller (Valik). Size (Mo'y qalam) o'lchamini 50%** gacha kichraytiramiz. Yo'nalishi bo'yicha yirik mazoklar qo'yishga harakat qiling. Yana o'lchamlarni kichraytirib oldi plandagi hajmlarini tasvirlaymiz.

Endi eng ohirigi ishimizgacha **Oil Brush (mo'yqalam)** quroldan foydalanamiz. Moybo'yoq o'lchamining **Size (moybo'yoq o'lchami) 200%** va undan ko'proq qilib kattalashtiramiz. Standart **Settings ((sozlagichlar):**

**-Pressure (Bosish) 100% -**

**-Thinners (qalinligi) 0%**

**-Loading (Quyuqligi) 10%** gacha o'zgartiramiz.

Bundan tashqari: **Insta-dry (Qurish)[X] –AutoClean (Avto yuvish) [V] – Square Head (Kvadrat mazok) [X]**


**Size (Moybo'yoq o'lchami) Oil Brush (Moyqalam)** ish qurolini o'zgartiramiz yana **Pressure (Bosish)** parametr sozlagichlarini o'zgartirib **Loading (Mo'yqalam va moybo'yoq)** teksturasi chiziladi.

**Oil Brush (Mo'y qalam)** ish qurolini sozlagichida hamma sozlagichlarni o'chiramiz. Uni **Settings (Sozlagichlari)** blogidan **Reset (tashlash)** orqali amalgam oshiriladi. Standart sozlagichlardan **Size (O'lcham)** va **Loading (Bo'yoq qalinligi)** mo'yqalamni o'zgartiramiz.


Bu mo'yqalam mayda va bizning kartinamizni oldingi plandagi nozik detallarni chizamiz.




Tog manzarasi




Dengiz



Abstrakt



Plyaj



Osmon

Ushbu bobda maktabning tasviriy san'at dars jarayonida o'quvchilarning mahoratini takomillashtirish hamda o'quvchilarni tayyorlash jarayonida tasviriy san'atning zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish metodikasi keltirilgan bo'lib tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi tasviriy san'atning manzara janrida o'quvchilarni metodik bosqichlarda o'rgatish muammosi bo'yicha nazariy, amaliy, ilmiy hamda o'quv-metodik majmualar taxlil qilindi va mazkur muammo bo'yicha ilmiy – tadqiqot ishlari o'tkazilmaganligi aniqlandi.

Bu bobda rasm chizish asoslarini o'rganish narsaning o'ziga qarab, metodik izchillikda tasvirlash prinsipiga asoslanadi. Tabiatga muhabbat va o'ta



kuzatuvchanlik, to'g'ri tasvirlash kabi fazilatlar tasviriy san'at bilan shug'ullanadigan har bir talabaga xos bo'lmog'i kerak.

O'qituvchi va o'quvchi - talabaning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o'qituvchi talaba - o'quvchilarning bilim saviyasi, guruh harakteri, sharoitiga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'ladi, bular o'qituvchi va talaba - o'quvchilarga bog'liq.

Zamon talablaridan kelib chiqqan holda maktablarda tasviriy san'at darslarini zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib manzarani ishlashni ArtRage dasturidan foydalanib yoritib berilgan.

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib dars o'tish dars samaradorligini oshirganligi, talabalarning fanga bo'lgan qiziqishi yanada oshganligi kuzatiladi.

### **Tasviriy san'atdan tajriba - sinov ishlarini tashkil etish**

Ma'lumki kadrlar tayyorlash milliy dasturning asosiy maqsadi insonning intellektual va ma'naviy – ahloqiy jihatdan tarbiyalashga bog'liq. Keyingi vaqtlarda Respublika oliy o'quv yurtlarining moddiy - texnikaviy bazalarini mustahkamlash, axborot bilan ta'minlash darajasini rivojlantirish maqsadida ular ta'limning zamonaviy texnik vositasi, yangi dasturlar, darsliklar, qo'llanmalar, ko'rgazmali o'quv qo'llanmalar va boshqa turdagi o'quv metodik adabiyotlar bilan ta'minlash, ta'lim jarayonida qo'llanib kelinayotgan ta'lim berish va tarbiyalashning mazmuni, vosita hamda metodlarini rivojlantirish, oliy ta'limda o'qitish samaradorligini oshirish, uni takomillashtirish imkonini bermoqda. Buning uchun dars jarayonlari hozirgi ta'lim tizimi yo'nalishiga mos metodlar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish katta ahamiyatga ega. Biz olib borayotgan tajriba sinov ishlarining maqsadi «maktablarda o'quvchilarni tasviriy san'at o'qitishning nazariy va metodik asoslarini ishlab chiqish». Buning uchun, tabiiyki, tajriba sinov

uchun uning barcha jabhalarini, qamrab oluvchi, barcha jarayonlar uchun maqbul mazmun, metodika va vositalarni tanlab olish talab etiladi.

Demak, yoshlarga tasviriy san'atdan o'quv - tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va samaradorligini oshirishda kompyuter texnologiyalarini qo'llash maqsadga muvofiq bo'lib, o'quvchilarga zamon talablari asosida bilimlar berish va ularni amalda tadbiq etishlariga yordam beradi.

Maktab o'qituvchilari nafaqat fan asoslarini, balki ular eng zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalarni ham egallagan bo'lishlari, o'zlarining pedagogik mahoratlarini to'xtovsiz oshirib borishlari talab etiladi. Ana shu maqsadda o'qituvchilarning tasviriy san'atdan nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta'lim taraqqiyotida harakatlanuvchi kuch ekanligi; zamonaviy pedagogik texnologiyalarning tarixiy taraqqiyot bosqichlari; xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimida qo'llanib kelinayotgan interfaol metodlar; zamonaviy pedagogik texnologiyalarning tasviriy san'at mashg'ulotlarida qo'llanish imkoniyatlari; tasviriy san'at mashg'ulotlarida kompyuter texnologiyalarining qonuniyatlaridan samarali foydalanish, uni amaliyotda qo'llash yo'llari; o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalari hamda ijodiy ish natijalarini nazorat qilish va baholash yo'nalishlari bo'yicha bilimlarini bo'lishi maqsadga muvofik.

Tajriba - sinov ishlari rejasiga ko'ra rangtasvir darslarida o'quvchilarni fanga badiiy munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan quyidagi mavzularda dars ishlanmalari tayyorlandi:

1. Kompozitsiya tuzish usullari, nazariyasi va bosqichlari. Oddiy manzara kompozitsiyalarini tasvirlash.

2. Kompyuterning ArtRage studio grafik dasturi yordamida ijodiy manzara kompozitsiyalari hosil qilish va ranglash.

Amaliy ishlar nafaqat dars jarayonida balki sinfdan tashqari ishlarda hamda o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish orqali muntazam ravishda amalga oshirib borishi mumkin.

## **O'zbekistonning taniqli rassom, professor - o'qituvchilarining tasviriy ijodiy ishlari**

O'zbekistonning mustaqilligi milliy tasviriy san'atni taraqqiyotiga zamin yaratdi. Bu davrda tasviriy san'atning rangtasvir, xaykaltaroshlik, grafika turlari, uning ko'pgina janrlari rassom va xaykaltaroshlarning erkin ijodiy faoliyatlar keng tus oldi. Sobiq Ittifoq davrida ijodkorlar yagona sotsialistik realizm oqimida ijod qilgan bo'lsalar, xozir ular ham ikkilanmasdan o'zlarini qiziqtirayotgan avangardizm, romantizm, impresionizm, abstrakstionizm va boshqa qator oqimlarda va mavzularda yuksak badiiy saviyada asarlar yaratmoqdalar. Mamlakatimizda tasviriy san'atning taraqqiyotiga O'zbekiston Badiiy Akademiyasini tashkil etilishi ham muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur Akademiya qoshida Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomchilik va dizayn instituti, San'atshunoslik ilmiy - tadqiqot instituti, ko'plab rassomchilik, dizayn kollejlari, "San'at" jurnali faoliyat ko'rsatmoqda. Milliy rassomchilik va dizayn institutida, tasviy san'at yo'nalishlardagi kollejlarda jaxon standartlariga mos keladigan milliy kadrlar etishib chiqmoqda va ular O'zbekiston san'atini yangi bosqichiga olib chiqishi shubxasizdir.

Mustaqillik yillarida ijod qilayotgan rassom va xaykaltaroshlarimizning yutuqlari shundaki, ular birinchidan erkin ijod yo'liga o'tganliklari bo'lsa ikkinchidan milliy badiiy an'analarni davom etdirish, milliylik va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi, asarlarda yangi, zamonaviy, ilg'or tasviriy texnologiyalarni qo'llash kabi muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritmoqdalar.

Mustaqillik ne'matidan baxramand bo'lgan keksa va o'rta avlod rassomlarimiz ijodida ham ijodiy ko'tarinlik ko'zga tashlanadi. Uni M. Saidov, N. Qo'ziboev, M. Boboev, V. Burmakin, M. Yo'ldoshev, J. Quttimurodov, T. Mirjalolov, T. Kuryozov, A. Ikromjonov, J. Umarbekov, B. Jalolov, A. Mirzaev, Z. Faxriddinov, R. Xudayberganov, A. Mo'minov, A. Nuriddinov, A. Tyurin, O. Kazokov kabi rassom va xaykaltaroshlar ijodida ko'rish mumkin.

Milliy istiqlol g'oyalari bilan sug'orilgan bunday portret janridagi yaratilgan asarlar qatoriga Amir Temur, Alisher Navoiy, Jamoliddin Manguberdi, Kamoliddin Bexzod, Nodirabegim, Bibixonim, Spitamen portretlarini kiritish mumkin.

Manzara va natyurmort janrlarida samarali ijod qilayotganlardan orasida L. Salimjonova, A. Mo'minov, S. Abdullaev, I. Xaydarov O. Qozoqov, A. Mirsoatov kabi rassomlarni ko'rsatish mumkin.

Ularning asarlari Vatan jamoli, uning meva va sabzavotlari yuksak badiiy saviyada ishlangan bo'lib, yoshlarni Vatanni sevishga, ni asrab avaylashga, uni ko'paytirishga undaydi, tabiatdagi nafosatdan zavqlanishga chorlaydi.

Tarixiy, turmush va boshqa janrlarda yaratilgan asarlar orasida B. Jalolovning "Oltin asr", "Koinot ustunlari", "Abadiyat gumbazi ostida", S. Alibekovning "G'aroyib sharbat xidi", J. Umarbekovning "Zilzila", "Havorang musiqachilar", V. Oxunovning "Buddaning tongi sayri" kabilar diqatga sazovordir.

A. Isaev, J. Usmonov, A. Roziqov, R. Temurov, T. Axmedov, T. Karimov, Sh. Abduraxmonov, B. Ismoilov kabi yosh rassomlar ham barakali ijod qilmoqdalar. Ularning ijodiy ishlarida reallik, oydinlik, sharqona nafislik, umumiy falsafiy tafakkur, badiiy ko'rkamlik, tugallik, sokinlik va ijodkorlik to'la o'z ifodasini topadi.

Chingiz Axmarovning nomi bilan bog'liq mahobatli rangtasvir bu davrda yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Respublikamizning ko'plab jamoat va madaniy binolari, shu qatori Toshkent metrosi bekatlariga ishlangan devoriy suvrat, mozaika, vitrajlar halqimizga estetik zavq bag'ishlamoqda.

Bu borada A. Aliqulov, B. Olimxonov, A. Ikromov, A. Isaev, E. Muhammadiev, N. Sulstonov, N. Xolmatov, Sh. Muhammadjonov, A. Buxorboev, T. Boltaev, X. Nazarov kabilar ustozlari an'analarni davom etdirib yangidan - yangi muvaffaqiyatlarni erishmoqdalar.

Mozaika, vitraj bo'yicha B. Jalolov, A. Buxorboev, V. Gan, I. Egorovlar barakali ijod qilishib "Umar Xayom tushi", "Nimaga tug'ilganimni xech kim aytmaydi", "Navro'z", "Tuman ma'budasi", "Abadiyat gumbazi ostida", "Buyuk

soxibqiron - buyuk bunyodkor”, “Sport o’yinlari tarixi”, “Buyuk ipak yo’li”, “Flora” kabi asarlar yaratdilar.

O’zbekistonda rangtasvir san’ati o’z taraqiyotining yangi bosqichiga ko’tarilmoqda va iqtidorli yosh rassomlar etishib chiqmoqda.

O’zbekistonda xaykaltaroshlik tasviriy san’atning mustaqil turi sifatida o’zining yangi taraqiyot bosqichini o’tamoqda.

Mustaqillik yillarida o’zbek xaykaltaroshlaridan K. Jabborovlar, K. Norxo’rozov, J. Quttimurodov, E. Aliev, A. Raxmatullaev, N. Bondeladze, V. Degtyarov, L. Ryabstev, J. Mirtojiev, U. Mardievlarning samarali mehnat qildilar. Bu xaykaltaroshlarning asarlari orasida o’zining yuksak badiiyligi bilan J. Mirtojievning “Abdulla Qodiriy” nomli ishi ajralib turadi.

Ular orasida E. Aliev, N. Bandeladze, V. Degtyarovlarning Toshkentdagi milliy bog’ uchun yaratilgan “Alisher Navoiy” (1991) nomli yodgorlik xaykali, A. Raxmatillaev va P. Podosinnikovlarning Navoiy shahriga o’rnatilgan Alisher Navoiy xaykali (2001). I. Jabborov va K. Jabborovlarning Toshkentning Amir Temur xiyoboniga o’rnatilgan Amir Temur xaykali (1993), Shaxrisabz shahrida o’rnatish uchun yaratgan Amir Temur xaykallari (1996) o’zining yuksak badiiyligi bilan diqatga sazovordir.

I. Jabborov va K. Jabborovlar tomonidan yaratilgan Amir Temur xaykali (1996) uning 660 - yilligi munosabati bilan Shaxrisabzda o’rnatildi. Xuddi shu mualliflarning Axmad Al - Farg’oniya bag’ishlangan ishi 1998 yilda Farg’ona shahri uchun bunyod etildi.

Xalq qahramoni Jaloliddin Manguberdi obrazi (1998) I. Jabborov va K. Jabborovlar tomonidan yaratildi va u Urgench shahrini bezab turibdi.

Iqtidorli xaykaltarosh R. Mirtojiev tomonidan Andijon shahrida o’rnatish uchun yaratilgan Zaxiriddin Muhammad Bobir, Cho’lpon xaykallarini Toshkent shahri uchun mo’ljallangan Abdulla Qodiriy, Jizzax shahri uchun “Ona” yodgorlik - xaykallari o’zining yuksak badiiyligi bilan boshqalardan ajralib turadi.

1999 yilda o’zbek xalq dostoni “Alpomish” ning ming yilligi nishonlandi. Bu sanaga bag’ishlab A. Raxmatullaev va boshqalar tomonidan yodgorlik majmuaini

yaratdilar. Unda Alpomish bilan bir qatorda Barchinoy va Yodgor obrazlari ham aks etdirilgan va u Termiz shahrida o'rnatildi.

Mustaqillik yillarida o'zbek grafik rassomlarining ijodida milliylik va zamonaviylik uyg'un rivojlanayotganligi yaqol ko'zga tashalanadi. Keksa va o'rta avlod rassomlari Q. Basharov, T. Muhamedov, M. Kagarov, M. Sodiqovlar bilan bir qatorda V. Apuxtin, G'. Boymatov, A. Mamajonov, B. Ismoilov, D. O'razaev, S. Isxoqov, T. Ayupov, T. Axmadaliev, R. Azizov, G. Sultonova, L. Ibragimov kabilar samarali mehnat qilmoqdalar. Ular tomonidan kitob grafikasi, plakatga doir asarlari mazmuni va g'oyaviyligi bilan diqqatga sazovordir. Buni V. Apuxtinning "Koinot-inson", G'. Boymatovning "Urgutda to'y", A. Mamajonovning "Kurash", "Eski shahar", T. Ayupovning "Mavzu", T. Axmadalievning "Senga omad Temur", L. Ibragimovning "Osiyo okeani", "Bahor", M. Sodiqovning "Buxoro", S. Redkinning "Eski Samarqand", N. Kolonovning "Kulol", Sh. Muxammadjonovning Maxmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" nomli asarlarida ko'rish mumkin.

O'zbekiston tasviriy san'atida yorqin iz qoldirgan rassomlarimiz Chingiz Ahmarov, Ro'zi Choriev, Rahim Ahmedov, O'rol Tansiqboev, Akmal Ikromjonov va boshqa ko'plab mo'yqalam sohiblari shular jumlasidandir. Ularning shogirdlari, izdoshlari bo'lgan quyidagi rassomlar Mustaqillik yillarida ham samarali ijod qilib kelmoqda.



### **Akmal Nur**

Akmal Nuriddinov (Nur) 1959 yil Namanganda tug‘ilgan. 1984 yilda M. Uyg‘ur nomidagi Toshkent davlat san‘at institutini tamomlagan. 1990 yildan O‘zbekiston Badiiy Akademiyasining ijodiy birlashmasi a‘zosi. 2005 yilda O‘zbekiston xalq rassomi bo‘ldi. 2012 yildan O‘zbekiston Badiiy Akademiyasini boshqarib kelmoqda.

Rassomning ijodiy ishlari O‘zbekiston davlat san‘at muzeyi, Badiiy Akademiyaning ko‘rgazmalar direksiyasi, Urganch davlat galereyasi va boshqa joylarda saqlanadi. Shuningdek, Yugoslaviya, AQSH, Hindiston, Shveysariyadagi muzey va galereyalarda, Gollandiya, Germaniya, Belgiya, Avstraliya, Isroil, Kanada, Turkiyaning xususiy kolleksiyalarida ham bor.

A. Nur ijodida muhabbat mavzusi etakchilik qiladi. “Muhabbat olmasi”, “Muhabbat bog‘i”, “Muhabbat daryosi”, “Muhabbat oroli” nomli ishlar shular jumlasidandir. Rassom ushbu asarlarda turli ramziy obrazlardan – oy, baliq, qayiq, buqa, shox va boshqalardan foydalangan.



*Akmal Nur. Ilohiy nur. 2014.*



*Akmal Nur. Kentavrlar jangi. 2008 – 2009.*





### **Javlon Umarbekov**

O‘zbekiston xalq rassomi Javlon Umarbekov 1946 yilda Toshkent shahrida tavallud topgan. 1961 - 1966 yillarda P.P. Benkov nomidagi respublika rassomlik bilim yurtida ta’lim olgan. Ana shu talabalik yillarining o‘zidayoq Toshkent shahrida o‘tkazilgan ko‘rgazmada qatnashib (1965 y.) “Hosil” nomli asari bilan birinchi mukofotga sazovor bo‘lgan. J. Umarbekov “Husayn Boyqaro va Alisher Navoiyning yoshligi”ga bag‘ishlangan, 1968 yilda yaratilgan asarida ikki do‘stning sharqona obrazini tasvirlaydi.

Javlon Umarbekov o‘z ustozini Chingiz Ahmarovdan nafaqat ta’lim oladi, balki san’atga sadoqat, ajdodlar merosiga hurmat va muhabbatni ham o‘rganadi.

San’atkor rang – barang kompozitsiyalar, portretlar, boy mazmunli manzara va natyurmortlarning muallifidir. Uning asarlarida tarixiy shaxslar qiyofasi kompozitsiyalar qamrovida gavdalanadi. Bu o‘rinda ayniqsa Al Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Amir Temur kabi tarixiy shaxslar obrazlarining to‘laqonli gavdalanishi diqqatga sazovordir. Javlon Umarbekovni «Sharq kuychisi», «O‘zbek Pikassosi» deb ham atashadi.



*Javlon Umarbekov. Saraton. 1975.*



*Javlon Umarbekov. 1966. Zilzila. 2008.*



### **Alisher Mirzaev**

O‘zbekiston xalq rassomi, rangtasvir ustasi Alisher Mirzaev 1948 yilda Toshkent shahrida tavallud topgan. Zamonaviy rangtasvir san’atining ilg‘or vakillaridan biri.

Rassom asarlari bugungi kunda xalqimiz hurmatini qozonish bilan birga, ko‘pgina xorijiy davlatlarda ham ma’lum va mashhurdir. Bu borada, ayniqsa, Germaniya, Bolgariya, Ruminiya, Italiya, Fransiya kabi xorijiy davlatlarda qo‘lga kiritgan muvaffaqiyatlarini ta’kidlamog kerak. Rassom ona tabiat bag‘rida o‘zbekona an’analarini, to‘ylarni, beg‘ubor o‘zbek bolalarini, lohar qizlarni, mushtipar onalar kabi obrazlarni aks ettira olishiga muvaffaq bo‘lgan. Jumladan, “Toshkent – tinchlik va do‘stlik shahri” triptixi, “Bolaxonada”, “Intizorlik”, “Yosh oila haqida qo‘shiq” kabi o‘nlab asarlari moybo‘yoqlarda o‘z aksini topdi.



*Alisher Mirzayev. Qo'girchoklar. 2003. Diptix*



*Alisher Mirzayev. Ikkita aylana. 2013.*



### **Ortiqali Qozoqov**

Taniqli o‘zbek rassomi Ortiqali Qozoqov 1960 yilda Namangan viloyatida dunyoga kelgan. Atoqli ijodkor yuksak mukofot – O‘zbekiston Badiiy Akademiyasining “Oltin medali” (1997 yil) hamda Vatan ravnaqi yo‘lida qo‘shgan hissasi uchun “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat arbobi” faxriy unvoni sohibidir.


Rassomning shaxsiy ko‘rgazmlari nafaqat yurtimiz, balki Vashington (1991), Moskva (1994), Izmir (1995), Nagano (1999), Lyubek (1997) kabi qator shaharlarda namoyish qilingan. O. Qozoqovning asarlari Kipr, AQSH, Fransiya, Italiya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Ispaniya, Belgiya, Turkiya, Yugoslaviya, Marokash, Kanada, Isroil, Niderlaniya, Janubiy Koreya va ko‘plab boshqa xorijiy davlatlar muzeylari, badiiy galereyalari va xususiy to‘plamlardan o‘rin olgan.



*Ortiqali Kazokov. Hayot baxti. 2000.*



*Ortiqali Kazokov. Lolalar. 2006.*



### **Lekim Ibrohimov**


O‘zbekiston xalq rassomi, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi, professor Lekim Ibrohimov 1945 yilda Olmata viloyatida tug‘ilgan. 2001 yil O‘zbekiston xalq rassomi, 1998 yilda O‘zbekiston Badiiy Akademiya Oltin medali bilan taqdirlangan bo‘lsa, 1999 yil O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi akademigi bo‘ldi.

L. Ibrohimov ijodida Sharq mavzi asosiy o‘rin tutadi, xalq ertak va dostonlari, o‘zbek va uyg‘ur mumtoz she‘riyati asosida yaratgan asarlari o‘zining lirik ohangi, mazmuni bilan e‘tiborini tortadi: “Amir Temur”, “Alisher Navoiy”, “Bobur” portretlari, “O‘zbek xalq ertaklari”, “So‘qoq qizlari” turkum asarlari va boshqalar. L. Ibrohimovning xorijiy mamlakatlarda shaxsiy ko‘rgazmalari uyushtirilgan, xalqaro va respublika ko‘rgazmalarida asarlari bilan ishtirok etgan.

Uning 2000-2012 yillar mobaynida yaratgan «Ming farishta va bir surat» mega-asari rekord oʻrnatgan. Mega-asar Praga, Moskva va Toshkentda namoyish etilgan. Yaxlit rasmning hajmi 500 metr kvadratdan oshadi. Kartina va konstruksiya ogʻirligi 22 tonnadan iborat. Pannoning balandligi 8 metr, uzunligi esa 66 metrni tashkil etadi.



*Lekim Ibragimov. "Mingta farishta va birta kartina".*



*Lekim Ibragimov. "Zerikgandan ko'zgalgan vaqt".*





### **Bahodir Jalolov**

Bahodir Jalolov 1948 yil Toshkentda tugʻilgan. 1974 yil I.E. Repin nomidagi Leningrad davlat rangtasvir, haykaltaroshlik va meʼmorlik institutini tamomlagan. Yoshlik yillarida portret sanʼatining ustasi Abdulhaq Abdullaevdan taʼlim olgan.

U Oʻzbekiston Xalq rassomi, Oʻzbekiston Badiiy Akademiyasi haqiqiy aʼzosi, Qirgʻiziston Badiiy Akademiyasi haqiqiy aʼzosi, Rossiya Badiiy Akademiyasining faxriy aʼzosi, K.Bexzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti professoridir. 1991 y. A. Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Davlat mukofoti laureati boʻlgan.

Uning ijodiga Sharq va Gʻarb, akademizm va modernizm, reallik va fantaziya, intuitsiya va echimning aniqligini taqqoslash, dastgohlilik va mahobatlilik, tekislilik va fazoviylik xos. Rassomning asarlari Toshkentdagi Oʻzbekiston davlat sanʼat muzeyi, Oʻzbekiston Tasviriy sanʼat galereyasi, Moskva davlat Tretyakov galereyasi, Rassomlar uyushmasi konfederatsiyasining xalqaro Fondi, Zamonaviy sanʼat muzeyi, Londondagi Buringem saroyi va Britaniya muzeyida, shuningdek, koʻplab chet el shaxsiy toʻplamlarida saqlanadi.

Bahodir Jalolov portret san'atida ko'p yutuqlarga erishdi. Uning to'laqonli asarlarida o'zbek xalqining sevimli farzandlari siymosi o'z ifodasini topgan. Bu o'rinda ayniqsa akademik rassom O'rol Tansiqboev, buyuk olim, akademik Vohid Zohidov, san'atning mashhur darg'alari Komil Yormatov, Malik Qayumov, Muhiddin Rahimov, Hamro Rahimova, Akrom Toshkanboev, Damir Ro'ziboev kabi ulug'lar siymosi so'zimizga misoldir.



*Bahodir Jalolov. Hayol.*



*Bahodir Jalolov. Balans.*



### **Dilorom Mamedova**

Dilorom Mamedova 1974 yil Toshkent shahrida tavallud topgan. 1998 yildan O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi ijodkorlar uyushmasi a‘zosi.

D. Mamedova – zamonaviy ijodkor rassomlardan biri bo‘lib, uning ijodi asosan serquyosh O‘zbekistoning go‘zal tabiatiga bag‘ishlangan. Rassomning sevgan mavzusi vatanimizning boy madaniyati, uning chuqur o‘tmishiga tayangan an‘analari xisoblanadi. Uning realistik janrdagi ko‘pgina asarlarida milliy urf-odatlarimiz aks etgan ijodiy namunalarni ko‘rishimiz mumkin. Rassom boshqa yo‘nalishlarda - avangard, abstraksiya, xolstga ishlangan grafika va mozaika uslublarida ham ijod qiladi. O‘ziga xos xolstga ishlangan grafikasi qiziq, biroq mayda va mashaqqatli bo‘lib oddiygina gelli ruchkada ishlanadi.


Dilorom Mamedova shahar, respublika va xalqaro ko‘rgazmalarda ishtirok etib faxrli o‘rinlarni egallagan. 2013 yil rassom “Mustaqillik” kuniga bag‘ishlab o‘tkazilgan “Eng ulug‘, eng aziz” ko‘rik tanlovida 1 - o‘rin, Xitoyda o‘tkazilgan

“Biennale - 2013”da 1 - o‘rin oldi va “Yilning eng yaxshi rassomi” diplomi bilan taqdirlandi.

Bugungi kunda rassomning asarlari O‘zbekiston davlat san’at muzeyida, Moskvadagi “Nikor” muzeyida va Germaniya, Shveysariya, Angliya, Yaponiya, Rossiya, Turkiya, Avstraliya, Xindiston, Xitoy, Isroil va AQSHdagi shaxsiy kolleksiyalardan joy olgan.



*Dilorom Mamedova. Samon.*



*Dilorom Mamedova. Togdagi yulak.*



### **Shahnoz Abdullaeva**

Shahnoz Abdullaeva 1965 yilda Toshkentda tugʻilgan. 1989 yil Toshkent davlat teatr va rassomchilik institutini tamomlagan. Uning ilk va bosh ustosi professor Chingiz Ahmarov boʻladi. Sh. Abdullaeva Oʻzbekiston Badiiy Akademiyasi aʼzosi. Uning ijodida Sharq ayollari, afsonaviy obrazlar, shoiralar etakchilik qiladi. Ayniqsa, farishtalar mavzusiga koʻp murojaat qilgan. Sababi rassom farishtalar koʻrinmas boʻlsada, ularning mavjudligiga, bizning yonimizda boʻlishiga ishonadi.

Sh. Abdullaevaning asarlari Oʻzbekiston davlat sanʼat muzeyi, Badiiy koʻrgazmalar direksiyasi, Urganch va Toshkentdagi tasviriy sanʼat galereyalaridan, shuningdek, AQSH, Germaniyadagi galereyalar, Yaponiya, Livan, Finlyandiya, BAA, Rossiya, Buyuk Britaniya, Hindiston kabi mamlakatlar elchixonalaridan oʻrin olgan.



*Shahnoz Abdullaeva. Mushuk bilan xonim. 2012.*



*Shahnoz Abdullaeva. Nafislik. 2012.*



### **Alisher Aliqulov**

O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi, “Shuhrat” medali sohibi Alisher Aliqulov ustoz rassomlar — G‘afur Qodirov va Rustam Xudoyberganovdan rangtasvir sirlarini o‘rgandi. Uning talabalik yillarida ishlagan “Buyuk imperiyaning halokati” nomli diplom asari hozirda Milliy rassomlik va dizayn institutida saqlanmoqda.

Alisher Aliqulov rangtasvirning mahobatli va dastgohli janrlarida birdek ijod qiladi. Musavvirning 1996 yili poytaxtimizda bunyod etilgan Olimpiya shon-shuhrati muzeyiga ishlangan “Qadimgi Baqtriya sport o‘yinlari” nomli pannosini sara asarlar sirasiga kiritish mumkin. Shuningdek, “Uloq”, “Kurash”, “Poyga”, “Chavandozlik”, “Nayza uloqtirish”, “Tosh ko‘tarish” kabi asarlarida ham milliy o‘yinlarimiz rang-barang, murakkab kompozitsiyaga ega realistik yo‘nalishda yaratilgan.

Ijodkor 1996 yili Temuriylar tarixi davlat muzeyi uchun “Samarqand bozori” asarini ishlagan. Muzey zaliga ishlangan yana bir asarda “Amir Temurning To‘xtamishxon ustidan qozongan g‘alabasi” aks etgan.



2002 yili O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi uchun “Amir Temur va jahon tarixi” pannosini ishlagan. Hozirda uning mahobatli rangtasvir asarlari vatanimizning turli madaniy va ma’muriy binolarini bezab turibdi.



*Alisher Aliqulov. Elchilarning kabuli. 2004.*



*Alisher Aliqulov. Tuman.*



### **Rustam Xudoyberganov**

Rustam Xudoyberganov 1970 yilda Toshkent Davlat pedagogika instituti “Badiiy grafika” fakul’tetini (hozirgi TDPU)ni tugatgan. 1972 - 1975 y. Xar’kov (Ukraina) Badiiy Sanoat institutida o‘qigan va 1979 yilda A. Ostrovskiy nomli teatr va rassomlik institutining “Mahobatli rangtasvir” bo‘limini tamomlab, o‘z ijodiy faoliyatini yoshlarga ta’lim berishga bag‘ishladi.

Uning monumental asarlari Toshkent davlat konservatoriyasi (Vitraj), Toshkent, Termiz, Urganch, shuningdek, Rossiya, Turkmaniston, Tojikiston kabi chet el shaharlaridagi jamoa binolarini bezab turmoqda. Rassomning “Amir Temur portreti”, “Bobur”, “Jaloliddin Manguberdi”, “Sulton Abdusaid mirzo”, “To‘maris”, “Feruz portreti”, “Spitamen”, “Momo”, “Hojar xola”, “Otam portreti” va “Aslo taslim bo‘lmaymiz” (J.Manguberdi) tarixiy kartinalari kabi portret asarlari tomoshabinlar e’tiboriga tushgan.



*Rustam Xudoyberganov. Toshkent oqshmda. 2014.*



*Rustam Xudoyberganov. Obdorlar. 1985.*



**Malik Nabiev- O'zbekiston halq rassomi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, O'zbekiston badiiy akademiyasining akademigi**

Nabiev Malik 1916 yilda Toshkent shahrida tavallud topgan va 2008 yilda vafot etgan. Rangtasvirchi rassom, pedagog. O'zbekiston badiiy akademiyasining akademigi, O'zbekiston halq rassomi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi.

Nabiev Malik tasviriy san'atning ilk saboqlarini rassom Baxrom Hamdamiydan o'rgangach, ustoz maslaxatiga ko'ra 1933 yilda rassomlik bilim yurtiga o'qishga kiradi. 1937 yilda bilim yurtini tugatganidan so'ng shu erda o'qituvchilik faoliyatini boshlaydi. 1962 yilda Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogik instituti badiiy - grafika fakultetini tugatgan. O'sha yillarda uning san'at

borasida mustaqil ijodiy faoliyati boshlangan edi. Rassom urushning og'ir yillarida qishloqlarni kezib, portretlar ishladi, fashistlarni qoralovchi plakatlar chizib, chaqiriqlar, shiorlar yozib, urush orqasidagi mehnat bilan g'alabani yaqinlashtirishga harakat qildi.

Rassom o'z faoliyati davomida tarixiy shaxslar portreti, tarixiy voqealarni tasvirlashga juda qiziqar edi.

Tarixiy shaxslar obrazini yaratish naqadar mushkulligiga qaramasdan ijodkor o'zining tinimsiz mehnati tufayli buyuk siymolar obrazini yuksak badiiy saviyada yarata oldi. Ular amir Temur, Beruniy, Bobur, Ibn Sino, Jomiy va Navoiy, Al Roziy, Al Xorazmiy kabi bir qancha yirik olim, shoir, davlat arboblarning obrazlaridir.

Ana shunday asarlardan biri 1962 yilda yaratilgan Zaxriddin Muhammad Bobur portretidir. Mazkur asarni yaratish maqsadida rassom ko'p yillar davomida izlanishlar olib bordi. U Bobur yashagan joylarda-Andijon, Samarqand, shaharlarida va Afg'oniston, Xindiston kabi shaharlarda bo'ldi. Bobur haqida yaratilgan mo'jaz rangtasvir asarlari bilan tanishdi.

Rassomning ko'p yillik tinimsiz mehnati natijasida yaratilgan Bobur portreti olqishlarga sazovor bo'ldi.

Beruniy tavalludiga 1000 yil to'lishi munosabati bilan 1973 yilda Beruniyning eng yaxshi portreti uchun e'lon qilingan tanlovda Malik Nabievning ishi birinchi mukofotni oldi. Bu portret YUNESKO ning "Kur'er" jurnali muqovasida va xorijiy mamlakatlarning ko'pgina jurnal va gazetalarida ham berildi.

M. Nabiev ijodida 1994 yilda yaratilgan "Amir Temur portreti" asosiy o'rinni egallaydi. Bu asarda yozish istagi 1941 yilda soxibqiron go'ri ochilib uning kalla suyagi olingani hamda bu asosda Amir Temurning xaykalini rus xaykaltaroshi M. Gerasimov tomonidan ishlashga kirishilgan paytdan boshlangan edi deb eslaydi rassom. Sohibqironning bo suyagini tarix muzeyida o'z ko'zi bilan ko'rgan M. Nabiev uning portretini ishlashga kirishgan edi.

Buyuk shaxsni portretini ishlash qanchalik ma'suliyatli va murakkab bo'lganligini bilgan rassom bunga ellik yildan ortiq vaqt sarfladi. Bu davrda u Xindiston, Eron, Turkiya, Angliya, Franstiya, Ispaniya kabi mamlakatlarning muzeylari va kutubxonalarida saqlanayotgan Amir Temur hayoti va faoliyati bilan bog'liq bo'lgan mo''jaz rangtasvir asarlarini u xaqda yaratilgan ko'plab adabiyotlarni o'rgandi.

Oxir oqibatda davlat arbobi, harbiy qo'mondan obrazini realistik tarzda zo'r maxorat bilan yaratishga muvaffaq bo'ldi.

1994 yilda eng yaxshi yaratilgan Amir Temur obrazi uchun e'lon qilingan tanlovdan M.Nabievning bu chuvrati bosh mukofatga sazovor bo'ldi.

Rassomning tarixiy janrda yaratilgan ayrim asarlarida ozodlik uchun bo'lgan halq qo'zg'olonlari mohiyati ochib beriladi. M. Nabiev avloddan - avlodga hikoya qilinib kelinayotgan tarixiy voqealarni astoydil o'rganib, tarix sirlarini jonli ranglarda tasvirlashga muvaffaq bo'lgan. Uning ana shunday asarlaridan biri Iskandar Zulqarnaynga qarshi ozodlik uchun kurash haqidagi "Spitamen qo'zg'oloni" suvratidir. Shu janrdagi yaratilgan asarlar qatoriga "Samarqandda hunarmandlar qo'zg'oloni", "Jizzax qo'zg'oloni" kabi ishlarni kiritish mumkin.


M. Nabiev nafaqat rassom mohir pedagog, ustoz va etuk murabbiy hamdir. U 1960 yildan boshlab ko'p yillar davomida Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika instituti (universitet)ning badiiy - grafika fakultetida kafedra mudiri va professor sifatida faoliyat ko'rsatib keldi.

Rassom maktab, bilim yurtlarining o'qituvchilari, talabalar uchun metodik ishlar yaratishda ham samarali mehnat qildi. Uning bu boradagi ishlarining natijasi kitob shaklida chop etilgan.

Ijodkorning sermaxsul ijodiy faoliyati xukumat tomonidan munosib taqdirlanib, unga "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni berilgan.



M. Nabiev Bobir portreti. 1969.



*M. Nabiev Ota portreti. 1976*

## **Tabaqalashtirilgan ta'lim**

Mamlakatimizda umumiy o'rta maktab - yagona maktab bo'lib, unda barcha bolalar yagona o'quv reja, yagona namunaviy o'quv (fan) dasturi hamda yagona o'quv darsligi bo'yicha shug'ullanadilar. Biroq bolalar tabiatan har xil. Ularning qiziqishlari va moyilliklari bir - birlariga o'xshamaydi, layoqatlari ham, rivojlanish darajalari xam turlicha. Yuqori sinflarda esa hayotiy rejalar turli - tuman bo'ladi. Kichik yoshdagi bolalarga ta'lim berishda mazkur fanlarni hisobga olish deyarli murakkabliklar tug'dirmaydi.

Mazkur farqlarni odatda o'quvchi shaxsiga pedagogik jihatdan o'zini oqlaydigan individual yondashuv, o'quv jarayonining to'garak va sinfdan tashqari mashg'ulotlar bilan to'ldirish orqali hisobga olish, erishish mumkin.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarida bu farqlar sezilarli darajada keskin bo'lib, ularning tarkibi bo'yicha turli - tuman bo'lgan sinf o'quvchilari bilan ishlash qiyinlashib boraveradi. O'quv jarayoni optimal rejimdan borgan sari uzoqlashaveradi.

Ma'lum yoshdan boshlab barcha o'quvchilarga ularning individual xususiyatlarini hisobga olmasdan ta'lim - tarbiya berish pedagogik nuqtai nazardan maqsadga muvofiq bo'lmay qoladi.

Yuqorida bayon qilinganlar o'quvchilar ta'limi va ularning rivojlanishini amalga oshirishni ta'minlashga imkon beradigan qulay shart - sharoitlarni izlab topish bilan bog'liq o'ta muhim va g'oyat murakkab muammoni yuzaga keltiradi.

O'quvchilarning xarakterli individual farqlarini hisobga olib tashkil etilgan o'quv - tarbiya jarayonini *tabaqalashgan*, ushbu jarayon asosidagi ta'limni esa *tabaqalashtirilgan ta'lim* deb aytish qabul qilingan.

Tabaqalashtirilgan ta'limning asosiy mazmuni keyingi yillarda iqtidorli, talantli bolalar va o'smirlarni alohida o'qitishga yo'naltirilmoqda. Jahon ta'lim tizimida mazkur muammoga qiziqish sezilarli darajada ortmoqda. Ushbu yo'nalishda bir qator tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. "Yuksak qobiliyatlilar Evropa Uyushmasi", "Iqtidorli bolalarni Tadqiq qilish Markazi" (Angliya), "Iqtidorli bolalarni o'qitish Evropa qo'mitasi", "Iqtidorli o'quvchilarni o'qitish



Maslahat Xizmati" (Germaniya) va boshqalar shular jumlasidandir. Bu tashkilotlarda bolalar iqtidorligi darajasini o'rganish, o'quvchilar qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan ishlar olib borilmoqda.

"Iqtidorli bolalar" tushunchasi o'z ichiga qator tavsiflarni qamrab oladi. Birinchi navbatda, intellektual ijodiy faoliyatga yuksak darajalarga erishish qobiliyatiga ega bo'lishi, o'ziga psixomotor va ijtimoiy qobiliyatlarning shakllanganligi va boshqalar shular jumlasidandir. Iqtidorlilarga, shuningdek, ijodiy xarakterdagi test natijalariga yuqori ko'rsatkichlarga erishgan, yuksak qobiliyati, ma'lum bir faoliyatda keng fikrlash va harakatlanish masalasini namoyon qiladigan bolalar kiradi.

Iqtidorli o'quvchilar har bir sinfda bo'lib, ular oddiy maktablarda ham o'qitilishi mumkin. Buning uchun aynan differenziatsiya metodidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki tabaqalashtirishda har bir o'quvchining qiziqishi, layoqati hisobga olinadi. Layoqati nisbatan past darajadagi o'quvchiga ta'lim berishda tabaqalashtirish metodini qo'llash ayni muddao hisoblanadi. O'quvchidagi bunday yashirish layoqati va qobiliyatlarni yuzaga chiqarish tabaqalashtirilgan ta'limning asosiy vazifasidir.

Keyingi yillarda nashr etilgan pedagogik adabiyotlarda bir - biriga yaqin ikki atama - **ichki tabaqalash** va **tashqi tabaqalash** atamalari tez - tez uchramoqda.

**Tashqi tabaqalashtirish** atamasi esa o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib ta'lim jarayonini tashkil qilish uchun ularni maxsus tabaqalashgan o'quv guruhlariga birlashtirib o'qitishni anglatadi.

"Moyillik" deganda o'quvchining tanlayotgan sohasiga munosabatini o'zgarmasligi, aniq amaliy faoliyatga intilishi ("kuchini sinab ko'rish") tushuniladi. O'quvchi o'z tashabbusi bilan o'quv faoliyatiga sinfdan tashqari ishlarga hammadan ko'ra ko'proq qiziqib shugullanayotganligiga qarab moyilliklariga qarab moyilliklari to'grisida hukm chiqariladi.

Professional (kasbiy) niyat deganda shaxsning aniq kasbni egallash va ma'lumot olishga qat'iy intilishlari tushuniladi.

Qobiliyat shaxsning individual - psixologik xususiyati sifatida ta'riflanib, ancha samarali mehnat faoliyatining sharti hisoblanadi. Faoliyat muvaffaqiyatli va

o'ziga xos tarzda olib borilayotgan bo'lsa, yangi bilim va ko'nikmalar tez o'zlashtirilayotgan bo'lsa, qobiliyati bor ekan, deyiladi. Qobiliyat mehnat jarayonida shakllanib boradi.

Ta'limni tabaqalashtirish bilan bog'liq yuqorida bayon qilinganlarni umumiy o'rta maktabning o'z ijtimoiy mohiyatiga ko'ra yagonaligi bilan qanday birga qo'shib olib borish mumkin, degan savol o'z - o'zidan tug'ilishi mumkin.

Shu bois ushbu savolni batafsilroq qaraymiz. Respublikamiz umumiy o'rta maktabining yagonalik prinsipi asosida faoliyat ko'rsatish:

- barcha bolalar uchun maktabning baravarligi;
- xalq ta'limi tizimining yagonaligi; barcha ta'lim muassasalarining izchilligi;
- o'quv - tarbiya jarayonini tashkil etish prinsiplarining umumiylikini;
- uning maqsad, vazifalarining yagonaligi;
- o'quv reja, dasturlarning yagonaligini;
- ijtimoiy, milliy va tabaqa kabi to'siqlarning yo'qligini;
- maktabni bitiruvchilar huquqlarining bir xilligini ta'minlaydi.

O'z - o'zidan ravshanki, yuqorida ko'rsatilgan shartlar bajarilganda ta'limni tabaqalashtirish umumiy o'rta maktabning yagonalik prinsipiga zid kelmaydi.

Maktablarda ta'lim jarayonining o'zidagi va o'qitish uslubidagi kamchiliklar oqibatida bilim berishda yuzaga kelgan nodemokratik hamda jamiyat uchun zararli muhit shunga olib keldiki, o'quvchilarda mustaqil fikrlash rivojlanmay qolyapti, oqilona hayotiy bilimlarni qabul qilish uchun etarli tayyorgarlik yo'q. Ularda o'zlariga nisbatan ishonch shakllanmagan.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarni kasbga yo'naltirish va ta'limning amaliy yo'nalganligini yetarli darajada bo'lishini hamda shakllantirilishini ta'minlashi lozim.

Ta'lim tizimidagi mavjud umumta'lim va kasb - hunar dasturlari o'rtasida uzviylik va vorislikni yo'lga qo'yish, maktab bitiruvchilarida kasbga yo'naltirilgan psixik va mehnat faoliyati ko'nikmalarini shakllantirish yigit va qizlarga o'z qobiliyatlari, istaklari, ehtiyoj va intilishlariga monand kasb yo'lini belgilab olishlari uchun ta'limni tabaqalashtirib o'qitishga ehtiyoj uyg'otadi.

O'quv jarayoni bilim darajasi o'rtacha bo'lgan o'quvchilarga mo'ljallangan bo'lib, ta'limda iqtidorli yoshlar bilan yakka tartibdagi o'quv dasturlari bo'yicha ishlash mexanizmlaridan oqilona foydalanish uchun O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta'lim to'g'risida»gi qonunlariga tayanishi lozim.

### ***Tabaqalashtirib o'qitish turlari***

Tabaqalashtirilgan ta'limning quyidagi turlari ma'lum:

1. Qobiliyatlar bo'yicha
2. Qobiliyatsizliklar bo'yicha
3. Qiziqishlar bo'yicha
4. Balog'at yoshidagilarning kasbini loyihalashtirish bo'yicha.

***Qobiliyatlar bo'yicha*** tabaqalashtirilgan ta'limda o'quvchilar quyida keltirilgan bilimlarning biri bo'yicha guruhlariga taqsimlanadi.

- a) Umumiy qobiliyatlar bo'yicha
- b) Xususiy faoliyatlari bo'yicha.

Birinchi holda barcha o'quvchilar o'tgan yilda erishgan o'zlashtirish natijalariga muvofiq bir necha guruhlariga bo'linadilar. Birinchi guruhga eng yuqori ball to'plagan o'quvchilar kiradi, ikkinchi guruhga kamroq va o'rtacha ball to'plagan o'quvchilar kiradi va h.k. Bu holda sinflar «A», «B», «V» va h.k harflar bilan belgilanadi.

Maktabda sinflarni ana shunday bo'lish har yili o'tkazilishi shart. Pedagogik amaliyotning ko'rsatishicha, masalan, «B» sinfidan «A» sinfga o'tkazish amalda mumkin emas. «V» sinfdan «A» sinfga o'tkazish haqida gapirmasa ham bo'ladi. Bu yerda gap shundaki, ushbu sinflarda o'zlashtirish bo'yicha erishilgan daraja «A» sinfga nisbatan sezilarli darajada pastdir. Va teskari «A» sinfdan «B» sinfga, «B» sinfdan «V» sinfga o'tish imkoniyatlari mavjud.

Ikkinchi holda o'quvchilar qobiliyatlari bo'yicha u yoki bu o'quv predmetlari guruhiga ajratiladi. Masalan, Fransiya litseylarida (o'rta maktablarida) gumanitar, tabiiy - matematika, texnika fanlariga qobiliyatlari bo'yicha tabaqalashtiriladi. Bunga gumanitar fanlar bo'yicha qobiliyatni aniqlashda asosiy

belgi tillar (fransuz, lotin, ingliz)ni yaxshi o'zlashtirish hisoblanadi. Gumanitar sinflarga kirmay qolgan o'quvchilar ozmi - ko'pmi ixtiyoriy tarzda tabiiy - matematik va texnik sinflar o'rtasida taqsimlanadi. Eng muhimi, gumanitar, tabiiy - matematik va texnik bo'limlarning o'quv rejalari va dasturlari bir - biridan keskin farq qiladi. Bu esa o'quvchilarni bir bo'limdan ikkinchi bo'limga o'tishiga hech qanday o'rin qoldirmaydi.

Qobiliyat bo'yicha ta'limni tabaqalashtirishga baho berib, shuni ta'kidlash joizki, u pedagogik fikr - mulohazalar jihatdan to'g'ri kelmaydi. Qobiliyatli sinfiga qabul qilingan bola istasa - istamasa o'zini saralangan, imtiyozli deb his qiladi. Bu esa tarbiyaviy jihatdan kutilmagan chetga chiqishlarga olib kelishi mumkin. Qobiliyatsizlar sinfiga qabul qilingan o'quvchilar esa har soniyada o'zlarini noraso, ijobiy xislatlari etarli darajada bo'lmagandek his etadilar. Bu esa bolaning nafaqat ma'naviy kayfiyatini (bu esa milliy pedagogikamizning insonparvarlik xislatlariga mutlaqo to'g'ri kelmaydi), balki uning o'qishga bo'lgan munosabatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari inson qobiliyati bir umrlik abadiy va o'zgaras narsa emasligini ko'zda tutish lozim. Turli insonlarning individual rivojlanishi ustida o'tkazilgan ko'plab tadbirlarning ko'rsatishicha, insonning shaxsiy sifatleri (shu jumladan o'qishga bo'lgan qobiliyati) biologik irsiyati ham ijtimoiy muhitga bog'liq ekan. Bu ayniqsa bolalar va o'smirlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

N.P. Dubinning ta'kidlashicha, «Hatto bir tuxumli genotipi bir - biriga o'xshash bo'lgan egizaklar, turli ijtimoiy sharoitlarda rivojlantirilganda, ular jismoniy o'xshashliklarini saqlagan holda turli ma'naviy shaxs sifatida shakllanishi mumkin». Nihoyat, qobiliyat turli odamlarda, turli yoshda namoyon bo'lishini ham yoddan chiqarmasligimiz lozim. Umuman aqliy, amaliy, axloqiy, missiy va boshqa faoliyat sohalari turli bolalarda turli yoshda shakllanadi va notekis shakllanadi. Shuning uchun o'quvchilarni qobiliyat bo'yicha guruhlaganda ya'ni o'quvchilarni qobiliyatli guruhga qo'shganda ham, qobiliyatsiz guruhga qo'shganda ham xatoga yo'l qo'yish ehtimoli hamma vaqt ham bo'ladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, qobiliyat bo'yicha tabaqalash bu og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin. Qobiliyat

bo'yicha tabaqalashtirishning ko'rinishlari aql - zakovat bo'yicha tabaqalashtirishdir. Mazkur tabaqalashtirishning mohiyati quyidagilardan iborat:

1. Bola tuzilishi bilan ma'lum qobiliyatga ega bo'ladi.

2. Bolalar ta'lim olishi uchun qobiliyatlari bo'yicha tabaqalashishi zarur. Bolalarning qobiliyatlarini namoyon qilishi uchun "IQ" deb ataladigan testlar ishlab chiqilgan. Test bolani maktabga kirishi bilan o'tkaziladi. Mazkur testlar bir talay topshiriqlardan iborat bo'lib, o'quvchilar ularni ma'lum vaqt oralig'ida bajarishi kerak. Odatda, test topshiriqlari shundayki, ularni muvaffaqiyatli chiqishi uchun o'quvchi yaxshi so'z boyligiga, rivojlangan nutqqa ega bo'lishi atrof - muhit bilan tanish bo'lish kerak, Boshqacha aytganda, bolaning yaxshi umumiy rivojlanishi talab etiladi.

Bolalarning "IQ" test natijalari aniqlangandan so'ng ular qobiliyatli, o'ta qobiliyatli va qobiliyatsizlar guruhlariga taqsimlanadilar. Ta'lim jarayoni esa guruhlariga mos ravishda taqsimlanadi. I-X sinflarda bu tabaqalashtirish ifodalanmagan. Chunki barcha o'quvchilar predmetlarni bir xil nomda o'rganadilar. Biroq ushbu predmetlarning mazmuni turli guruhlarda bir xil emas. Qobiliyatli bolalar bilan ularning bilimiga bo'lgan yuqori talablarini qondiradigan, jiddiy mashg'ulotlar olib boriladi. Ushbu bolalar o'qishning birinchi yilidanoq kollejdagi o'qishga yo'naltiriladi.

O'quvchilarning juda katta asosiy qismi uchun boshqa ta'lim dasturi tayyorlanadi. Ushbu bolalarga nazariya, fan asoslarini bilish shart emas, deb hisoblanadi. Ushbu kategoriyaga kirgan o'quvchilar o'rganadigan maktab predmetlari uchun nazariy materiallar olib tashlangan.

IX sinfda majburiy o'qish muddati tugaganda AQSHning aksariyat shtatlarida 16 yoshgacha majburiy ta'lim haqida qonun qabul qilingan. IX sinfni bitirgan o'quvchilarning bir qismi maktabdan ketadilar, qolgan qismi esa X-XII sinflarda o'qishni davom ettiradilar.

O'rta maktabning yuqori bosqichida tashqi tabaqalashtirish mavjud. Bu akademik va noakademik ixtisosliklarga ajratilgan. Noakademik ixtisoslikda umumiy, sanoat, savdo, qishloq xo'jalik ixtisosliklari kabi turli yo'nalishlar mavjud.

O'quvchilarning ixtisosliklar bo'yicha taqsimlanishi, odatda ularning elementar maktabda "IQ" guruhlariga bo'lish bilan mos tushadi. Yuqori "IQ" ga ega bo'lgan va

kollejga yo'naltirilgan o'quvchilar akademik ixtisoslikka kiradi. O'quvchilarning katta qismi (75% atrofida) noakademik ixtisoslik dasturi bilan shug'ullanadi.

Akademik ixtisoslik o'quvchilari oliy o'quv yurtiga kirib o'qishni davom ettiradilar. O'quvchilar fizika, kimyo, algebra, geometriya, chet tillarni, bir so'z bilan aytganda, rivojlangan mamlakatlar zamonaviy o'rta maktab dasturini tashkil etgan barcha fanlarni o'rganadilar.

Noakademik ixtisoslik dasturida asosiy e'tibor bilimlar va amaliy majburiyatlarga qaratilgan.

Yuqorida biz o'quvchilarni qobiliyat bo'yicha tabaqalashtirishning mavjud shakllarini qarab chiqdik.

O'quvchilar ta'limini tabaqalashtirishning akademik shakli, ularning iqtidorini rivojlantirish muammosi bilan bog'langan.

Mazkur muammo O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da alohida ta'kidlangan. Jumladan, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da "Iqtidorli bolalarni va iste'dodli yoshlarni aniqlash va o'qitish uslubiyati, psixologik - pedagogik tashkiliy sharoitlari yaratiladi, bunday bolalar va yoshlarga oid ma'lumotlarning respublika banki va monitoringi shakllanadi. Maxsus o'quv dasturlar va progressiv pedagogik texnologiyalar ishlab chiqish uchun eng yaxshi pedagog va olimlar jalb qilinadi. O'quv - tarbiya jarayonida ularning faol ishtiroklari ta'minlanadi", deb belgilab qo'yilgan.

### ***Qobiliyatsizlik bo'yicha tabaqalashtirilgan ta'lim***

Ta'limni tabaqalashtirishning mazkur turi tarafdorlari, odatda, qobiliyatsizlik bo'yicha tabaqalash atamasini ishlatmaydilar. Biroq, bu uning mohiyatini o'zgartirmaydi. Tabaqalashtirishning ushbu turining mohiyati shundan iboratki, u yoki bu predmet bo'yicha o'zlashtira olmaydigan o'quvchilar mazkur predmetlar past darajada va kichik hajmda o'zlashtiradigan sinflarga guruhlanadilar. Tabaqalashtirishning mazkur turida o'quvchilar bir xil ma'lumot ololmaydilar va uning oqibati sifatida ma'lumot olishni davom ettirishi uchun bir xil imkoniyatga ega bo'lmaydilar,

Qobiliyatsizlik bo'yicha tabaqalashtirish Fransiya maktablarida yorqin namoyon bo'ladi. Mazkur maktablarda lotin tilini o'rganishga qobiliyati past o'quvchilar lotin tili o'tilmaydigan, biroq matematikani chuqur o'rgatadigan zamonaviy bo'limga qabul qilinadilar. Pedagogik jurnal «Education nationale»ning maktabga yo'llash harakatlarini bayon qiluvchi hazil - mutoyibali jihatini o'qiymiz. *Bola yaxshi o'qiydimi*, demak, u klassik bo'limga boradi. U lotin tilini o'zlashtira olmaydimi, mayli, matematikani o'rganaversin (go'yoki bolada lotin tilini o'zlashtirishga qobiliyat bo'lmasa, matematikaga qobiliyati bo'ladi). Agar zamonaviy bo'lim dasturini uddalay olmasa, texnik o'quv yurtiga borsin.

Fransiya Milliy demografik instituti xodimlari besh yillik elementar sikl ta'limini tugatgandan keyin o'quvchilarni o'qishni davom ettirishga yo'naltirish masalasi bo'yicha tadqiqot o'tkazadi. Oila jamiyatning ijtimoiy pilla- poyalarida qancha yuqorida tursa, u zamonaviy bo'limdan ko'ra, ko'prok klassik bo'limni afzal ko'rishi haqida tadqiqotchilar xulosalarni ikki ma'noda tushunishga o'rin qoldirmaydi.

Yuqorida bayon qilinganlardan ko'rinib turibdiki, o'quvchilar o'rta maktabni tugatganlarida bir xil ma'lumotga ega bo'lmaydilar. Mazkur maktabni tugatgan o'quvchilar o'qishni davom ettirish uchun ham, biror hunar egallashi uchun ham bir xil huquq va teng imkoniyatlarga ega bo'lmaydilar. Bu mazmun mohiyati jihatdan tabaqalashtirish emas, balki erta mutaxassislashtirishdir. Bunda maktab partasida o'qigan davridayoq o'quvchini u yoki bu faoliyat bo'yicha yaroqli yoki yaroqsiz ekanligini oldindan belgilab qo'yadi.

Mazkur tabaqalashtirishning asossiz ekanligi shundaki, unda o'quvchining fan bo'yicha o'zlashtirmaganligi uning qobiliyati yo'qligi bilan tenglashtiriladi.

Biroq o'zlashtirmaslikni keltirib chiqargan sabab ko'p hollarda uning qobiliyatligi emas. Aksariyat hollarda o'quvchini «zehni past» darajaga kiritish adolatsizlik bilan ish ko'rish ekanligini o'qituvchi bilishi zarur. Odatda tug'ma «qobiliyatsizlik» degan fikr to'g'ri emas. Balki o'qituvchi ushbu o'quvchining individual xususiyatiga, qiziqishi, motivlariga e'tiborsizligi oqibatida shunday xolatni keltirib chiqaradi, degan fikr to'g'riroqdir. Shubhasiz, bunday holatlarni

to'g'rilash oson kechmaydi, biroq ta'lim - tarbiya yaxshi yo'lga qo'yilgan maktablarda qarovsiz bolalar bo'lmasligi kerak.

### ***Loyihalashtirilgan kasb bo'yicha tabaqalashtirish***

Odatda, ko'ngillik o'quvchilar 14 - 15 yoshdan boshlab bilimlarning u yoki bu sohasiga, u yoki bu faoliyat turiga turg'un qiziqishi vujudga keladi. VI sinfning oxiri VII sinfning boshlanishida katta bo'lgandagi hayot uchun u yoki bu kasbni tanlashni mo'ljalga oladi. Bolaning layoqati va qobiliyati (masalan, rassomlik, xoreografiya, musiqa, san'atga, tillarni o'rganishga va h.k.) yorqin namoyon bo'lgan va rivojlangan hollarda sezilarli darajada bo'ladi.

Bu holda bolani maqsadga muvofiq tabaqalashtirib o'qitishni shunday tashkil qilish kerakki, o'rta maktabda namoyon bo'lgan qobiliyati maktabda maksimal darajada rivojlansin.

Ushbu maqsadga maxsus maktab (rassomlik, xoreografiya, musiqa, san'atga, tillarni o'rganishga va h.k)lar xizmat qiladi.

Ushbu maktablarning profil bo'lmagan predmetlar bo'yicha o'quv dasturlari odatdagi umumta'lim maktablari ta'lim dasturlari bilan bir xil bo'lib, profil predmetlar bo'yicha esa chuqur va keng ta'lim beriladi. Ushbu turdagi umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining keyingi mustaqil faoliyatida samarali natijalarga erishish imkoniyati yuqori bo'ladi. Bu turdagi maktab o'quvchilarida namoyon bo'lgan qobiliyat va qiziqishlarini rivojlantirish zaruratidan maktablarda maxsus shart - sharoitlar yaratish zarur.

### ***O'quvchilarning qizikishi bo'yicha ta'limni tabaqalashtirish***

O'quvchilarning qiziqishi bo'yicha ta'lim tabaqalashtirilganda ma'lum yoshdan boshlab qiziqishlar bo'yicha sinflar, ba'zan maktablar ham guruhlanadi, ularni qiziqitiruvchi fanlar chukqur o'rganiladi. O'quvchilarni tabaqalashtirib o'qitish O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" milliy maktablar ta'limini tashkil etish prinsiplariga qarshi emas. U ta'limni demokratlashtirish prinsipiga tayanadi, chunki unda barcha sinflar teng, o'quvchini qaysi sinfda o'qishini davom ettirishini o'zi tanlaydi.



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining umumiy o'rta ta'lim maktabi bo'limida shunday yozilgan.

O'quvchilar u yoki bu bilim sohasiga, u yoki bu faoliyat turiga qiziqishini namoyon bo'lishini ota - onalar, o'qituvchilar va o'quvchining o'zi ham oson kuzatishi mumkin. Turli metodikalarni qo'llagan holda o'tkazilgan qator izlanishlar, qiziqishlarning aksariyat ko'pchiligi o'quvchilarda 14 - 15 yoshda namoyon bo'lishini ko'rsatmoqda. Ushbu yoshdan boshlab o'quvchilarning qiziqishi bo'yicha tabaqalashtirilgan ta'limni boshlash maqsadga muvofiqdir.

### ***Iqtidorli bolalarni o'qitish va tarbiyalash***

Iqtidorli odam oddiy qobiliyatga ega bo'lgan odamga nisbatan jamiyatga sezilarli darajada foyda keltirishi mumkin. Shu bois jamiyatimiz va maktab oldida hamma vaqt qobiliyatli bolalarga ta'lim va tarbiya berish muammosi dolzarb bo'lib turgan va dolzarb bo'lib qolmoqda. Ushbu muammoning keskinligi ijtimoiy ishlab chiqarishning borgan sari rivojlanishi bilan o'sib boradi.

Talantli bolalarni o'qitish va tarbiyalash muammosi, ayniqsa, keyingi chorak asr davomida keskin tus oldi. Ishlab chiqarishga murakkab zamonaviy texnika va ilg'or texnologiyalarning kiritilishi munosabati bilan jamiyatimizning ekstraklass mutaxassislariga bo'lgan talabi tobora oshib bormoqda. Bunday mutaxassislarni, talantli kishilarini o'qitish, tayyorlash mumkin. Bunday maktablar, ayniqsa, AQSH, Yaponiya, Angliyada ko'p. Mazkur maktablar turli nomlar bilan atalsada, ularning ijtimoiy funksiyasi bitta: talantli bolalarni izlab topish, mamlakat manfaati uchun ularni o'qitish va tarbiyalash uchun maksimal sharoit yaratishdan iborat.

Iqtidorli bolalarni qaerda va qanday o'qitish muammosi yetarli darajada o'rganilmagan va murakkab jarayon hisoblanadi. Mazkur muammoni hal qilish uchun iqtidorli bolalar maxsus maktablarning tajribasini o'rganishi hamda ularni bitiruvchilarning hayot yo'llarini kuzatishlari zarur.

Mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim maktabi ish tajribasining guvohlik berishicha, u umuman iqtidorli bolalarni namoyon qilish va o'qitishni ta'minlamoqda. Bizning fikrimizcha, iste'dodli bolalarni layoqat va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun maxsus maktablarni bunyod etish ehtiyoji yo'q. Barcha

maktablarda o'qitish shunday yo'lga qo'yilishi kerakki, iqtidorli bola oilasidan ajralmagan holda maktabda o'z iqtidorini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lsin.

Talant o'z - o'zidan insonning ma'lum faoliyatidan tashqarida bo'lmaydi, uning shakllanishi ta'lim va tarbiya jarayonida sodir bo'ladi. Talant - bu bolaga maktab va oila sarflagan mehnat. Tayyor talantni izlab topish - bu muammoning yechilishi emas. Muammo esa talantni tarbiyalash, uning tabiiy layoqatlarinn rivojlantirishdan iborat bo'lib, uni har bir maktabda qo'llay olishdan iboratdir. Buning uchun esa har bir maktabda sharoit yaratish zarur. Ushbu sharoitlarni yaratish uchun talant nima, talantli bola qanday bo'lishi kerakligini bilish lozim.

Psixolog olim N.S. Leytesning fikricha iqtidorli bolalar uchun shaxsning quyidagi xususiyatlari xarakterlidir:

1. Ziyraklik, zo'r berib ishlashga doim tayyorlik.
2. Mehnatsevarlik, mehnatga tayyorlik, charchamaslik va dam olmasdan qattiq mehnat qilishga ehtiyoj.
3. Tafakkurning tezligi, aqliy jarayonlarning tezligi, aqlning batartibligi, tahlil va umumlashtirish imkoniyati yuqoriligi, aqliy faoliyatning yuqori mahsuldorligi.

*Bu qaysi sharoitlar?* Bu birinchi galda yuksak qobiliyatlarga erishishning potensial imkoniyatini aniqlovchi, biroq ularni kafolatlamaydigan ma'lum tabiiy layoqatlarning mavjudligi.

Aytilganlarga yakun yasab, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning individual xususiyat (qiziqishlari, layoqat va ularning rivojlanish darajasi, o'qishga qobiliyati va h.k.)larni o'quvchilarga individual yondashuv doirasida (ichki tabaqalashtirish) ta'lim va tarbiya maqsadlari uchun hisobga olish va foydalanish mumkin.
2. Yuqori sinf o'quvchilarining individual xususiyatlarini hisobga olish va pedagogik foydalanish uchun tashqi ifodalangan tabaqalashtirish muvofiq.
3. Umumiy o'rta ta'lim maktabida o'quvchilarning qiziqishi va balog'at yoshiga etganda egallaydigan kasbni loyihalash bo'yicha ta'limni tabaqalashtirish mumkin.

### ***Tabaqalashtirib o'qitishning ijtimoiy zaruriyat ekanligi***

Qobiliyatni namoyon qilish va rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish kerak. Ushbu sharoitlardan eng muhimi umumiy ta'lim hisoblanadi.

Biroq umumiy, barcha bolalar uchun bir xil ta'lim o'quvchilarning layoqat va qobiliyatlarini namoyon qilgani bilan ularni yetarli darajada jadal rivojlantirishni kafolatlamaydi. Bu birinchi galda o'quvchilarning har xilligini, ularning layoqat va qobiliyatlari turlichaligi bilan tushuntiriladi. O'quvchilarda namoyon bo'lgan qobiliyatlarni hisobga olgan holda bolalarning qobiliyatlari rivojlanishini ta'minlovchi ma'lum tadbirlar tizimi zarur. Ana shunday tadbirlardan biri o'quvchilar katta qiziqish namoyon qilgan o'quv predmetlarini yuqori sinflarda chuqur o'rganish bo'lishi mumkin. Bunda barcha boshqa o'quv predmetlari DTS darajalarida o'rganilishi kerak.

Shunday qilib, barcha bolalarning layoqatlarini namoyon qilish va rivojlantirish uchun optimal rejim yaratish bo'yicha jamiyatimizning ehtiyoji umumiy o'rta ta'limning yuqori sinflarida ta'limni tabaqalashtirish zaruratini vujudga keltiradi.

Demak, ijtimoiy nuqtai nazardan, ta'limni tabaqalashtirishning vazifalaridan biri har bir o'quvchining maqsadi va qobiliyatlarini namoyon qilish va maksimal rivojlantirishdan iborat. Bunda esa muhimi umumiy o'rta ta'lim maktabida ta'limning umumiy darajasi barcha uchun bir xil bo'lishi shart.

Ta'limni tabaqalashtirishning zarurati bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tayotgan jamiyatning har bir fuqarosining qiziqishini qondirish vazifasidan ham kelib chiqadi. Shaxs qay darajada jamiyatga bergan mehnatining miqdori va sifati uchun javobgar bo'lsa, jamiyat ham insonning, jamiyat manfaatlariga zid bo'lmagan qiziqishlarini qondirishga mas'uldir.

Shaxsni har tomonlama barkamol rivojlanishi fidoyi, ijodkor, mehnatsevar, ijtimoiy faol, ma'naviy - axloqiy va jismoniy rivojlangan insonni shakllantirishga ko'maklashadi.

Ushbu tamomila yangi vazifani mamlakatimizda bosqichma - bosqich shakllanayotgan huquqiy, demokratik fuqarolik jamiyatigina o'z oldiga qo'yishi va muvaffaqiyatli hal qilishi mumkin.

Nihoyat, shuni ham ko'rsatish kerakki, o'rta maktab ta'limining yuqori bosqichida ta'limni tabaqalashtirish iqtidorli bolalarni namoyon qilishga ko'maklashadi va ularning rivojlanishi uchun eng qulay sharoitlar yaratadi. Maktab bir qator sabablarga ko'ra ushbu muhim ishga uzoq vaqt zarur darajada e'tibor bermadi.

Maktabda ta'lim jarayonini o'rtacha o'quvchiga mo'ljallash iqtidorli bolalarni namoyon qilish va rivojlantirishga xalaqit beradi. Ta'limni katta sinflarda tabaqalashtirishda iqtidorli bolalarni namoyon qilish va rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar vujudga keladi.

Bundan tashqari raqobatga asoslangan jamiyatimizda uning fuqarolari intellektual hayoti sohasida baravarlashtirish tendensiyasi mutlaqo begonadir.

Ilmiy - texnika taraqqiyoti rivojlangani sari jamiyatimizda yangi texnika va zamonaviy texnologiyalarni egallashda takomiliga erishgan hozirgi zamon fanlarini yaxshi biladigan mutaxassislariga bo'lgan talab tobora o'sib boraveradi.

Afsuski, hanuzgacha umumiy o'rta ta'lim maktabida va hatto oliy maktabda an'anaviy ta'lim bilan cheklanamiz. Umumiy o'rta va oliy maktab hayotiga tez sur'atlar bilan kirib kelayotgan yangi ilg'or g'oyalar va fan yutuqlarini idrok qilish uchun fundament qo'yilishi kerak. Ta'limning ilg'or tizimi ilmiy texnika taraqqiyotining va mamlakatimiz rivojlanishining garovidir.

Ilmiy - texnika taraqqiyoti zamonaviy texnika va ilg'or texnologiyalarni boshqarishga, uni ijodiy qo'llashga tobora ko'proq odamlarni tayyorlashni talab qiladi.

Yuqorida bayon qilinganlardan ko'rinadiki, maktab oldiga o'quvchilarni dastlab akademik litsey, kasb - hunar kollejlarida tayyorlash bo'yicha vazifa qo'yilmoqda.

Jamiyat manfaatlaridan kelib chiqqan holda, kasb - hunar kollejlarga shunday o'quvchilarni yo'llash kerakki, ularda maktabni bitirish arafasida fan - texnika yoki san'at sohalariga turg'un qiziqish namoyon bo'lsin.

O'quvchilarning fan - texnika yoki san'at sohalarida ijodiy faoliyatlarga qiziqishlari va layoqatlarini namoyon etishlari hamda rivojlantirishlari uchun mantiqiy o'ylangan va maqsadga qaratilgan ish zarur. Bu ishni ma'lum tartibda saralab olingan materialda amalga oshirish juda muhim.

Demak, o'quvchilarni dastlab akademik litseylarda, keyinchalik oliy o'quv yurtida o'qishini davom ettirishga tayyorlash maqsadida ta'limni tabaqalashtirish uning oxirgi bosqichlarida maqsadga muvofiqdir.

Bu oliy o'quv yurtlari uchun sifatliroq abituriyentlarni tayyorlashga imkon beradi.

Fransiyaning ilg'or pedagoglari ham ta'limni tabaqalashtirish o'rta maktabni bitiruvchilarida yuqori darajada tayyorgarlikni ta'minlashini ta'kidlamogdalar.

Umumiy o'rta ta'lim maktabining vazifasi o'quvchilarni oliy o'quv yurtlari uchun o'qishga kirishiga tayyorlash bilan tugamaydi. Gap shundaki, oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarning ma'lum qismini qabul qiladi.

Hozir ko'pchilik maktab bitiruvchilari ishlab chiqarish va maishiy xizmatda mehnat qilishga tayyor emaslar. Ular uchun, ayniqsa, ota - onalari uchun oliy o'quv yurtlariga o'qishga kira olmaslik fojia, ishlab chiqarishda mehnat qilish - hasratli zarurat.

O'quvchilarni ishlab chiqarishda mehnat qilishga tayyorlash maktabning asosiy vazifalaridan biri bo'lib qoldi. Maktab nafaqat jamiyat uchun har qanday mehnatni oliy talabligi va foydaliligini o'quvchilarga tushuntirishi, balki ularning kuchi, bilimi va qobiliyatlarini hozirgi zamon ishlab chiqarishiga ijodiy tatbiq etishni ham yoritib borishi kerak.

Ta'limni tabaqalashtirish sharoitida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlarini yaxshi yo'lga qo'yish mumkin. Bunda o'quvchilarni kasbga yo'naltirish kasbgacha tayyorgarlik, o'quvchilarda namoyon bo'lgan va yetarli darajada

rivojlangan qiziqishlari bo'lgan o'quv predmetlari bazasida tashkil etilishi juda muhimdir.

Shunday qilib, jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida umumiy o'rta ta'lim maktabida ta'limni tabaqalashtirish zarurligi quyidagilar bilan dalillanadi:

- Jamiyat o'zining har bir a'zosining potensial imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga intilishi;
- Shaxsni har tomonlama rivojlantirish va shaxsning qiziqishlarini maksimal darajada qondirish haqida jamiyatning g'amxo'rliqi;
- Ijtimoiy ishlab chiqarishning ichki va injenerlarning maxsus tayyorgarligi darajasini yanada yaxshilashga bo'lgan talablar;
- O'rta maktab ishini yanada takomillashtirish zarurligi.

### ***Yuqori sinflarda tabaqalashtirib o'qitishning pedagogik maqsadga muvofiqligi***

Umumiy o'rta ta'lim maktabining yuqori sinflarida ta'limni tabaqalashtirishni qator pedagogik - psixologik fikr - mulohazalar bilan asoslash mumkin. Ularning eng muhimlari quyidagilardan iborat.

Hozirgi zamon fanining rivojlanishi ilmiy tizimlar hajmining o'sishiga, fundamental tushunchalarning paydo bo'lishiga, yangi bilimlar sohasining vujudga kelishiga olib keldi. Kashfiyotlarning eng muhimlari ta'lim sohasiga kirib keldi.

Hozirgi zamon fanining eng muxim xarakterli xususiyatlaridan biri bu eng yangi ilmiy kashfiyotlarni ishlab chiqarishga tez joriy qilinishidir. Bu esa maktab dasturlarida o'quv materialini hajmining uzluksiz oshishiga olib keladi. Uning o'sish sur'ati hamma vaqt oshib boradi.

Barchaga ma'lumki, qiziqarli mehnat bilan shug'ullanish nafaqat kishini charchatmaydi, balki ko'p hollarda dam olish uchun xizmat qiladi. Eksperiment natijasiga ko'ra o'quvchilarni qiziqishlari bo'yicha guruhlagan holda ularning nafaqat o'zlari qiziqqan predmetlar bo'yicha, balki boshqa barcha predmetlar bo'yicha ham bilimlar sifatining oshishiga erishildi.

Ta'limni tabaqalashtirish, ayniqsa, yuksak qobiliyat namoyon qiluvchi talabalarni aniqlash va to'liq rivojlantirish uchun juda zarur.

### ***Sinf doirasida o'quvchilarni qiziqishlari bo'yicha guruhlash***

Shunday qilib, o'rta maktab yuqori sinflarida ta'limni tabaqalashtirishni pedagogik jihatdan maqsadga muvofiqligi quyidagilardan kelib chiqadi:

- Ma'lum faoliyat turiga ko'pchilik yuqori sinf o'quvchilarining turg'un qiziqishlari mavjudligi;
- O'quvchilarning turg'un qiziqishlarini ta'lim va tarbiya maqsadlari uchun foydalanish zarurligi;
- Iqtidorli o'quvchilarning layoqatlari va qobiliyatlarini maksimal rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratib berish zarurligi;
- O'quvchilarni kasbga yo'naltirish zarurligida.

### ***Tabaqalashtirib o'qitishning shakllari***

O'tkazilgan pedagogik adabiyotlar tahlilining ko'rsatishicha, hozirgi vaqtda ta'limni tabaqalashtirishning eng ko'p tarqalgan shakllari quyidagilardan iborat:

Qator predmetlarni chuqur o'rganuvchi sinflar;

Maxsus (tasviriy san'at va musika, tarix, fizika - matematika, kimyo va h.k) maktablari;

O'quvchilar tanlovi bo'yicha fakultativ mashg'ulotlar.

### ***Predmetlarni chuqur o'rgatuvchi sinflar***

Maktab o'quvchilari orasida bir - biriga yaqin bo'lgan predmetlarga yuqori darajada qiziqish bildiradigan o'quvchilar ko'ngillilarni tashkil qilsa, u holda ularni sinflarga birlashtirib, o'sha predmetlarni yuqori darajada o'qitishni tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Bunday sinflarni yettinchi - sakkizinchi sinflardan boshlab tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Chunki bu vaqtga kelib o'quvchilar umumta'lim bilimlarning minimumini o'zlashtirib olgan, qiziqishlarini namoyon qilgan va turg'un qiziqishlari yetarli darajada mustahkamlangan bo'ladi. Ushbu bilimlarga tayangan holda tabaqalashtirilgan ta'limni boshlasa bo'ladi.

Bir - biriga yaqin predmetlarni chuqur o'rganish tajribasini o'rganish va tahlil qilish shundan dalolat beradiki, bu o'quvchilar tanlovi bo'yicha fakultativ mashg'ulotlarga nisbatan qator ustunliklarga ega. Ushbu ustunliklar qatoriga, birinchi galda, barcha o'quvchilarning o'zlarini qiziqqan predmetlarini chuqur o'rganishni ko'rsatish mumkin. Ushbu sinflarda o'quvchilarning tabaqalanishi kuzatilmaydi. Bu yerda ikkita parallel kurslarni o'zaro muvofiqlashtirish muammosi ham yo'q, chunki mashg'ulotlar mantiqiy o'ylangan yagona dastur asosida olib boriladi.

O'quvchilarning ixtisoslik fanlariga bo'lgan qiziqishlari tufayli bir - biriga yaqin predmetlarni chuqur o'rganuvchi sinflarda juda qulay o'quv muhiti yaratilishini alohida ta'kidlash joizdir. Ushbu sinflarda tanlangan predmetlarga qiziqish borasida o'quvchilarning bir - biriga ta'siri yorqin namoyon bo'ladi.

Eng yuksak namuna sifatida o'quvchilarning qiziqishi bo'yicha ta'limni tabaqalashtirish tizimlari quyidagilardan iborat:

I - IV sinflar - o'quv - tarbiya jarayonida o'quvchilarda namoyon qilingan individual xususiyatlarni hisobga olgan holda bolalarni yagona o'quv reja va dastur asosida o'qitish;

V - VI sinflar - bolalarni yagona dastur asosida o'qitish va tarbiyalash, materiallarni o'rganish sinfda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda namoyon qilingan qiziqishlarni faol shakllantirish;

VII sinflar - o'quvchilarni yagona dastur asosida o'qitish va tarbiyalash, darslarda, to'garak mashg'ulotlarida vujudga kelgan qiziqishlarni mustahkamlash va qondirish.

Fakultativ mashg'ulotlar - tabaqalashtirilgan ta'limning eng yaxshi ishlaydigan turi hisoblanadi. Fakultativ kurslarni o'quvchilar tomonidan ixtiyoriy tanlanishi va uni o'rganib bo'lgandan keyin yangi kursni tanlash imkoniyati borligi ta'limni tabaqalashtirishning ushbu turini ustunligi hisoblanadi.

Fakultativ mashg'ulotlar mazmunini o'qituvchi tomonidan tanlanishi ham ularning ustunligini bildiradi.



Vazirlik tomonidan tasdiqlangan fakultativ mashg'ulotlar namunaviy dasturiga asoslanib ularning mazmunini aniqlashda katta erkinlik berilishi o'qituvchiga o'quvchilarning qiziqishiga maksimal darajada mos keladigan fakultativ kurs yaratishga imkon beradi. Bundan tashqari o'qituvchining fakultativ kurs mashg'ulotlariga o'quvchilarning qiziqishini uyg'otadigan material kursi yaratish imkoniyatiga ega bo'lishi ham juda muhimdir.

Yuqorida bayon qilinganlar bilan bir qatorda fakultativ mashg'ulotlarning ham kamchiliklari bor. Ushbu kamchiliklardan eng muhimi - bu fakultativ mashg'ulotlar asosiy predmetlar bilan parallel olib boriladi.

Ushbu kurslarni muvofiqlashtirish muammosi juda murakkab va qiyin ish. Fakultativ mashg'ulotlarning boshqa kamchiligi ularni o'quvchilar tomonidan ixtiyoriy tanlash bilan bog'langan bo'lib, ularda barcha o'quvchilarning qatnashmaganligi sababli sinf bilan ishlashda fakultativ mashg'ulotlarda o'rganilgan materialga tayanib bo'lmaydi. Nihoyat, ba'zi hollarda fakultativ kurslarni o'rganish asosiy kursni chuqur o'rganishga emas, balki uni kengaytirib o'rganishga olib keladi. Shuning bilan bir qatorda ilg'or maktablar va o'qituvchilar tajribasining ko'rsatishicha, o'quvchilarda qiziqish uyg'otish va uni mustahkamlash bosqichlarida fakultativ kurslar juda yaxshi samara beradi. Fakultativ kurslar mazmunini aniqlashda o'qituvchiga katta erkinlik berilishi unga fakultativ mashg'ulotlarni qiziqarli, zavqli, ba'zan maroqli shaklda olib borish imkonini beradi. Fakultativ mashg'ulotlarda o'qituvchi materialni qiziqarli shaklda bera olsa, tushuntirishni qiziqarli, ba'zida esa maroqli material bilan qo'shib olib bora olsa, u holda pedagog o'z predmetiga qiziqishni shakllantirish uchun bolaning tabiiy qiziquvchanligidan foydalana oladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quv rejasiga muvofiq fakultativ mashg'ulotlar uchun maxsus soatlar ajratilgan. Har bir guruhda 15 tadan kam o'quvchi bo'lmasa, fakultativ mashg'ulotlar uchun guruhlar tuzish mumkin. Fakultativ mashg'ulotlarning xarakteri hamda fan kabinetlari va laboratoriyalaridagi o'rinlarga qarab fakultativ kurslar guruhlardagi bolalarning maksimal soni aniqlanadi.

VII va VIII sinflarda fakultativ mashg'ulotlar, odatda bir yilga mo'ljallanadi. O'quvchilar fakultativ mashg'ulotlarni tugatgandan keyin ularni o'zgartirishi mumkin. Maktab fakultativ mashg'ulotlarni o'tkazish uchun eng yuqori toifali o'qituvchilarni belgilaydi yoki OO'YU'lari, ilmiy tadqiqot muassasalaridan mutaxassislarni taklif qiladi.

Fakultativ mashg'ulotlarni olib borish uchun tegishli moddiy texnika bazasi yaratilishi kerak. Fakultativ mashg'ulotlarga ularni o'rganishni istagan har qanday o'quvchi qatnashishi mumkin. Fakultativ mashg'ulotlarga guruhlarini shakllantirishda qanday saralab olish uchun har qanday sinovlarga yo'l qo'yilmaydi.

U yoki bu fakultativ kursni tanlagan o'quvchilar mazkur kurs dasturidan kelib chiqadigan barcha topshiriqlarni bajarishlari shart. Fakultativ mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish vazirlikning maxsus buyrug'i bilan amalga oshiriladi.

### ***Predmetlarni chuqur o'rganuvchi sinflarda o'quv ishini tashkil etish***

Bolalar va o'smirlarning qiziqishining shakllanishi va rivojlanishini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlarning guvohlik berishicha, 14 - 17 yoshda ko'pgina o'quvchilarda u yoki bu faoliyatga yoki bilimlar sohasiga qiziqishlar aniqlangan bo'lsada, ular juda umumiy va keng xarakterga egadir. Ko'p hollarda o'quvchilar qandaydir biror o'quv predmet bilan emas, balki bir - biriga yaqin predmetlar guruhi bilan qiziqadi, birorta kasbga emas, bir - biriga yaqin kasblar guruhiga qiziqish namoyon qiladi. Bu maktabni tabaqalashtirish muammosini yechishga ehtiyotlik bilan munosabatda bo'lishni taqozo etadi.

Ma'lum sharoitlarda tor mutaxassislikka o'quvchilarni tabaqalashtirishga intilmaslik kerak.

Turli mintaqalarda o'tkazilgan tajribalar shundan dalolat beradiki, bir necha predmetlarni chuqur o'rganuvchi sinflarni bir o'quv fanini emas, balki bir - biriga bog'langan predmetlar turkumini o'rgatish zarur. Ushbu predmetlar turkumiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Chuqur o'rganilayotgan o'quv fani

- Amaliy fan - bu bir tomondan uni o'rganishni davom ettiradi va chuqurlashtiradi, boshqa tomondan ushbu fan negizida amaliy tayyorgarlik beriladi
- Asosiy predmetga yaqin o'quv predmeti, uni bilish asosiy fanni o'rgatish uchun juda muhim.

Ixtisoslik fani mazmunini aniqlashga yondashuv quyidagi sabablarga ko'ra pedagogik nuqtai nazardan asossizdir:

- Ixtisoslik predmeti mazmunini sezilarli kengaytirish o'quvchilarni zo'riqishga olib keladi. Bu esa pirovard natijada ularning sog'ligiga, boshqa predmet bo'yicha muvaffaqiyatiga ta'sir qiladi.
- Yuqorida ta'kidlanganidek, ixtisoslik predmeti oldida uni hal qilish uchun uning hajmini sezilarli darajada kengaytirishni talab qiladigan vazifalar turmaydi.

### ***O'qituvchilarni tabaqalashtirilgan ta'limga tayyorlash***

Darajali tabaqalashtirilgan ta'lim jarayonini tashkil etish va uni o'tkazish predmet o'qituvchisining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun uning kasbiy bilim, ko'nikma, malaka va mahoratini muntazam oshirib borish, bu maqsadlar uchun zarur sharoitlarni yaratib berish lozim. O'qituvchi ta'lim mazmunini to'liq va samarali bajarish orqali ta'lim maqsadini amalga oshiradi, motivlarni qondiradi, raqobatbardoshlikni ta'minlaydi. Ushbu vazifalarni o'quvchilarga chuqur va puxta ta'lim - tarbiya berish orqali amalga oshirishi mumkin.

O'quvchi tabaqalashtirib o'qitishda asosiy iste'molchi hisoblanadi. Uning o'qituvchi rahbarligida bilimlarni o'zlashtirishi, ta'lim - tarbiya olishi, mustaqil fikrlashi va ishlashga o'rganish orqali asosiy maqsad amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan ilg'or, novatorlik tajribasiga ega bo'lgan pedagog xodimlar ozchilikni tashkil qiladi. Shuning uchun maktab o'qituvchilariga tabaqalashgan ta'limni amaliyotga joriy etish uchun yordam ko'rsatish bugungi kunning talabidir.

Shuning uchun:

1. O'qituvchilarga sinf o'quvchilarining qobiliyati, intilishi, idroki, psixologik holatini aniqlashga o'rgatish;
2. Ularni tabaqalashtirib o'qitish mohiyatiga oid bilimlar bilan qurollantirish;
3. O'qituvchilarga DTS talabidan kelib chiqqan holda reja, dastur, o'quv materiallari, didaktik materiallar tayyorlash va ular bilan ishlashga o'rgatish;
4. O'quvchilar bilimini nazorat qilishda avvaldan ishlab chiqilgan qat'iy mezonlarga tayanish;
5. O'qituvchilarga o'quvchilarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish usullarini o'rgatish;
6. O'qituvchilarning o'z faoliyatini tahlil qilishi va chiqarilgan xulosalar asosida uni korreksiyalashga o'rgatish.

*Talimni samarali tashkil etishning yo'llari quyidagilardan iborat:*

- darajali tabaqalashtirilgan ta'limning moddiy - texnikaviy asoslarini kengaytirish;
- o'qituvchilarni darajali tabaqalashtirilgan ta'limga tayyorlash;
- darajali tabaqalashtirilgan ta'limni samarali tashkil etayotgan o'qituvchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, ularning tajribalarini ommalashtirish;
- tabaqalashtirilgan guruh, va sinf uchun tegishli o'quv - metodik majmualar tayyorlash;
- xorijiy mamlakatlarda to'plangan ilg'or tajribalarni o'rganish, tahlil qilish va o'qituvchilarni ular bilan tanishtirish;
- oliy o'quv yurtlarida bo'lg'usi pedagoglarni tabaqalashgan ta'limga tayyorlash;
- har bir fan va sinflar kesimida ta'lim mazmunini ta'limni tabaqalashtirish talablari asosida ishlab chiqish.

*Ta'limni tabaqalashtirishda quyidagilar muhim hisoblanadi:*

1. Har bir o'quvchining shaxsiy fazilatlarini, intellektini yaxshi bilish, uning o'quv dasturlarida belgilangan bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishiga erishish.

2. O'quvchida mustaqil fikrlashni o'stirish.
3. O'quv va aqliy motivatsiyani o'stirish.
4. O'quvchining qiziqishlari va o'ziga xos qobiliyatini o'stirishga sharoit yaratish.

Quyidagi uch guruh ichki darajali tabaqalashtirishni amalga oshirishda muhim o'rin tutadi. Ularni ichki darajali tabaqalashtirishda o'quvchilar uch guruhga ajratilgan holda o'quv faoliyatiga jalb etiladi. Har bir guruh uchun o'ziga xos ta'lim mazmuni va o'quv faoliyati belgilanadi.

**Birinchi guruh** o'quvchilariga o'tilmagan mavzu yuzasidan qiziqarli topshiriqlar beriladi. Topshiriqlar kartochkalar bo'yicha belgilangan bo'lib, ular bo'yicha o'quvchilar ijodiy va mustaqil ishlashadi.

**Ikkinchi guruh** o'quvchilariga esa analiz va sintez bilimlar asosida bilim beriladi. Yangi mavzuga oid materiallar o'quvchilar e'tiboriga havola etiladi.

**Uchinchi guruh** o'quvchilari ikkinchi guruhga havola qilingan topshiriqlarni bajarishda ishtirok etadilar. Shu bilan birga avvalgisidan ko'ra murakkabroq bo'lgan vazifalarni bajaradilar.

Tabaqalashtirilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchilarga nisbatan bilimlarni o'zlashtirishning turli darajalari qo'llaniladi. Ular reproduktiv, konstruktiv, ijodiy darajadagi o'zlashtirish turlarini uz ichiga oladi.

*Darajali tabaqalashtirilgan ta'lim texnologiyasining bosh maqsadi sifatida quyidagilarni qayd etish lozim:*

- O'qitish (o'quv amaliy topshiriqlarni yechishda olingan bilimlarni qo'llay bilish);
- Rivojlanish (o'quvchilar tomonidan umumiy malakalarni o'zlashtirish);
- Tarbiyalash (bilim olishga ijobiy munosabatni shakllantirish).

Qayd etilgan maqsadga erishish uchun har bir o'quvchining o'qishiga va ulardagi mavjud potensial imkoniyatlarning rivojlanishiga qulay shart - sharoitlarni yuzaga keltirish zarur.

Yuqorida ta'kidlanganidek, jamiyatimizning ta'lim muassasalariga qo'ygan buyurtmasi aks ettirilgan ushbu hujjatda "Iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga

ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart - sharoit yaratish" zarurligi ta'lim muassasalari jamoalariga yuklatilgan.

Bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim muassasalarida tabaqalashtirilgan ta'limni amalga oshirishga tayyorlashda pedagogik amaliyot, ularning ilmiy - tadqiqot, ilmiy - metodik ishlari, auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarning imkoniyatlari namoyon qilinmaganligini ta'kidlash lozim,

### **Pedagogika fanining ta'limni tabaqalashtirish bo'yicha ichki imkoniyatlari**

| <b>Mavzular,<br/>savollar</b>                     | <b>Tabaqalashtirilgan ta'limning mazmuni,<br/>shakl, metodlari</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         |
|---------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Pedagogikaning maqsadi, vazifalari                | Tabaqalashtirilgan ta'limning asosiy maqsadi - ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish va o'quvchilarning o'z bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishga bo'lgan ehtiyojlarini ko'prok qondirishdan iboratdir. Uning asosiy vazifasi - ta'lim jarayonining yuqori samaradorligini ta'minlash uchun o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini chuqur o'rganish mezonlarini aniqlash, nimalarga asosiy e'tiborni qaratish lozimligini belgilab olishdan iborat. Tabaqalashtirilgan ta'limning ijtimoiy mohiyati, bir tomondan, har bir o'quvchida ijodkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, bunyodkorlikni shakllantirishdan iborat bo'lsa, ikkinchi tomondan, ta'limdagi tenglashtirish uslubidan qutulish, har kimni qiziqishi, qobiliyati, erishgan natijalari asosida istiqbollarga yangi istikbollarga chorlashga zamin yaratish. |
| «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash | Tabaqalashtirilgan o'qitishning metodologik asoslari ta'limni insonparvarlashtirish (o'quvchiga har tomonlama hurmat va muhabbat ko'rsatish, unga yordamlashish, uning ijodiy qobiliyatiga ishonch bilan qarash, zo'rlashdan to'la voz kechish)                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |

|                                                                    |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         |
|--------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p>milliy dasturi»<br/>- pedagogika fanining metodologik asosi</p> | <p>va demokratiyalashtirish (o'quvchi va o'qituvchi huquqlarini tenglashtirish, o'quvchining erkin tanlab olishi, xatoga yo'l qo'yishi, o'z nuqtai nazariga ega bo'lishi huquqlari)dan iborat bo'lib, u pedagogik - psixologik jihatdan har bir o'quvchiga qulay sharoitda qiziqishi, qobiliyati, ehtiyojiga yarasha ta'lim olish imkoniyatini yaratadi.</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |
| <p>Kadrlar tayyorlashning milliy modeli</p>                        | <p>Ma'lum talablar asosida tuzilgan guruhdagi o'quvchilarga ta'lim berish ichki tabaqalashtirish uslubi hisoblanib, u eng yuqori qobiliyatga ega bo'lganlar uchun ham umumiydir. U o'quvchilarning bilim, ko'nikmalarini an'anaviy tarzda hisobga olgan holda amalga oshirilishi mumkin. O'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari, erishgan natijalarini aks ettiruvchi aniq dalillar asosida tuzilgan guruhda esa tashqi tabaqalashtirilgan ta'lim amalga oshiriladi. Yuqorida bayon qilinganlarga asoslanib, tabaqalashtirishning quyidagi modelini keltiramiz. Ichki tabaqalashtirish (toifalarga ajratilmagan): o'quvchilarga tabaqalashtirilmagan holda yondashish; holatiga qarab tabaqalashtirish: fan dasturi asosida majburiy ta'lim berish. Tashqi tabaqalashtirish (toifalarga ajratilgan): eklektiv (yumshoq) tabaqalashtirish: o'quv - mavzu dasturlari moslashtirilgan ta'lim; erkin mavzularda amaliy mashg'ulotlar o'tkazish. Selektiv (maxsus) tabaqalashtirish</p> |
